O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
JAHON SIYOSATI VA TARIX FAKULTETI

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu:**B.X. Karmishevaning O’rta Osiyoga oid tadqiqotlari: etnologik va tarixshunoslik tahlili**

**Bajardi:** “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi”
ta'lim yo’nalishi bitiruvchi kurs talabasi
SaydaliyevUmidjonUzoqmurotovich

_______________

(imzo)

**Ilmiy rahbar:** “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi”
kafedrasi t.f.d.prof.,A.X. Doniyorov

_______________

(imzo)

**TOSHKENT-2014**

**Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etildi**

| | |
|---|---|
| “Jahon siyosati va tarix” | “Markaziy Osiyo xalqlari t arixi” |
| fakultetidekani | kafedrasimudiri |
| s.f.n., dots., I.N. Bekmuratov | t.f.n., X.T. Fayziyev |
| ______________________ | ______________________ |
| “____” ______________2014yil | “____” ______________2014yil |

**Mundarija**

**Kirish**..........................................................................................................2- 7

**I - BOB.Balkis Xalilovna Karmishevaning hayoti vafaoliyati**.

I.1.Balkis Xalilovna Karmishevaning hayoti ............……...............................8 -13

I.2.B.X.Karmishevaning O’rta Osiyo tadqiqotlarining umumiy tasnif...........................................................................................................13-20

**II- BOB. B.X.Karmishevaning O’rta Osiyoga oid tadqiqotlari: etnologik va tarixshunoslik tahlili**.

II.1.O’zbekiston janubiy mintaqa aholisining etnogenezi va etnik tarixi.......21-30

II.2.Tojik xalqiningetnogenezi va etnik tarixi.............................................30-38

**III-BOB.B.X. Karmishevaning O’rta Osiyoga oid tadqiqotlarida hududiy etnoxo’jalik ixtisoslashuvining asosiy yo’nalishlari**.

III.I. Xo’jalik-madaniy tiplar va ularning mintaqaviy xususiyatlari................39-51

III.II.O’rta Osiyo xalqlari xo’jalik faoliyati va an’anaviy mashg‘ulotlari...........................................................................................51-67

**Xulosa**...........................................................................................................68-70

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**............................................................71-76

**Ilova**..............................................................................................................77-78

# Kirish

**Mavzuningdolzarbligi.**O'zbekistonmustaqillikkaerishgachVatanimiztarixini, qadimiydavlatchiligimizasoslarinio'rganishgavaO'zbekistonningsiyosiy-iqtisodiymustaqilliginimustahkamlashga, o'tmishdavrtarixi, ilmiymanbalardanijodiyfoydalanishgae'tiborkuchaymoqda.Ayniqsa, RespublikamizPrezidentiIslomKarimovyetakchiligidahukumatimizrahbariyatining buboradaolibborayotganamaliyishlarialohidatahsingasazovordir.Prezidentimizo'ztarixinibilgan, undanruhiyquvvatoladiganxalqniyengibbo'lmasekan, bizhaqqoniytariximiznitiklashimiz, xalqimizni, millatimiznianashutarixbilanqurollantirishimizzarurliginiko'rsatib, tariximizqadimiyliginialohidako'rsatibo'tdilar.

O'zbekistonmustaqilligningdastlabkiyillaridanboshlabo'zbekxalqiningdavlatchiliktarixiniuningetnogenezivaetniktariximasalalaribilanuyg'unholdatadqiqetilishiO'zbekistontarixifanivaumumanijtimoiy-gumanitarfanlarning (etnologiya, antropologiya, arxeologiya, numizmatika, toponimika, tarixiytilshunoslik) tadqiqotob'ektisifatidadolzarbmasalagaaylandi. Zero, O'zbekistonPrezidentiI.A. Karimovning "...harqandaymilliybirlikning, uningtil, madaniyvaboshqaxususiyatlariningyo'qbo'libketishiYeryuzidagimadaniyvagenetik fondning, shaxsimkoniyatlariningqashshoqlashuvigaolibkeladi.Shubois, harbiretnikbirliknisaqlabqolishungamansubodamlarningengmuhimmaqsadibo'lmog'ikerak"[1]debta'kidlabo'tganligimilliyo'zliknianglash, xalqningqadimiytarixi, kelibchiqishivauningshakllanishjarayonlariniilmiyasosdao'rganishnaqadardolzarbekanliginitasdiqlaydi.

Ma'lumki, O'rtaOsiyohududiuzoqdavometgantarixiyvaetnikjarayonlarnatijasidao'ziningavtoxtonasosinisaqlabqolganholdapaydobo'lganetnikjamiyatishakllanganqadimiymadaniymintaqahisoblanadi.

---

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari / Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. – Toshkent: O'zbekiston, 1998. T. 6. – B.75-76.1

Buhududdayashayotganxalqlarningildiziuzoqo’tmishdavujudgakelganvamadaniyet nossifatidashakllanishningmurakkabvao’zigaxostarixiyyo’linibosibo’tganligitarixiy-etnografiktadqiqotlardao’zisbotinitopgan. Albatta, O’rtaOsiyoxalqlarinigetnogenezivaetniktariximasalalariborasidasovetlardavridako’lamijihatdankattaishlarqilinganligima’lum. Ammobudavrdagitadqiqotlarningaksariyatqismimafkuraviytazyiqlarta’siridabajarilganligi, tarixiyjarayonlarbirtomonlamaya’ni, formatsiyaviyyondashuvlarasosidatadqiqetilganligietnikjarayonlarnito’laqonlivailmiyxolislikbilanyoritibberishdabirqatormuammolarnikeltiribchiqardi. Shubilanbirgamazkurdavrdayaratilganadabiyotlarningba’zilaridailmiy-malakaviyahamiyatimafkuradanxolislikko’rinishidaaksetganjihatlarinihamkeltiribo’tishlozim.MazkurbitiruvmalakaviyishO’rtaOsiyohududiniilmiy-amaliyjihatdantadqiqetganolimaBalkisXalilovnaKarmishevaninghayotfaoliyati, ilmiyizlanishlari, etnologiktadqiqotlariyo’nalishlarivaumumiyxulosalarihaqidabo’lib, uningO’rtaOsiyoxalqlarinigetnogenezivaetniktarixiborasidako’lamijihatidansamaraliishlarqilganliginiko’rsatibberishmaqsadgamuvofiqdir. MavzuningdolzarbligijihatidanmuqoyasaqilgandaB.X.KarmishevaningO’rtaOsiyogaoidtadqiqotlari, etnologiktahlilishlarimazkurhududdayashayotganxalqlarningetnogenizivaetniktarixiniyoritishdamuhimmanbalarqatoridatilgaolinishibarchamizgama’lum. B.X.Karmishevaningtadqiqotlario’zigaxosuslubdaya’nio’rganilayotganhududaholisiningtili, dini, madaniyativaetnikxususiyatlaridankelibchiqibamalgaoshirilganligibilanharakterlanadi. Uningbusohadaqilganishlariniilmiytahlilqilish, o’shapaytdayaratilganasarlarbilantaqqoslabumumiyxulosalarchiqarishvaengasosiysiB.X.Karmishevaningmazkurmintaqaganisbatanyo’nalishinio’rganishbitiruvmalakaviyishningasosinitashkilqiladi.

**Muammoningo’rganilishdarajasi.**B. X. KarmishevaningO’rtaOsiyogaoidtadqiqotlari,ilmiy-

amaliyishlariningahamiyatixususidatarixshunosliktadqiqotlarda, xususantarixshunosliknuqtainazardanmaxsustadqiqotob’ektisifatidao’rganilmagan. Afsuski, bizmazkurmasaladafaqatginaolimaningvafotidanso’ngRossiyaFanlarAkademiyasinietnografi, tarixchiolimaS.S.Gubayevaning 2001-yil “Этнографическоеобозрение” ilmiyjurnalining №3 sonidae’lonqilingan“Некролог”[2]danboshqa hechqandayilmiyishnashrqilinmaganliginianiqladik.

**Mavzuning maqsad va vazifalari.**O’zbekiston tarixnavislari hamda manbashunoslari oldida turgan asosiy vazifa bu –O’zbekiston xalqlari tarixini ishonarli va haqqoniy manbalar asosida yoritishdir. B.X.Karmishevaning etnologik yo’nalishdagi ilmiy tadqiqotlari, amaliy ishlari va etnografik bilimlarini muayyan bir tizimga keltirgan holda to’plab, o’rganib chiqishbitiruv malakaviy ishning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

*Birinchidan* - B.X.Karmishevaning hayoti va ilmiy faoliyati haqida asosli ma’lumotlarga ega bo’lish va o’rganish;

*Ikkinchidan* - etnologik yo’nalishdagi ilmiy tadqiqotlari, amaliy ishlarini o’rganib chiqish;

*Uchinchidan* - etnografning O’rta Osiyo hududi aholisi etnogenizi va etnik tarixiga oid bilimlarini tizimlashtirish;

*To’rtinchidan* – umumiy tahlil jarayonida etnografning O’rta Osiyo hududi aholisi etnik tarixi masalasiga bo’lgan xolisonayondashuvini aniqlash.

**Tadqiqot ob’ekti vapredmeti.**B.X.Karmishevaning O’rta Osiyoga oid etnologik yo’nalishdagiilmiy tadqiqotlarinatijalario‘laroqyaratilganilmiyadabiyotlaritadqiqotob’ektinitashkil etadi.

O’zbekiston janubiy mintaqa aholisi va tojiklarning etnogenezi va etnik tarixi, hududiy etnoxo’jalik ixtisoslashuvining asosiy yo’nalishlari, xo’jalik-

---

[2] С.С.Губаева “Некролог”, “Этнографическое обозрение” журнал- №3., 2001-yil., С-154-157.

madaniy tiplar va ularning mintaqaviy xususiyatlari, O’rta Osiyo xalqlari xo’jalik faoliyati va an’anaviy mashg‘ulotlari tadqiqot predmetini tashkil etadi.

**Ishning ilmiy yangiligi.**Bitiruv malakaviy ishda B.X.Karmishevaning etnologik yo’nalishdagi ilmiy tadqiqotlariqiyosiy-tanqidiy ruhda o’rganilib, tahlil qilindi.B.X.Karmishevaning etnologik yo’nalishdagi ilmiy tadqiqotlari, amaliy ishlari va etnografik ma’lumotlariilmiy asosda tahlil qilinib, tarixshunoslik va etnologik bilimlarga oid yutuqlari sarhisob etildi. Karmishevaning O’rta Osiyoga oid tadqiqotlari, etnologik va tarixshunoslik tahlili alohida maxsus tadqiqot obyekti sifatida o’rganilmagan. Shundan kelib chiqib, ishda birinchi marta olimaning etnologik tadqiqotlarini alohidamaxsustadqiqotob’ekti sifatida yaxlit bir tizimga solib o’rganishgaharakat qildik.

**Ishning ilmiy-amaliy ahamiyati.**Tadqiqotning natijalari va xulosalari tarixshunoslik masalalari, o‘zbek va tojik xalqlarining etnogenezi va etnik tarixi muammolari borasida etniklik, etnik-madaniy aloqadorlik, o‘troq va nomadik sivilizatsiyalarning hamda xo‘jalik-madaniy tiplarning etnik differensiatsiyaga ta’siri kabi masalalarga yanada oydinlik kiritishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot tarixshunoslik yo’nalishida ilmiy-amaliy ishlar qilishda, shuningdek, o‘zbek va tojikxalqlarining shakllanishi va etnik tarixi borasida kompleks tadqiqotlar olib borishda, Oliy o‘quv yurtlarida “Etnologiya” mutaxasisligi bo‘yicha nazariy va amaliy mashg‘ulotlar o‘tishda, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar va darsliklar yaratishda, tarixshunoslik ilmi yo’nalishida bakalavr va magistr kadrlar tayyorlashda, etnik-madaniy aloqalar va etnoslararo munosabatlar masalalarni hal etishda foydalanilishi bitiruv malakaviy ishningning amaliy ahamiyatini belgilaydi.

**Nazariy metodologik asoslari.**Bitiruv malakaviy ishda o‘rganilayotgan muammoni to‘g‘ri talqin etishda ilmiy bilishning xolislik, haqqoniylik tamoyillariga amal qilindi. Turli manba va ma’lumotlarni tahlil qilishda ularga qiyosiy va tanqidiy nuqtai nazardan yondashildi. Davr xususiyatlarini nazarda tutgan holda voqealar tarixiylik, tadrijiylik, sivilizatsion yondashuv usullari asosida

umumlashtirildi va tahlil etildi. Bitiruv malakaviy ishning nazariy-uslubiy asosini ishlab chiqishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari, ma’ruza va nutqlarida ilgari surilgan ilmiy-nazariy ko‘rsatmalari, shuningdek, tarixiy shaxslar, qadimiy shaharlarning yubiley tantanalaridaso‘zlagannutqlariva «O‘zbek xalqi davlatchiligi tarixi konsepsiyasi» muhim ahamiyat kasb etdi. O‘zbekistonRespublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27- iyulda e’lon qilingan «O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida»gi qarorida «O‘zbekiston va chet el olimlarining eng qadimdan hozirgi kungacha o‘zbek xalqi tarixi bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarini tahlil qilish»[3] tarixchi olimlar oldida turgan dolzarb vazifalardan biri ekanligi ko‘rsatib o‘tilganligi yuqoridagi fikrni yana bir karra tasdiqlaydi.Yuqorida belgilab berilgan vazifalar asosida B.X.Karmishevaning O’rta Osiyoga oid tadqiqotlari, etnologik ilmiy ishlaritarixshunosliknuqtai nazaridan o’rganib chiqildi.

**Tadqiqotning tuzilishi.** Bu bitiruv malakaviy ishi kirish qism, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati hamda ilovalardan iborat. Uning umumiy hajmi 78 betni tashkil etadi.

---

[3] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida»gi Qarori // O‘zbekiston tarixi.-1999. - №1. -B. 15-17.

# I Bob. Balkis Xalilovna Karmishevaning hayotivailmiy faoliyati

## I.1. B. X. Karmishevaning hayot faoliyati

XX asr ikkinchi yarmidan boshlab O'rta Osiyo hududida arxeologik va etnografik tadqiqotlar keng ko'lamda amalga oshirila boshlandi. O'rta Osiyo hududinio'rganish bo'yicha juda ko'plab olimlar o'z yo'nalishlarida ilmiy-amaliy, tadqiqot ishlarini amalga oshirdilar. Ana shunday tarixchi-tadqiqotchilardan biri taniqli etnograf-turkolog Balkis Xalilovna Karmishevadir. B.X.Karmisheva 1916-yil 3-iyulda hozirgi Xitoyning Sinzyan muxtor viloyati(Sharqiy Turkiston)dagi G'ulja shahrida ko'p farzandli, xususiy savdo firmasi xodimining oilasida dunyoga keladi. Bu davr o'ta murakkab voqeliklar, hodisa va jarayonlar bo'lib o'tganligi bilan harakterlanadi. Butun Rossiya o'lkadasida sovetlar hokimiyat tepasiga kelganliklariva sotsialistik jamiyat qurishga harakat boshlangani uning qo'shni hududlariga ham o'z ta'sirinio'tkazmay qolmaydi. 1925-1930-yillardagiindustrlashtirish, biroz o'tib jamoalashtirish siyosatining joriy etilishi, boy xo'jaliklarining tugatilish (quloqlashtirish)i Karmisheva otasining 1930-yil oxirida Kolimuda surgun qilinishiga sabab bo'ladi. Mazkur voqea munosabati bilan ularning oilasiO'zbekistonning shimoliy-sharqiy hududlariga ko'chib o'tishga majbur bo'ladi.

B.X.Karmisheva bir muddat Andijonda yashab tekstil kombinatida ishladi. Undan so'ng qishloq xo'jaligida, shuningdek Oqsu-Jabog'li(Qozog'istonning Chimkent viloyatiga to'g'ri keladi) qo'riqxonasida ilmiy kuzatuvchi xodim bo'lib ishladi. Ma'lum muddat maktabda o'qituvchilik qiladi.U o'z qiziqishlarini ko'proq ijtimoiy-gumanitar fanlarga qaratdi. Tarix fanining tarkibiy qismi bo'lgan

arxeologiya, etnologiya va etnografik yo'nalishlaridagi barchailmiy maqolalar va adabiyotlarni zo'r qiziqish bilan mutolaa qilardi. Bu qiziqish uniO'zbekiston Fanlar akademiyasi qoshidagiO'rta Osiyo Davlat Universitetining tarix fakultetiga kirib o'qishiga turtki bo'ldi. 1946-yilda O'rta Osiyo Davlat Universitetining Masson arxeologiya kafedrasini tamomladi.Shundan so'ng A.A.Semenova qo'l ostida SSSR fanlar akademiyasining Tojikiston tarix institutining arxeologiya va etnografiya bo'limida amaliy faoliyatini boshladi. 1950-yilda Leningraddagi SSSR Fanlar Akademiyasining etnografiya institutiga aspirantura tahsili uchun o'qishga kirdi. Aspiranturani tugatganidandan so'ng, yana Dushanbega qaytadi. Bu yerda (Tojikiston tarix institutining arxeologiya va etnografiya bo'limi) 1956-yilgacha ma'lum muddatinstitut ko'rsatmalari bo'yicha ishladi. U yerda dastlab ilmiy kotiba, keyinroq bosh ilmiy xodim vazifasida faoliyat yurita boshladi.Ushbu faoliyatini 60-yillargacha davom ettirdi.

Uning qariyib butun umriO'rta Osiyo hududlarida o'tdi.O'rganishi lozim deb bilgan asosiy mavzusi – O'rta Osiyo ikkidayo oralig'idagio'troq aholi bilan ko'chmanchi qabilalalar o'rtasidagi etnik, moddiy va madaniy aloqa – munosabatlarnio'rganishga harakat qildi. Birinchi monografiyasio'zbek va tojiklarning mahalliy tub aholisi[4] haqida bo'ldi.

Balkis Xalilovna Karmishevaning asosiy ilmiy sohasi – etnograf, turkolog bo'lib, yetmishinchi yillardan to umrining oxirigacha Rossiya Fanlar akademiyasining etnografiya institutida katta ilmiy xodim bo'lib ishladi. Uzoq yillar davomida qilgan mehnatlariva amaliy tadqiqot ishlari uchun tarix fanlari doktori, professor darajasini oldi. Olima butun O'rta Osiyo hududiniyayov kezib chiqqan va har bir urug', elat va xalqning etnogenizi va etnik tarixi bo'yicha ma'lumotlar to'plagan, moddiy va ma'naviy madaniyati bo'yicha chuqur ilmiy izlanishlar olib borgan tadqiqotchi edi.

Yuqorida e'tirof etib o'tganimizdek, RossiyaFanlarAkademiyasinietnografi, tarixchiolimaS.S.Gubayevaning 2001-yil "Этнографическоеобозрение"

---

4 Кармышева Б.Х. Узбеки-локайцы Южного Таджикистана. ТИИАЭ АН Тадж.ССР. Сталинабад. 1954. Т.XXVIII. Вып.1. С. 97 – 127.

ilmiyjurnalining №3 sonidae'lonqilingan "Некролог"maqolasida B.X. Karmisheva hayoti va faoliyati haqida quyidagi fikrlarini keltirib o'tadi.

"Rossiya Fanlar Akademiyasi antropologiya va etnologiya instituti katta ilmiy xodimi, tarix fanlari doktori B.X. Karmisheva 2000-yil 9-oktabrda uzoq davom etgan og'ir hastalikdan so'ng vafot etdi.U o'z kasbining fidoiysi, iste'dodli olima, O'rta Osiyo xalqlari etnografiyasi bilimdoni, taniqli elshunos edi. B.X.Karmisheva bilan birga ishlagan xodimlar,uning  o'quvchilari, do'stlari ajoyib, oqko'ngil va mehnatkash insonidan ajraldilar."[5]

"Dunyoda hech narsa oila kabi muqaddas emas"! Bu jumlani Zabolotskiy B.X.Karmishevaning butun umriga epigraf sifatida qo'yish mumkin deb ta'kidlagan edi.  Hushchaqchaq, oqko'ngil, qatiyatli, tanqidni to'g'ri qabul qila oladigan, har qanday fikrga ijobiy baho bera oladigan etnograf olima edi. U hayotning barcha jabhalariga qiziqqan, ularga nisbatan munosabat bildira oladigan betakror shaxs edi. U hushmanzara tabiatni, tinch muzey zallarini, musiqa va kitoblarni, sayohatni va bir piyola choy ustida bo'ladigan qizg'in suhbatni yoqtirardi. Karmisheva kuz faslida sarg'aygan daraxtlar manzarasida  chuqur falsafiy fikrlar haqida o'y yuritishni yoqtirardi. Uni hayotga bo'lgan muhabbatini aviahalokatga uchrashi, konferensiyalarning  biridan qaytayotganda yiqilib, miya chayqalishi oqibatida orttirgan kasalliklari ham so'ndira olmadi. Boshidan olgan jiddiy jarohatiga qaramay ilmiy faoliyati yo'nalishida ko'plab monografiya va qator kitoblarni yozib chop ettirdi."

"Zamonaviy O'rta Osiyo etnografiyasini B.X. Karmishevasiz tasavvur qilish qiyin.Do'stlari  ta'biri bilan aytganda olimani etnografiya yo'nalishidan boshqa sohada tasavvur qilish undanda  qiyinroq" - deb ta'kidlaydi S.S.Gubayeva

"B.X.Karmisheva mashhur siymolarimiz kabi juda yoshligidan ko'p ijobiy xislatlarga ega bo'lgan edi.U nihoyatda ziyrak, idrokli, keng mushohadali, o'ta qiziquvchan, uquvli, bilimga chanqoq, mehnatkash edi.Shuning uchun ham olima bu sohada yoshligidanoq iste'dodli, «tug'ma etnolog» sifatida tanildi. Bu tanilish yosh etnografning hushfe'l tabiatidan tashqari, uning ilmiy ijodga jon-dili bilan

---

5 С.С.Губаева "Некролог",  "Этнографическое обозрение"  журнал- №3., 2001-yil., С-154-157.

berilishi, etnologiya sirini bilishga urinishi, bu yo'lda tinimsiz o'rganishi va izlanishi samarasi edi. Do'stlarining fazilatlarini behad hurmat qilish bilan birga Sharq adabiyoti va og'zaki ijodining boyliklarini ham egallashga intildi..."

S.S.Gubayeva tabiri bilan aytganda "O'z yo'nalishining mohir ustasi, har bir ilmiy ishini kuzatuvchanlik va zo'r g'ayrat bilan amalga oshiradigan, ertadan-kechgacha tinim bilmay harakat qiladigan mehnatsevar chumoli edi. U O'rta Osiyo xalqlari etnogenizi va etnik tarixini o'rganish barobarida xalqning tili, dini, falsafiy dunyoqarashi va ijtimoiy psixologiyasini bilan yaqindan tanishdi va sabot bilan o'rgandi. Buni o'z kundaliklarida ham qayd etib o'tadi."[6]

"B.X.Karmisheva haqida gap ketganda",-deb, ta'kidlaydi- S.S.Gubayeva "hayotda ham, ilmda ham, kundalik turmushda ham halollikni, adolatni, e'tiqodni mahkam tutgan, har qanday sharoitda haqiqatni himoya qilgan zabardast inson siymosi ko'z oldimizda gavdalanadi.Bu chinakam ma'nodagi olim, bukilmas shaxs boshidan ne-ne savdolar kechmadi. Yuqorida aytilganidek, iqtisodiy qiyinchiliklar va urush yillariga to'g'ri kelgan og'ir bolalik va o'smirlik yillarida ham, tarix va adabiyotga bir yoqlama, hukmron mafkura manfaatlaridan kelib chiqib baho berish talab etilgan o'tgan asrning 50—80-yillarida ham, o'ziga qarshi turli ig'volar uyushtirilgan paytlarda ham B.X.Karmisheva hayotiy prinsiplaridan tonmadi, barcha ko'rgiliklarga bardosh berdi. B.X.Karmisheva o'z yo'nalishining haqiqiy ijodkori, qalam tebratuvchisi hisoblanadi. Uning ishlarida xolislik va adolatlilik tarannum etgan mohir ijodkor edi..."[7]

B.X.Karmishevaning O'rta Osiyoga oid tadqiqotlari, ilmiy-amaliy ishlarining ahamiyati xususida tarixshunoslik masalalarida, chiqargan monografiyalar va dissertatsiyalarida mazkur mintaqaning tarixiy etnografik holati, aholisining etnogenizi va etnik tarixi, umuman etnologik tadqiqotlarining barchasi tadqiqot obyekti bo'lib hisoblanadi.

Olima butun O'rta Osiyo adirlari va bepoyon kengliklarini yayov kezib chiqqan va har bir urug', elat va xalqning etnogenizi va etnik tarixi bo'yicha

---

[6] С.С.Губаева "Некролог", "Этнографическое обозрение" журнал- №3., 2001-yil., C-154-157.

[7] С.С.Губаева "Некролог", "Этнографическое обозрение" журнал- №3., 2001-yil., C-154-157.

ma'lumotlar to'plagan, moddiy va ma'naviy madaniyati bo'yicha chuqur ilmiy izlanishlar olib borgan tadqiqotchi sifatida ko'rishimiz mumkin.

B.X.Karmisheva ilmiy tadqiqotlariga tayanib, oltmishdan ziyod o'zbek urug'lari haqida ma'lumotlar to'pladi. O'rta Osiyo hududida bu urug'larning 28 tasini bevosita uchratib amaliy o'rganligini, shuningdek ularning tarqalgan joylarini aniq ko'rsatib berdi. Etnografning "ОчеркиэтническойисторииюжныхрайоновТаджикистанаиУзбекистана" nomli asari o'zbek va tojik xalqining etnik tarkibi va tarixini tadqiq etishga qaratildi. Bitiruv malakaviy ishda ushbu asarning muhim ahamiyatga ega jihatlarini olib ko'rsatishda foydalanildi.

Shuningdek, olima o'zbeklarning ko'pgina urug'lari haqida muhim ma'lumotlarni keltirib o'tadi. Muallif 32 ta o'zbek urug'i ro'yxatini keltiradi va ularning joylashuv xususiyatlari borasida o'zining fikr-mulohazalarini bildiradi. Masalan, mang'it, yuz, qo'ng'irot, laqay, qipchoq, ming kabi o'zbek urug'lari va ularning tarqalishi haqida muhim ma'lumotlarni keltiradi. Zarafshon vohasidagi o'zbek urug'lari va ularning tarqalishi haqida ma'lumotlarni berish bilan birgalikda ular haqida yozma manbalarning borligi haqida dastlabki ma'lumotlarni keltirib o'tadi. Zarafshon vodiysida yashovchi o'zbek va tojiklar, xususan, qatag'on, mang'it, ming, nayman, yuz, jaloyir, uyshun, tuyoqli, qirq kabi yirik urug'larning kelib chiqish tarixi, antropologik va etnohududiy xususiyatlari borasida muhim ilmiy qiymatga ega bo'lgan mulohazalarni bildirib o'tadi.

B.X.Karmisheva XX asr ikkinchi yarmida O'rta Osiyoning janubiy mintaqalarida yashovchi o'zbek, tojik, qirg'iz xalqlarining etnik tarkibi haqida ham muhim ma'lumotlarni beradi. Xususan, o'rganilayotgan mintaqada keng tarqalgan qo'ng'irotlarning genelogiyasi haqida maxsus tadqiqot olib boradi. Bu tadqiqot urug'chilik an'analarini yaxshi saqlab qolgan etnik guruhlarni alohida tarzda chuqur o'rganish uchun qilingan dastlabki sa'y-harakat edi. Muallif qo'ng'irotlarning yanada mayda urug'larga (geneonimlarga) bo'linishini ma'lum bir tizimga solgan holda tavsif etib beradi. B.X. Karmisheva "Узбеки, Расы и народы. Ежегодник Современные этнические и расовые проблемы"

maqolasida tadqiq etatgan davrning birinchi yarmida Buxoro amirligi hududida yashagan o‘zbek urug‘lari hamda ularning genealogiyasi haqida ham to‘xtalib o’tadi.Shuningdek, vohadagi etnografik guruhlarning tutgan mavqeiga qarab ketma-ketlikdagi ro‘yxatini keltirib o’tadi. Surxon-Sherobod vodiysida istiqomat qiladigan qo‘ng‘irot, qatag‘on, yuz, do‘rmon, turk kabi urug‘lar muallif bayon etgan Buxoro amirligi hududi bo‘yicha tuzilgan ro‘yxatda aks etgan.[8]

B.X.Karmisheva ilmiy-amaliy faoliyati haqida fikr bildirish va alohida o’rganish aytarli biror bir tadqiqotchi ishlarida uchramaydi.

Olima 2000-yil 9-oktabr sakson to’rt yoshida, Moskvada vafot etdi.Uning yozgan asarlari etnografning xotirasiga qayta nashr ettirildi.B.X.Karmishevaning monografiyalarinio’rganish bo’yicha ilmiy tadqiqot ishlari yo’lga qo’yildi.Hozirgi kunlarda ham bu asarlar bo’yicha tarixchi-tadqiqotchilar tahlil ishlarini amalga oshirib kelmoqdalar.

## I.2. B.X. Karmishevaning O’rta Osiyo tadqiqotlarining umumiy tasnifi

O’rta Osiyo xalqlarining etnografiyasi, etnogeneziva etnik tarixi masalalarining o’rganilishiga tarixshunoslik tadqiqotlarida asosliva yetarli darajada e’tibor qaratilgan. Ammo u yoki bu ilmiy muammoning alohida masalalari nuqtai-nazaridan olganda tarixshunoslik tahlillariga tortilishi lozim bo’lgan masalalar ham talaygina.Ushbu bitiruv malakaviy ishida tadqiq etilayotgan mavzu ham yuqorida ta’kidlangan ilmiy masalalarning uzviy qismi hisoblanadi. Shu asosda B.X. Karmishevaning O’rta Osiyo tadqiqotlarining umumiy tanifi, etnologik jihatlarini yoritishga xizmat qiluvchiilmiy-amaliy tadqiqot ishlarini tasniflash va tahlil etish maqsadga muvofiq deb topildi.  Avvalo, O’rta Osiyo mintaqasining etnologik tadqiqotlariva etnogeniz masalalari bilan juda ko’plab olimlar ilmiy yo’nalishda izlanishlar olib borganlar. Karmishevaning bu yo’nalishdagi tadqiqotlari bilan boshqa etnograflarning ilmiy izlanishlarini muvofiqlashtirilgan holda o’rganishni

[8] . Кармышева Б.Х. Узбеки // Расы и народы. Ежегодник «Современные этнические и расовые проблемы». М., 1984. Вып. 14. С. 219 – 230

lozim topdik.Umumlashmaning eng asosiy jihati olimlar o'rgangan mazkur mintaqa hududining etnologik tadqiqot ishlari B.X. Karmisheva ilmiy-amaliy izlanishlari bilan bir asosda va yo'nalishda ekanligi bilan harakterlanadi. Ya'ni B.X. Karmishevaning tadqiqotlariO'rta Osiyo mintaqasining janubiy hududlarinio'z doirasiga qamrab olgan bo'lsa quyida ko'rsatiladigan etnograf olimlarning izlanishlari ham shu hududda amalga oshirilganligi bilan o'xshash va harakterlidir.

O'rta Osiyo mintaqasining janubiy hududlarining etnologik tadqiqot ishlarinio'rgangan tadqiqotchi olimlardan S.M. Abramzon[9], Ananev A.G.[10], Abduraimov M.A.[11], Andreyev M.S.[12], Andreyev M.S.[13], Aristov N.A.[14], Askarov A.A.[15], Axmedov B.X.[16], Bartold V.V.[17], Batrakov V.S.[18], Borozna N.G.[19], Burxan-ud-Din-xan-i Kushkeki[20], Bo'riev O., Usmonov M.[21], Valixanov Ch.Ch.[22], Validiy Ahmad Zakiy[23], Vamberi A[24], Vasilev. P.S.[25], Vaxabov M.[26], Vostrov

9 "Формы родоплеменной организации у кочевников Средней Азии" // Родовое общества. ТИЭ, 1951. Т. XIV. – С. 23-56.

10 Шерабадская долина. – СПб. 1914. – 81 с.

11 Вопросы феодального землевладения и феодальной ренты в письмах эмира Хайдара. – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1961 – 107 с.

12 Некоторые результаты этнографической экспедиции в Самаркандскую область в 1921 году // ИТОРГО, 1924. Т. XVII.

13Таджики долины Хуф. Верховья Амударьи. Вып. 2. - Сталинабад: Изд. АН Тадж ССР, 1958. – 526 с.

14 Англо-индийский «Кавказ». Столкновение Англии с афганскими пограничными племенами (этнико-исторический и политический этюд) // Живая Старина. Вып. VI. 1899. – С. 18-32.

15 Некоторые аспекты изучения этногенеза и этнической истории узбекского народа // Материалы к этнической истории населения Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1986. – С. 3-14.

16Государство кочевых узбеков. - М.: Наука, 1965.–195 с., Ўзбек улуси. – Тошкент: Нур, 1992., Ахмедов Б.А. Ўзбекларнинг келиб чиқиши. – Тошкент: Фан, 1964.

17Гиссар (Хисар) / Соч. Т. III. – М.: 1965., Двенадцатъ лекций по истории турецких народов Средней Азии. / Соч. Т.5. – М.: 1968., . Сарт / Соч. Т. II. Ч. 2..– М.: 1964.

2.24. Бартольд В.В. Термез / Соч Т. III.– М.: 1965.

18 О разделении труда между кочевыми и оседлыми районами // Труды Среднеазиатского Государственного университета (Далее – Труды САГУ). – Ташкент, 1955. Вып. –LXXV. С. 113-138;

Особенности развития сельского хозяйства Бухарского ханства с половиныXVIII до 70-х гг. XIX века // Труды САГУ. – Ташкент, 1962. Вып. 193. – С. 154-184.

19 Материальная культура узбеков Бабатага и долини Кафирнигана // Материальная культура народов Средней Азии и Казахстана. – М.: 1966. – 91-120.

20 Каттаган и Бадахшан. Данные по географии страны, естественно-историческим условиям, населению, экономике и путям сообщения / Пер. с. перс. – Ташкент: 1926.

21 Ўзбеклар: этник тарихи ва этномаданий жараёнлар. – Самарқанд: 2008. – 243 б.

Чиғатойлар этник тарихидан // Марказий Осиёда анъанавий ва замонавий этномаданий жараёнлар. 2 қисм. Тошкент: 2005. 1-қисм. – Б. 138-143.

БўриевО. ЖанубийЎзбекистонаҳолисиэтниктарихидан // Тарих, мустақилликвамиллийғоя. – Тошкент: Академия, 2001. – Б. 206-209.

БўриевО. Қатағонэтносиҳақидабаъзимулоҳазалар // МустақилЎзбекистонвамиллатлараромуносабатлардагибарқарорлик. – Тошкент: ТошДУ, 1995. – Б.

22 Предания и легенда Болшой киргизо-кайсацкой орды / Собрание соч. В 5-томах.– Алма-Ата: 1961.

23 Ўзбек уруғлари // Ўзбегим. «Звезда Востока» журнали кутубхонаси. – Тошкент: 1992. – Б. 110-113.

V.V., Mukanov M.S.[27], Gavrilov M.F. [28], Galkin M.N.[29], Gafurov B.G.[30], Grebenkin A.D.[31], Grekov B., Yakubovskiy A.[32], Doniyarov X.[33], Doniyorov A.X.[34], . Debes G.F. [35], Djikiev A.[36], Jabborov I.M.[37], . Jdanko T.A.[38], Jirmunskiy V.M.[39], Jo'raev B.[40], Zadixina K.L.[41], Zarubin I.I.[42], Ivanov P.P.[43], Yo'ldoshev T.[44], Kislyakov N.A.[45], Kondrashev S.K.[46], . Kuzeyev R.G.[47], Ligeti L.[48], Lipskiy V.I.[49], Litvinskiy B.A.[50], Logofet D.N.[51], . Lunin B.V.[52], Malikov A. M.[53], Masson

---

24 Путешествие Средней Азии из Тегерана через Туркменскую пустыню по восточному берегу Каспийского моря в Хиву, Бухару и Самарканд, предпринятое в 1863 г. / Изд. 1-е. – М.: 1867; Изд. 2-ое. 1874.

25Статистические материалы для описания Бухары. Бекство Ширабадское и част Байсунского // СМА. Вып. ЛВII. 1894.

26 Формирование узбекской социалистической нации. Ташкент: Госиздат, 1961. – 587 с.

27 Родоплеменной состав и расселение казахов (конец XIX - начало XX в.). – Алма-Ата: 1968.

28 Материалы к этнографии «тюрок» Ура-тюбинского района // САГУ. Сер 2. Ориентелла. Вып. 2 – Ташкент: 1929.

29 Военно-статисческий очерк средней и южной частей Сурханской долины // СМА. Вып. LVII.– 1894.

30 Таджики (Древнейшая, древняя и средневековая история). Кн. 1. – Душанбе: Ирфон, 1989.

31 Родословная Мангитской Династии / Материалы для статистики Туркестанского края.– Ташкент: 1874. Вып. 3. – С. 340-376.

32 Золотая Орда. Очерк истории Улуса Джучи в период сложения и расцвета в XIII-XVI вв. - Л.: 1937.

33 О происхождении этнонима тюрок и о значении слова тюрок // А. Навоий номидаги Сам. ДУ.асарлари / Ўзбек тилшунослиги масалалари. – Самарқанд: 1971.– № 188.– Б. 22-27.

34 Ўзбекистон этнографияси тарихидан айрим лавҳалар (XX асрнинг 20-80-йиллари). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. – 80 б.

35 Антропологические исследования узбеков, туркменов, хазара, таджиков, персов и белуджей / ПОАИА. Вып. 6. 1968.

36 Очерк этнической истории и формирования населения южного Туркменистана. – Ашхабад: 1977.

37 Ўзбеклар: турмуш тарзи ва маданияти: Ўқув қўлланма – Тошкент: Ўқитувчи, 2003. – 208 б.

38О типах этнических общностей с пережитками родоплеменной структуры в Средней Азии и Казахстане (XIX - начало XX в.) / Доклады советской делегации на IX Международном конгрессе антропологических и этнографических наук. – М.: 1973. – С. 46-52

39 Эпическое сказание об Алпамыше и «Одиссея» Гомера // Фольклор Запада и Востока. Сравнително-исторические очерки. – М.: 2004. – С. 231-239.

40Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари. – Тошкент: 1969.

41 Некоторые вопросы изучения этнического состава населения бассейна Кашкадарьи в Сурхандарьинской области Узбекской ССР // КСИЕ. – Т. 37. – С. 39-45.

42 Список народностей Туркестанского края // ТКИПС. Изд..акад. наук. СССР. – Л.: 1925.– №10. – С. 24-35.

43 Очерки по истории Средней Азии (XVI-середина XIX в) - М.: Наука, 1958. – 181 с. Иванов П.П. Хозяйство джуйбарских шейхов. К истории феодалъного земледелия Средней Азии в XVI-XVII вв. – М.-Л.: 1954. 379 с. История Узбекской ССР. – Ташкент: Т. I. Кн. I. 1955. Кн. II. 1956.

44 Жанубий Тожикистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: 1968.

45 Патриархально-феодальные отношения среди оседлого сельского населения Бухарского ханства в конце XIX - начале XX в. // ТИЕ. Т. 1962.

46 Водопользование в Шерабадской и Сурханской долине Бухарского ханства // Материалы работы гидромодульной части отдела земелних улучшений. – М.: 1918. Вып. 14.

47 Рол исторической стратификации родоплеменных названий в изучении этногенеза тюркских народов Восточной Европы, Казахстана и Средней Азии // Доклады советской делегации на ИХ Международном конгрессе антропологических наук. – М.: 1973.

48 О монгольских и тюркских языках и диалектах Афганистана//Аста ориенталиа Академиае ссиентиарум Ҳунгарисае. Т. IV. Т. II-III. Будапешт. 1955.

49 Горная Бухара. Результаты трехлетних путешествий в Среднюю Азию, Хребет Гиссарский и Восточная Бухара: хребет Дарвазский, Мазарский и Петра Великого. 1899. – СПб.: 1905.

50 Исторические судьбы Восточного Туркестана и Средней Азии (проблемы этнокультурной общности) // Восточний Туркестан и Средняя Азия. – М.: 1984.

51 Бухарское ханство под русским протекторатом. – СПб.: 1911.

V.M.[54], Muxetdinov A.[55], Nadjimov K.[56], Nafasov T.[57], Oranskiy I.M.[58], . Oshanin L.V., Zezenkova V.Ya.[59], Polozov V.A.[60], Potapov L.P.[61], Pugachenkova G.A.[62], . Reshetov V.V.[63], Rojevis R.Yu.[64], Rtveladze E., Isxakov M.[65], Semyonov A.A.[66], Snesarev A.[67], Sobolev L.N.[68], Sultanov M.X. [69], Suxareva O.A.[70], Tolstova L.S.[71], Trepavlev V.V.[72], Fevralev N.[73], Xamraev M.[74], Xamrokulov X.[75], Xidoyatov I.[76], Xodjayov T.K.[77], Xolikov E. [78], Shaniyazov K.Sh., Ismailov X.X.[79], Yudin V.P.[80], Yavorskiy I.L.[81],. Yakubovskiy A.Yu.[82], Fayziev T.[83],

---

52 20-30-йилларда Ўзбекистонда этнография масалаларининг ўрганилиши // XX асрнинг ўттизинчи йилларида Ўзбекистонда тарих фани (Тарихшунослик очерклари). 2-қисм. – Тошкент, 1994. Б. 309-327.

53 Узбеки группы кунграт долины Зерафшана в XIX – начале XX в. – Самарканд: 2007. – 124 с.

54 Ранние кочевники Средней Азии и Казахстана. – Л.: 1975. 2.99. Массон В.М., Ромодин В.А. История Афганистана. – М. Т. II. 1965.

55 По Восточной Бухаре // Народное хозяйство Средней Азии. – Ташкент: 1924. № 2-3.

56Антропологические материалы к проблеме этногенеза некоторых народов Средней Азии // Сборник научных трудов аспирантов САГУ. Вып. 1. – Ташкент: 1952.

57 Жанубий Ўзбекистон топонимиясининг этнолингвистик анализи. – Тошкент: 1985.

58 Таджикоязычные этнографические группы Гиссарской долины (Средняя Азия). Этнолингвистические исследования. – М.: 1983.

59 Вопросы этногенеза народов Средней Азии в свете данных антропологии // – Ташкент: Изд-во Уз ССР, 1953.

60 Узбекское общинное землепользование в Ширабадской долине и Каршинской степи УзССР // Народное хозяйство Средней Азии. – Ташкент: №7. 1925. – С.69-75.

61 Материал по семейно-родовому строю у узбеков «Кунград» // Научная мысль. – Ташкент: №1. 1930.

62 К исторической топографии Чаганиана. – Ташкент: 1963.

63 Узбекский язык. Введение в фонетику. – Ташкент: 1959.

64 Поездка в Южную и Среднюю Бухару в 1906 г. // ИРГО. Т. ХЛИВ. Вып. 9. 1908.

65 Два средневековых чаганиянских селений // ИМКУ. Вып. 15. – Ташкент: 1979. – С. 84-94.

66 К вопросу о происхождении и составе узбеков Шейбани-хана // Материалы по истории таджиков и узбеков Средней Азии: Труды АН Тадж. ССР. Вып. 1. Т. XII. 1953.

67 Восточная Бухара (Военный-географический очерк) // СМА. – СПб.: 1906.

68 Географические и статические сведения о Зарафшанском округе с приложением списка населённых мест Округа // ЗРГООС. Т. IV. 1874.

69 Этнографические наблюдения в Сурхандарьинской области // Материалы по истории Узбекистана. – Ташкент: 1966.

70 К истории городов Бухарского ханства (историко-этнографические очерки). – Ташкент: 1958.

71 Исторический фольклор каракалпаков как источник для изучения этногенеза и этнокультурных связей этого народа // Этническая история и фольклор. – М.: 1977. – С. 141-169.

72 История Ногайской орды. – М.: 2002.

73 Правобережная полоса Пянджа и Аму-Дари отКали-Ванч до Керки // ВС. 1895. № 9.

74 Очерки истории Хисарского бекства конца XIX и начала XX в. // АН Тадж ССР. Т. ХИВ. 1959

75 Шевахои таджикони раёни Байсун. – Душанбе: 1961. (на тадж. язике).

76 К вопросу о формировании населения южных районов Узбекистана // Из истории культуры народов Узбекистана. – Ташкент: 1965. – С. 132

77 Дермотоглифика узбеков с родоплеменными делениями // Расы и народы. Вып. 21. – М.: 2001.

78 История орошения и поливного земледелия в Сурхан-Шерабадской долине. – Ташкент: Фан, 1977.

79 Этнографические очерки материальной культуры узбеков конца XIX – начала XX вв. – Ташкент: 1981.– 126 с.

Шаниязов К.Ш. К этнической истории узбекского народа (Историко-этнографические исследования на материалах кипчакского компонента). – Ташкент: 1974.– 342 с.

Шаниязов К.Ш. Кипчаки в узбекской этнической среде в дооктябрский период // Этнические процессы у национальних групп Средней Азии и Казахистана. – М.: 1980.

Шаниязов К.Ш. Некоторые вопросы этнической динамики и этнических связей узбеков в XIВ-XVII вв. // Материалы к этнической истории населения Средней Азии. – Ташкент: 1986. – С. 83-93.

Xudjamberdiev Ya.[84], Kubakov K.[85], Tolstov S.P.[86]5.28. Fayziev T.[87], Jarring G.[88], Schurmann H.P.[89]lar hisoblanadilar.

Tarixiy manbalar asosida keng qamrovliilmiy tadqiqotlar samarasi sifatida birinchimarta Markaziy Osiyodagi etnik jarayonlarning ilk tarixiy ildizlariga tayanib, turkiy xalqlar shakllanish jarayoni konsepsiyalarini yaratgan yuqorida tilga olib o'tgan olimlarning tarixiy-etnografik yo'nalishdagi asarlari diqqatga sazovordir. Mazkur asarlar ko'pgina adabiyotlar va arxeologik manbalar, etnografik ma'lumotlar, shuningdek, mualliflarning ko'p yillik kuzatishlari asosida yuzaga kelgan bo'lib, ularda O'rta Osiyo xalqlarining muhim etnik komponentlari tarkibida bo'lgan usun, to'xsi, xalach, qipchoq, yeti, yuz, urug', ming, bahrin, qo'ng'irot, kenagas, mang'it, saroy, minjir, qarluq, jaloyir, do'rmon, tur, chuvash va boshqa etnik komponentlarning etnogenizi va etnik tarixi, xo'jaligi, moddiy va ma'naviy madaniyati borasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan asosli mulohazalar va fikrlar bildirilgan.

XX asrning o'rtalaridan boshlab esa O'rta Osiyo xalqlarining etnogeneziva etnik tarixi masalalarining keng ko'lamda ilmiy jamoatchilik e'tiborida bo'lishi bilan jiddiy fundamental tadqiqotlar yaratildi. Bu tadqiqotlar jumlasiga A.Yu. Yakubovskiy, S.P. Tolstov, A.N.Bernshtam, P.P.Ivanov, Karmisheva B.X, Shaniyazov K.Sh, Semyonov kabi tadqiqotchilarning asarlarini kiritishimiz

---

Шаниязов К.Ш. Узбеки-карлуки. – Ташкент: 1964. – 195 с.
Шониёзов К.Ш. Қарлуқ давлати ва қарлуқлар. – Тошкент: 1999. –196 б.
Шониёзов К.Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 464 б.

80 О родоплеменном составе монголов Могулистана и Могулии и их этнических связах с казахскими и другими соседними народами // ИАН Каз ССР. Отд. общ.наук. Вып. 3. 1965.

81 Путешествие русского посолства по Афганистану и Бухарскому ханствув 1878 – 1879 гг. – Спб.: Т. 2. 1883.

82 К вопросу об этногенезе узбекского народа. – Ташкент: 1941.

83 Узбеки-курама (в прошлом и настоящем). – Автореф. дисс... канд. ист. наук. – Ташкент: 1963.

84 Историко-этимологическое исследование топонимики Сурхандарьинской области Уз. ССР.–Автореф. дисс…канд. фил. наук. – Ташкент: 1973.

85 Этнический состав сельского населенияверхней Кашкадарьи конца XIX–начала XX в.(Историко-этнографическое исследование: Автореф. дисс. канд. ист. наук. – Ташкент: 1973.

86 Основные проблемы этногенеза народов Средней Азии // СЕ. 1947. № 6.

87 О родоплеменном составе узбеков кураминцев в конце XIX - начале XX в.// Общественные науки в Узбекистане. 1963. № 11.

88On the Distribution of Turk Tribes in Afganistan.An Attempt at a Puliminari Classification.Lands Universitets Arsskifi. N.F.A. Vol. 7. – Leipzig: 1939. № 34.
Jarring G. Uzbek text from Afghan Turkestan, with glossary.Lands Universitatets Arsskrift. N.F.A. Vol. V. – Leipzig: 1938.

89The Mongols of Afganistan.An Ethnography of the Mongols and Related Peoples of Afganistan. The Hague. 1962.

mumkin. Albatta, sovetlar davrida O'rta Osiyoda yashab kelayotgan  xalqlar va umuman turkiy makroetnosning etnogenezi va etnik tarixi borasida ko'lami jihatdan katta ishlar qilingan. Shuningdek, ushbu tadqiqotlarning mantiqiy davomi sifatida T.A. Jdanko, N.A. Kislyakov, L.V.Oshanin, B.A.Axmedov T. Xodjayov, R.G. Muqminova kabi olimlar umuman turkiy yurti va uning xalqlarining  u yoki bu komponenti doirasida maxsus tadqiqotlar olib borganlar. Ushbu tadqiqotlar u yoki bu masalalarini yoritishda qimmatli manba hisoblanadivao'z o'rnida bu adabiyotlarga doimiy murojaat qilinadi. Ammo bu davrdagi tadqiqotlarning aksariyat qismi mafkuraviy tazyiqlar ta'sirida bajarilganligi, tarixiy jarayonlar bir tomonlama ya'ni, formatsiyaviy yondashuvlar asosida tadqiq etilganligi etnik jarayonlarni to'laqonlivailmiy xolislik bilan yoritib berishda ba'zi muammolarni keltirib chiqardi.

Yetmishinchiyillarda etnogenez va etnik tarix yo'nalishida B.X. Karmishevaningilmiy-amaliy tadqiqotlarida avtoxton etnos bilan turkiy komponentlar etnomadaniy aloqadorligining qadimiyligi borasida asosli dalillarni ko'zga tashlanadi. Shu bilan birgalikda olima qadimgi turkiy, so'g'd, xitoy, arab va fors tilida bitilgan manbalardagi etnogenez va etnik tarix borasidagi yangi muhim ma'lumotlarniham ilmiy iste'molga olib kiradi.  Bu holat etnik tarix masalalarini tadqiq etishni ham ilmiy, ham nazariy-uslubiy jihatdan yangicha yondashuvlar bilan amalga oshirilganinitaqozo etadi.O'rta Osiyoning mazkur janubiy mintaqasi bo'yicha mustaqillik yillarida ham ko'pgina o'zbek olimlariK. Shoniyozov, A.Asqarov, I. M. Jabborov, Z. X. Arifxanova, U.S. Abdullaev, A.A.Ashirov, O. Bo'riev, A.Malikov kabilar B.X. Karmishevaning o'lkada olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarini qayta ko'rib, o'rganib, o'z asarlarida tahlil qilib chiqadilar. Bu mintaqa xalqlarining shakllanish jarayoni, etnogenzi, etnik tarixiva nazariy-metodologik asosi borasida tadqiqotlar olib borgan akademik olimlarning tadqiqotlariishning nazariy-metodologik asosini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

B. X. Karmishevaning  Markaziy Osiyo xususan, tadqiq etilayotgan mintaqa aholisining etnik tarixi borasida yaratgan maqola va monografiyalaribiz tadqiq

etayotgan mavzu bo'yicha muhim ma'lumotlarni beradi. Shu maqsadda quyida uning ilmiy maqola va monografiyalari haqida so'z  yuritamiz.

Dastlabki monografiyasini Tojikiston tarix institutining arxeologiya va etnografiya  bo'limidao'qib yurgan kezlarida yozdi. 1954-yilda chop ettirgan mazkur maqolasi[90]O'zbekiston janubiy hududlari mahalliy aholisiva tojik mahalliy tub aholisi haqida bo'lib, ularning etnik shakllanish jarayonlari va etnik tarixini ochib berishga harakat boshladi.

Uning keyingi maqolasi[91]ham bevosita birinchiishining mantiqiy davomi hisoblanadi. Muallif turkiy xalqlarning shakllanishida asosiy rol o'ynagan eng qadimgiurug'lardan 12 tasini alohida ajratib ko'rsatadi. Bular qang'li, qipchoq, dulat, olchin, arg'in, nayman, kirey, qirg'iz, soxa yoki yoqut, tele, turk-tukyu va qorliq. Shulardan ayniqsa qang'liva qipchoqlarga katta ahamiyat beradi. Umuman olganda, bu davrda bajarilgan tadqiqotlar, garchi professional mutaxassislar tomonidan bajarilgan bo'lsada, muallifning o'z shaxsiy kuzatuvlari asosida yozilganligi bilan ham ahamiyatlidir.

B.X.Karmishevaning"ОчеркиэтническойисторииюжныхрайоновТаджикистанаиУзбекистана" nomliTojikistonFanlarakademiyasida 1976-yilDushanbedanashrdanchiqarganushbumonografiyasidahamO'rtaOsiyoxalqlarining muhimetnikkomponentlaritarkibidabo'lganusun, tuxsi, xalach, qipchoq, yeti, yuz, urug', ming, bahrin, qo'ng'irot, kenagas, mang'it, saroy, minjir, qarluq, jaloyir, do'rmon, tur, chuvash[92]vaboshqaetnikkomponentlarningetnogenizivaetniktarixi, xo'jaligi, moddiyvama'naviymadaniyatiborasidamuhimahamiyatgaegabo'lganasoslimulohazalarvafikrlarbildirilgan.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab O'rta Osiyo xalqlari, xususan, Janubiy O'zbekiston etnografiyasinio'rganish borasida kundaliklar, statistik

---

[90]КармышеваБ.Х. Узбеки-локайцыЮжногоТаджикистана. ТИИАЭАНТадж.ССР. Сталинабад. 1954.Т.XXVIII. Вып.1. С. 97 – 127.

[91] Кармышева Б.Х. Локайские мапрамачи и илгичи. Сообщения республиканского историко-краеведческого музея. История и этнография. 1955. Вып.2. С. 121 – 145.

[92] Кармышева Б.Х. Жилища узбеков племен карлук южных районов Таджикистана и Узбекистана // ИООН АН Таджикской ССР. Душанбе. 1956. Вып.10-11. С. 13-23.

xarakterdagi adabiyotlar bilan birgalikda bir qadar ilmiy asosdagi tadqiqotlar ham amalga oshirila boshladi. Karmisheva tadqiqotlarning etnografik materiallari ham XX asroltmishinchi yillaridagio’zbeklarning etnik tarkibi[93] haqida muhim ma’lumotlarni beradi. Xususan, o’rganilayotgan mintaqada keng tarqalgan o’zbeklar genelogiyasihaqida etnograf maxsus tadqiqot olib boradi.Bu tadqiqot urug‘chilik an’analarini yaxshi saqlab qolgan etnik guruhlarni alohida tarzda chuqur o’rganish uchun qilingan dastlabki sa’y-harakatlardan biri edi. Muallif o’zbeklarningyanada mayda urug‘larga (geneonimlarga) bo’linishini ma’lum bir tizimga solgan holda tavsif etib beradi. Ushbu tadqiqotdan bitiruv malakaviy ishida keraklio’rinlarda foydalanildi.

Janubiy O’zbekiston va Tojikiston hududlari aholisining etnik tarixi masalalari borasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan elshunos olima B.X. Karmisheva 1969-yilgi tadqiqotlari natijasida yana bir ilmiy ishini chop ettirdi. U tadqiq etayotgan mintaqada keng tarqalgan etnik guruhlaridan qo’ng‘irot, yuz, qatag‘on, turk kabi etnografik guruhlar[94], shuningdek, turkman, tojik, arab va boshqa etnoslar tarixiga oid muhim ilmiy materiallar bayon qilingandi.

B.X. Karmisheva o’z tadqiqotlarida urug‘-qabilalarga bo’lingan aholi qatlamlari haqida batafsil ma’lumot beradi. Ammo vodiyning o’troq aborigen aholisi haqidagi masala go’yoki chetda qolib ketgandek ko’rinadi.[95]

Tarixiy manbalar asosida O’rta Osiyo va Qozog’iston xalqlarining shakllanish jarayoni konsepsiyasihaqida 1999-yilda chop ettirgan asariarxeologik manbalar, etnografik ma’lumotlar, shuningdek, muallifning ko’p yillik kuzatishlari asosida yuzaga kelgan bo’lib, unda o’zbek xalqining muhim etnik komponentlaridan bo’lgan qipchoqlarning etnik tarixi, xo’jaligi, moddiy va

---

[93] Кармышева Б.Х. Этнографическая группа «тюрк» в составе узбеков (историко-этнографические данные) // СЭ. 1960. №1. С. 3 – 22.

[94] Кармышева Б.Х. Типы скотоводства в южных районах Узбекистана и Таджикистана (конец XIX – начало XX века) //СЭ. 1969. № 3. С. 44 – 50.

[95] Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана / АН СССР. Ин-т этнографии. М.: Наука, 1976, 323 с. (Защ. как докт. дисс.)

ma'naviy madaniyati[96] borasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan mulohazalar bildirilgan.

B.X. Karmisheva o'z ilmiy faoliyati davomida o'zbek, tojik, qirg'iz, qozoq xalqlari va ularning u yoki bu etnik komponentlari doirasida maxsus tadqiqotlar olib bordi. Ushbu tadqiqotlar mavzuning u yoki bu masalalarini yoritishda qimmatli manba hisoblanadiva tadqiqotimizda o'z o'rnida bu adabiyotlarga murojaat qilinadi. Ammo sovet davrida yozgan asarlarining ba'zilarida mafkuraviy tazyiqlar ta'sirida bajarilganligi, tarixiy jarayonlar bir tomonlama ya'ni, formatsiyaviy yondashuvlar asosida tadqiq etilganligi bilan ham harakterlanadi.

O'rta Osiyoning mazkur janubiy mintaqasi bo'yicha mustaqillik yillarida ham ko'pgina o'zbek olimlari K.Shoniyozov, A.Asqarov, I. M. Jabborov, Z. X. Arifxanova, U.S. Abdullaev, A.A.Ashirov, O. Bo'riev, A.Malikov kabilar o'lkada olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarini qayta ko'rib, o'rganib, tahlil qilib chiqdilar. Bu mintaqa xalqlarining shakllanish jarayoni, etnogenzi, etnik tarixiva nazariy-metodologik asosi borasida tadqiqotlar olib borgan akademik olimlarning tadqiqotlariishning nazariy-metodologik asosini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

96 Этнические процессы у населения горной зоны Средней Азии в новое время // Проблемы этногенеза и этнической истории народов Средней Азии и Казахстана. Вып. 3. Этнография. М., 1999

## II-BOB. B.X. Karmishevaning O’rta Osiyoga oid tadqiqotlari: etnologik va tarixshunoslik tahlili

### II.1.O’zbekiston janubiy mintaqa aholisining etnogenezi va etnik tarixi

O’zbekiston hududi uzoq davom etgan tarixiy va etnik jarayonlar natijasida o’zining avtoxton asosini saqlab qolgan holda paydo bo’lgan mintaqa hisoblanadi. Ushbu qadimiy mintaqada shakllangan o’zbek xalqiildizi uzoqo’tmishda vujudga kelgan, boy tarixiy etnos sifatida shakllanishning murakkab va o’ziga xos tarixiy yo’lini bosib o’tgan. Ushbu bobda O’zbekiston hududining janubiy mintaqa aholisining etnogenizi va etnik tarixini B.X. Karmishevaning ilmiy tadqiqotlari asosida o’rganib chiqamiz.

Albatta, o’zbek xalqining shakllanishi bir davlat yoki kichik bir mintaqa doirasida emas, balki, o’zbek elati tarixan shakllangan va taraqqiy etgan makon – O’rta Osiyo mintaqasi doirasida kechgan. XIX - XX asr boshlarida o’zbek xalqi shakllangan mintaqa hududida yirik davlatlarmavjud bo’lgan alohida regionlarga – Buxoro, Xiva va Qo’qon xonliklariga bo’linib ketgan bo’lsada, ular o’rtasidagi siyosiy chegaralar o’zbek elatining tarixan o’zaro etnik-madaniy aloqadorligiga jiddiy ta’sir ko’rsata olmagan.[97]Ammo etnik jarayonlar tabiiy-geografik, ijtimoiy-iqtisodiy, etnomadaniy omillar ta’sirida turli tarixiy-etnografik mintaqalarda o’ziga xos tarzda kechgan. XIX – XX asr boshlarida tarixan o’zbek, tojik, turkman va afg‘on etnik kommunikatsiya doirasida joylashgan Janubiy O’zbekiston (Surxon-Sherobod vodiysi)da etnik va madaniy chegaralar ikki (ko’p) tomonlama

---

[97] Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. М., 1976. С-56

o’zgaruvchan va o’tkazuvchan xarakterga ega bo’lgan.[98] Bu jarayon yuqorida aholining etnik tarkibi, antropologik, lingvistik xususiyatlari, etnik tarixining o’ziga xosligiva xo’jalik-madaniy an’analari misolida ko’rib chiqildi. Shuningdek, dala-etnografik materiallari, muallifning shaxsiy kuzatuvlariva mavjud ilmiy materiallarni etnologik aspektda qiyosiy tahlil etish shuni ko’rsatdiki, XIX–XX asr boshlarida aholi etnik tarkibining xilma-xilligi, etnik komponentlarning yaqqol differensiyatsiyasi, turli etnonimlarning, lahja va dialektlarning saqlanib qolganligi xos bo’lgan.[99]

Mavjud etnografik materiallarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda Surxon-Sherobod vodiysidagi lokal-etnografik guruhlar va shuningdek, o’zbek aholisi orasida uchraydigan barcha subetnik komponentlarning etnikligiO’zbekistonning boshqa tarixiy-madaniy mintaqalarida o’ziga xos tarzda qaror topgan etniklik, etnik-madaniy identiklik va etnik birliklarning tavsifiy xususiyatlari va ularning shakllanish jarayonlari bilan bevosita bog‘liqdir.[100]

O’zbek xalqining etnik xususiyatlaridan biri bo’lgan genealogiya va urug‘chilik fenomeni, uning genezisi va tarixiy dinamikasining qiyosiy aspektda tahlil etilishi turkiy xalqlarda patriarxal-urug‘chilik asosidasaqlanib qolgan urug‘larga bo’liniish tartiboti asosida shakllanganligini ko’rsatadi. Bu holatni ko’pgina turkiy xalqlar – qozoq, qirg‘iz qoraqalpoq, turkman va boshqirdlar hamda o’zbek xalqi tarkibida o’z etnonimlariga ega bo’lgan etnik va etnografik guruhlarning sof etnik yoki etno-siyosiy uyushma tarzida shakllanganligi va shuningdek, ular titul etnosning umumiy nomi bilan birlashganligida namoyon bo’ladi.

Murakkab va rang-barang etnik tarkibga ega bo’lgan o’rganilayotgan mintaqa aholisini umumiy asosda urug‘larga bo’linmaydigan qadimiy lokal-hududiy etnik birliklar, urug‘-aymoq (avlod, to’p, urug‘)larga bo’linish tartibotini saqlab qolgan va o’zlarining xo’jalik-madaniy xususiyatlari bilan o’troq aholidan muayyan

---

[98]O’shaasar.B-61

[99] Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. М., 1976. С-65-66

[100] Узбеки-локайцы Южного Таджикистана. Душанбе, 1954; с-6

darajada farqlanib turuvchi subetnik komponentlarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin.

Surxon-Sherobod vodiysidagi lokal-hududiy birliklarga o'zining etnik nomiga ega bo'lmagan, yashab turgan hududi nomi bilan ataluvchi boysuni, machayi, xarduri, vaxshivori, sinachi, ushori, darbandi, sayrobi, poshxurti, vandobi kabi etnolokal birliklar[101] misol bo'ladi. Bu etnolokal birliklarda ko'pincha til jihatdan bilingvizm hodisasi kuzatiladi, ya'ni ular o'zbek va tojik tillarida baravar so'zlashadilar. O'ziga xos geneonimlariga ega bo'lib, ular faqat toponim, oronim, gidronim va antroponimlar asosida tashkil bo'lgan ichki bo'linish tarzida tarkib topgan bo'lib, qondosh-urug'chilik tizimiga asoslanmagan.[102] Xo'jalik-madaniy xususiyatlariga ko'ra ularning xo'jaligida dehqonchilik va hunarmandchilik yetakchio'rin egallaydi. Shuningdek, o'troq turmush tarziga ega bo'lgan etno-ijtimoiy birliklar – chig'atoylar va xo'jalar ham o'ziga xos etnik streotiplarga egadirlar. Chig'atoy etnonimi mintaqaning o'troq o'zbek va tojik tilli aholisining umumiy nomi ma'nosida qo'llaniladi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, sart etnonimi bilan ma'lum ma'noda sinonim bo'lib, bu mintaqa aholisining etnik xususiyatlaridan biridir. Xo'jalarham til jihatdan o'zbek tilining qarluq lahjasida hamda ayrim qishloqlarda o'zbek va tojik tilida baravar so'zlashadilar. Oila-nikoh munosabatlarida endogam nikoh ustunlik qiladi.Ular ham ichki antroponim urug'larga bo'linadi.Tarixiy-etnografik tadqiqotlarda ular aholining ijtimoiy qatlami sifatida qayd etilgan.[103]

Janubiy O'zbekiston etnik-madaniy muhitida o'zining urug'-aymoqlarga bo'linish tartibotini saqlab qolgan etnik komponentlar alohida ajralib turadi. Ular qarluq, o'g'uz va qipchoq komponentli subetnik guruhlardir. Bu subetnik komponentlar o'zining til, antropologik qiyofasi, tarixiy taqdirining o'ziga xosligi, kelib chiqishining turkiy o'zagi bir bo'lsa-da, turli tarixiy davrlarda turlicha etnosiyosiy uyushmalar tarkibida bo'lganligi bilan bir-biridan farq qiladi.

---

101 Узбеки-локайцы Южного Таджикистана. Душанбе, 1954; с-7

102 Кармышева Б.Х. Типы скотоводства в южных районах Узбекистана и Таджикистана (конец XIX – начало XX века) //СЭ. 1969. № 3. С. 30 – 31.

103 Кармышева Б.Х. Типы скотоводства в южных районах Узбекистана и Таджикистана (конец XIX – начало XX века) 1969. № 3. С. 35 – 36.

Qarluq komponentli subetnik guruhlarga qarluqlar, xalajlar, chig‘illar, tuxsilar, yag‘molar, arg‘inlar, arlotlar, barlos, jaloyir kabi subetnik guruhlarni aytib o’tishimiz mumkin. Ma’lumki, dastlabki davrda ular chorvachilik bilan shug‘ullanib, yarim ko’chmanchi turmush tarziga ega bo’lgan.[104] Ammo vaqt o’tishi bilan ular o’troqlasha boshladiva turmush tarzida dehqonchilik yetakchio’rinni egallay boshladi. Ularning keyingi davrlarda o’troqlashishiga yaylovlarning qisqa faslli xarakteri chorvachilik bilan shug‘ullanishlarini chegaralab qo’yishi va aksincha sug‘orma dehqonchilikning mahsuldorligi kabi omillar sabab bo’ldi.Shuningdek, o’troq aholiistiqomat qilayotgan qishloqlar bilan bevosita tutash hududda bo’lgan chorvador aholining bir qismida esa o’troqlashuv jarayoni jadal kechdi.[105]

Bu subetnik guruhlar yirik yoki kichik etnik tuzilmalar tarzida XX asr boshlariga qadar saqlanib qolgan. Ulardan ba’zilario’z nomlarini toponimikada qoldirgan bo’lsa, ba’zilari esa qo’shni etnik guruhlar bilan aralashib ketdi yoki yangi joylarga ko’chib ketgan.Masalan, ko’pgina aholi punktlarining etnik guruhlar nomi bilan atalishini ko’rishimiz mumkin.Masalan, Qarluq (Surxondaryodagi qishloq), Turkqishloq (Andijon), Do’rmon (Toshkent viloyati) va boshqalar.O’zbek xalqi tarkibidagi qipchoq komponentli subetnik guruhlari XVIasr boshlaridan Dashti qipchoqdan Movarounnahr hududlariga joylasha boshlagan etnik birliklardir. Ular yarim o’troq turmush tarzini uzoq vaqt saqlab qolgan bo’lib, chorvachilik hamda dehqonchilik xo’jaligini birga olib borgan subetnoslardir. Ma’lumki, mazkur qatlamning o’ziga xosligiirqiy tuzilishida mongoloid belgilarning ancha sezilarli ekanligi, tilida «jo’qchilar» shevasi kuchlivao’z nomini «o’zbek» deb nomlashidadir. Bu qatlam turli katta-kichik etnik guruhlardan iborat: qo’ng‘irot, mang‘it, qipchoq, nayman, kenagas, saroy, xitoy, ming, yuz, qirq, qatag‘on va hokazolar. Bu etnik guruhlarda ko’pincha o’zbek-qo’ng‘irot, o’zbek-qipchoq, o’zbek-qatag‘on kabi qo’sh etnonimli tizim qo’llanilgan. Demak, boshqa subetnoslarga qaraganda ular o’zlarinio’zbek titul

---

[104]O’shaasar. 44 – 50-b

[105] Кармышева Б.Х. Узбеки // Расы и народы. Ежегодник «Современные этнические и расовые проблемы». М., 1984. Вып. 14. С. 219

nomi bilan qo’shib ataydilar va aynan shu nom ularni ham siyosiy, ham ijtimoiy tomondan birlashtiruvchi omil bo’lib xizmat qiladi.[106]

Shuningdek. XIV – XIX asr tarixiy manbalarida ma’lum bo’lgan etnik komponentlarning asosiy qismi Movarounnahr hududlariga Shayboniyxon davrida kelgan. Ulardan ko’plari nafaqat hozirgio’zbek xalqi tarkibiga balki, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoqlar tarkibiga ham kirgan. Ko’pgina etnik guruhlar va ularning bo’linmalari bir vaqtning o’zida O’rta Osiyoning bir necha elatlari tarkibiga ham kirgan. Demak o’zbek, qozoq, qirg‘iz va qoraqalpoq xalqlarining ko’p asrlik qarindoshlik aloqalarini hech qiyinchiliksiz payqab olish mumkin.[107]

Surxondaryo va Qashqadaryo vohasida yashovchi qo’ng‘irotlar o’zlarinio’zbeklar deb atasa, Qarag‘anda(sharqiy Qozog‘iston)dagilar –qozoq, Qoraqalpog‘istondagi Qo’ng‘irot tumanidagilar-qoraqalpoq deb ataydilar. Qang‘li, mang‘it va kenegaslar ham o’zbek, qozoq, qirg‘iz va qoraqalpoqlar tarkibiga kirgan. O’zbekistonning ko’pgina tumanlariva Shimoliy Afg‘onistonda yashovchi qatag‘onlar o’zlarinio’zbek deb atasalar, Issiqko’lning (Qirg‘iziston) shimoliy qismida yashovchi qatag‘onlar esa o’zlarini qirg‘iz, qozoqlarning chanshikli urug‘i tarkibiga kirgan qatag‘onlar o’zlarini qozoq deb hisoblaydi. Demak, qipchoq komponentli subetnik guruhlarning aksariyat qismi turli darajada hozirgi qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq xalqlari tarkibiga ham singib ketganligi etnografik materiallardan ma’lum va ularning etnik xususiyatlari qiyosiy-tarixiy aspektda tadqiq etildi.[108]

Yuqorida ta’kidlangan etnik qatlamga mansub etnik guruhlarda ko’pincha o’zbek-qo’ng‘irot, o’zbek-qipchoq kabi qo’sh etnonimli tizim qo’llanilgan. Demak, boshqa subetnoslarga qaraganda ular o’zlarinio’zbek titul nomi bilan qo’shib ataydilar va aynan shu nom ularni ham siyosiy, ham ijtimoiy tomondan birlashtiruvchi omil bo’lib xizmat qiladi.

---

[106] Кармышева Б.Х. Жилища узбеков племен карлук южных районов Таджикистана и Узбекистана // ИООН АН Таджикской ССР. Душанбе. 1956. Вып.10-11. С. 9-10

[107] Кармышева Б.Х. Жилища узбеков племен карлук южных районов Таджикистана и Узбекистана // ИООН АН Таджикской ССР. Душанбе. 1956. С.10-11

[108]O'shaasr 12-13b.

Ko'pgina ilmiy adabiyotlarda ushbu o'zbek titul nomini olgan subetnik guruhlarga nisbatan siyosiy uyushma sifatida qarash an'ana tusini olgan.Ammo siyosiy omil bilan birgalikda etnik omil ham hal qiluvchi bo'g'in ekanligini ta'kidlab o'tmoq joiz.Masalan, turmush-tarzi, tili, madaniyatining mushtarak jihatlari, diniy qarashlarining yaqinligi ularni etnik jihatdan birlashtiruvchi omil bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Mazkur subetnik guruhlar XIX – XX asr boshlarida o'ziga xos maishiy turmush-tarzi, urf-odatlari va lingvistik xususiyatlaribilan ba'zi tafovutlarga ega bo'lsada, yagona o'zbek elati ekanliginiisbotlovchi belgilarinisaqlab, o'zlarinio'zbek nomi bilan nomlaganlar.

B. X. Karmisheva fikrlariga qo'shimcha qiladigan bo'lsak, miloddan avvalgiIming yillikda Markaziy Osiyoda ijtimoiy iqtisodiy o'zgarishlar ro'y berdi. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, shaxar-qal'alarning paydo bo'lishi, yirik sug'orish va mudofaa inshootlarining qurilishiushbu hududda urbanistik jarayonlarning o'ziga xos tizimli ko'rinishi shakllanayotganligidan darak beradi. Miloddan avvalgiIII-II asrlarda tashkil topgan qadimgi  Baqtriya va Xorazmda yashagan xozirgio'zbek, tojik va qisman turkmanlarning ajdodlari asosan eroniy tillarning sharqiy shaxobchasi va qisman turkiylashgan sak yoki skif tillarida gapirishganlar. O'zbek xalqiga xos Markaziy Osiyo ikki daryo oralig'iirqining shakllanish davri, makoniva tarixi masalalarida fanda yaqin-yaqingacha yagona fikr yo'q edi.[109] Bir guruh olimlar bu irq bundan 6-8 ming yil ilgari, ikkinchi gurux mutaxasislar 3 ming yil ilgari shakllangan desa, uchinchi guruh olimlari esa XVI asrlarda shakllandi, deb hisoblar edilar. Antropologik izlanishlar natijasida mualliflar ikki daryo oralig'idagiirqning shakllanishi, juda boy antropologik ma'lumotlar asosida, bundan 2200-2300 yil ilgari boshlanganliginiisbotladilar.[110]Qator ilmiy asarlarda o'zbek xalqining shakllanishida bir qator muhim darlar sanab o'tilgan. Bular qatorida Ahamoniylar, Iskandar Zulqarnayn Arab xalifaligi, mug'ullar istilosi tilga olinadi. Haqiqatan, bu bosqinchiliklar Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston xalqlari madaniyatiga

[109]DoniyorovA.X. MarkaziyOsiyoxalqlarietnografiyasi, etnogenizivaetniktarixi (O'quvqo'llanma). – Toshkent, 2011. – 70 b.
[110]O'shaasar. 65 b.

tiliga, turmush tarzga, tabiiyki, o’z ta’sirinio’tkazgan. Ammo bu yurishlarning mahalliy xalqlarning brqiy va etnik tarixiga ta’sirio’ta kam bo’lganligini alohida ta’kidlash kerak. Antropologik nuqtai nazardan qaraganda, ular mahalliy xalq qonini yoki gegetikasini tubdan o’zgartiraolmaganlar, o’zgartirishlari ham mumkin emas edi.Chunki hech qachon kelgindilar mahalliy aholidan ustun bo’lishi mumkin bo’lmay, balki ko’psonli mahalliy aholi tarkibiga ular ketib, mahalliy aholi, xususan, O’zbekiston hududida barcha tarixiy davrlarda (maxsus antropologik tadqiqotlarning ko’rsatishicha (mahalliy xalq kelgindi aholidan hamisha ustun bo’lgan. Bu masalaga Prezident I.Karimov tarixchi olimlar bilan bo’lgan uchrashuvda aniq va ravshan hamda mutlaqo inkor etib bo’lmaydigan o’z nuqtai nazarini bildirib, fikrimizcha, oxirgi nuqtani qo’ydi:«..Movarounnahr sarhadlariga uzoq tariximiz davomida ne-ne bosqinchilar kirib kelmagan, qo’p yillar, balki, asrlar davomida yurtimizda ne-ne o’zga sulolar hukmronlik qilmagan, deysiz. Bir so’z bilan aytganda, ming yillar davomida yurtimizga kelib-ketganlar ozmi? Erondan Ahmoniylar, Yunonistondan Aleksandr keldi, Arabistondan Qutayba, Mo’g‘ilistondan Chingizxon keldi, rus istilochilari keldi.Lekin xalq qoldi-ku.Xo’sh, bunda qanday sir-sinoat bor?Xalq qanday ichki kuch- qudratiga o’zligini saqlab qoldi? Qadim-qadim zamonlardan o’troq yashagani, ilm-ma’rifatga intilgani, buyuk madaniyatga ega bo’lgani, o’z urf-odatlarini muqaddas bilgani uchun emasmi? .. »[111]Islom Karimov yana shuni ta’kidlab aytdilarki:

«.. Dunyo xalqlari va xususan, yurtimiz taraqqiyot yo’lining asosiy qonuniyatlarini mantiqiy taxlil qilsak, shu narsa ayon bo’ladiki, Aleksandr ham (uni Sharqda ko’proq Iskandar Zulqarnayn degan nom bilan bilishadi), Qutayba ham, Chingizxon ham general Chernyaev ham, umuman, kim bo’lmasin, yurtimizga bir necha un ming yo bir necha yuz ming lashkari bilan kelgan, ishg‘ol qilgan va bu yerdagi siyosiy hokimiyatni qo’lga olgan. Yana takrorlayman: siyosiy hokimiyatni. Tamom, to’g‘ri hukmronliklari mobaynida ular mamlakatimizning iqtisodiy, savdo, ilmiy madaniy imkoniyatlardan o’z manfaatlari yo’lida foydalanishga zo’r berganlar. Biroq, shu yerda asrlar davomida yashab kelayotgan

[111]KarimovI. Tarixiyxotirasizkelajakyo‘q. -T.: O‘zbekiston, 1998. 126-b

mahalliy aholini, uning ko'p ming yillik madaniyatini yo'q qilolmaganlar, qilolmasdilar ham! «Tarix -xalq ma'naviyatining asosidir»[112]

O'zbek xalqining etnik shakllanish tarixi asosan uchta tarixiy davrga bo'linadi:

Birinchi davr: Miloddan avvalgi birinchiming yillikdan milodiy VIII asrga bo'lgan davrnio'z ichiga oladi. Mil. Avv. III-II asrlarda Markaziy Osiyo dasht mintaqalarida hozirgio'zbek xalqiga xos antropologik qiyofa shakllana boshlagan. Bu esa fanda yaqingacha keng tarqalgan fikrlar,ya'nio'zbeklarga xos Markaziy Osiyo ikki daryo oralig'iirqi avvalo Volga daryosi bo'ylarida va Uralda sarmat qabilalari tarkibida shakllanib tarqaldi, degan yoki bir irq Baykal ko'li atrofida shakllanib tayyor xolda mahalliy aholiga o'z irqini tarqatdi, degan fikrlardan voz kechishni taqozo etadi.

Tadqiqotlarga ko'ra, Xorazm, Baqtriya, Sug'diyona, Parkana, Toxariston, Choch xududlarida o'troq va ko'chmanchilik bilan shug'ullanib kelgan ajdodlarimizning turmush tarzi bir biriga chambarchas bog'liq bo'lganligi aniqlangan. Shu xududlarda asrlar davomida yashab kelgan massagetlar saklar, xorazmiylar, baxtrlar, sug'diylar, toxarlar, davonliklar o'zbek xalqining asosini (etnogenezi) ni tashkil etadi. Olib borilgan tadqiqotlar o'zbeklarga xos antropologik qiyofasi, dastavval, Sirdaryoning o'rta havzasi tumanlarida, ya'niToshkent vohasi, Farg'ona vodiysi, qisman Xorazmda va janubiy Qozog'istonning Chimkent viloyati, Yettisuv mintaqasida mil. avv. Iming yillik oxirida shakllana boshlaganligi aniqlandi.[113] Mil. Avv. III-II asrlarda bu aholi bir necha yo'nalishda Markaziy Osiyoning markaziy va janubiy viloyatlariga kirib borgan. Bu antropologik tadqiqot natijalari yozma manbalarda ma'lum bo'lgan xalqlarning janubga yurishiva Yunon -Baqtriya davlatining tor-mor etilishi va Buyuk Kushon saltanatining barpo bo'lishi davriga mos keladi. O'zbeklarning kelib chiqishi qadim tarixida saklar, massagetlar, toxarlar nomibilan mashhur bo'lgan va qadim zamonlarda Markaziy Osiyo hamda uning tevarak atrofida

---

[112]KarimovI. Tarixiyxotirasizkelajakyo'q. -T.: O'zbekiston, 1998. 8-9-b

[113] Doniyorov A.X. Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasi, etnogenizi va etnik tarixi (O'quv qo'llanma). – Toshkent, 2011. – 56-59 b.

ko’chib yurgan xalqlarga Sug‘d, Xorazm, Baqtriya, Parkana (Farg‘ona) va Shoshning qadimiy xalqlariga borib taqaladi. O’shanda ular yashab turgan voxa nomi bilan sug‘diylar, xorazmiylar, baqtriyaliklar, parkanaliklar, toshkentliklar deb atalib tarixda qolgan.[114]

O’zbek va tojikning xalq bo’lib shakllanishida mil. av. birinchi ming yillikning oxirlari va milodiy dastlabki asrlarida Jayxun va Sayxun oralig‘iga ko’chib o’tgan bir qator turkiyzabon xalqlar va Jayxunning janubidan ko’chib o’tgan fors tilida so’zlashuvchi qabilalar, shuningdek IV-V asrlarda bu yerga shimol tarafdan ko’chib o’tgan xionit kidarit va eftalit deb ataluvchi xalqlar va nihoyat, Markaziy Osiyoda o’z hukmronliginio’rnatgan G‘arbiy Turk hoqonligining turkiyzabon xalqi katta rol o’ynaydi. O’zbek xalqining etnik shakllanishidagiikkinchi muxim davr bu IX-XII asrlar hisoblanadi.Bu davrda Markaziy Osiyoda, jumladan O’zbekiston hozirgio’zbeklarga xos qiyofa mahalliy aholining asosiy qismini tashkil etgan.Ilgarilari bu jarayonni faqat XI- XIIasr etnik jarayonlari bilan bog‘lab qurilgan. Keyingi yillardagi topilgan shu davr materiallariniikki tarixiy davrga ya’niIX-X va XI-XII asrlarga bo’lib o’rganish maqsadga muvofiq deb hisoblanmoqda. IX asrda O’zbekiston hududida, tadqiqotlar natijasiga qaraganda, axolining antropologik qiyofasida keskin o’zgarishlar yuz bergan.Bu o’zgarishlar arxeologik qazishmalar natijasida ham kuzatilgan.O’zbeklarning elat sifatidagi shakllanish davri fanda XI-XII asrlar bilan izlanib kelinar edi.Tadqiqot natijalari bu jarayonniIX-X asrlarga oid deyilishiga asosdir.O’zbeklarning etnik tarkibiIX-XII asrlarda boyidiva takomillashdi. X asr oxiri - XI asr boshlarida qoraxoniylar bilan birga Oltoy, Yettisuv va Sharqiy Turkistondan Movarounnahrga ko’chib kelgan bir talay aholining etnik jihatdan takomillashuviga ta’sir qildi. Qoraxoniylar davrida o’zbek tiliga asos bo’lgan qarluq-chig‘il lahjasi rivojlandi va yozma adabiyot darajasiga ko’tarildi va ushbu lahja o’zbek xalqining umumiy tiliga aylandi.[115]

---

[114]Jabborov I.M. O‘zbek xalqi etnografiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994. – 311 b.

[115] Б.Х. Кармышеваю “К вопросу об украшениях из птичьих перьев у народов Средней Азии и Казахстана” // Этническая история и традиционная культура народов Средней Азии и Казахстана. Нукус, 1989;

XVI-XVII asrlar davomida o’zbeklarning etnik shakllanishi davom qilib, o’zlarining urug‘-qabilaviy nomlarini to bizning asrimiz boshlarigacha saqlab kelganlar. Ular nafaqat etnik jihatdan balki turmush tarzivaijtimoiy tuzumi bilan ham o’zaro oz farq qilganlar. Ayrim o’zbek qabilalario’troq dehqonchilikka to’la o’tmagan ko’chmanchilik xo’jaligiva turmush an’analarini saqlab yarim o’troq holatda yashaganlar. Ular tillaridagi (shevasidagi) farq jihatdan ham ancha ajralib turganlar.

Ammo Turkiston o’lkasivao’zbek xonliklari rus mustamlakasi tufayli jahon kapitalistik munosabatlari girdobiga tortila boshlanadi. Shu davrda asta-sekin milliy uyg‘onish kurtak otaboshlaydi.Milliy burjuaziya paydo bo’ladi. Ular o’zlarining mafkurachilari bo’lmish jadidlar orqali milliy g‘urur va xis-tuyg‘ular, an’anaviy turmush tarziva madaniyat ravnaqi uchun jiddiy kurash boshlaydilar. Rossiya hokimiyatining mustamlakachilik siyosati mazkur jarayonga to’siq bo’lib, o’zbek elining jahon miqiyosidagiijtimoiy chiqishini cheklab qo’yadi. Butun Markaziy Osiyoning Rossiya mustamlakachiligi davrida sun’iy ravishda Turkiston general-gubernatorligi, Xiva xonligi va Buxoro amirligiga bo’linganligi ham mahalliy elatlarning, shu jumladan o’zbeklarning milliy birligiga jiddiy to’siq bo’ldi.[116]

Jamiyatning eng oliy boyligi bo’lgan xalq abadiy qadriyatlarni, qudratli salohiyatnio’zida jamlangan. Bu salohiyatni yuzaga chiqarish, jamiyatimizni rivojlantirish va taraqqiy ettirishning juda kuchli omili bo’lib xizmat qiladi. Inson salohiyati eng faol, eng bunyodkor, omil bo’lib, u mamlakatning islohotlar va tub o’zgarishlar yo’lidan tinimsiz ilgarilab borishini ta’minlab berdi. Bunday jarayonlar har bir jamiyat a’zosining o’z vataniva uning porloq istiqboliga chinakam sadoqatligi, yuksak siyosiy ongi va o’z vazifasini zamonaviy talablar darajasida nihoyasiga yetkazilishi, ma’naviy yetukligi va axloqiy barkamolligi g‘oyat muhim va xal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

---

[116] Кармышева Б.Х. Узбеки-локайцы Южного Таджикистана. ТИИАЭ АН Тадж.ССР. Сталинабад. 1954. Т.XXVIII. Вып.1. С. 97 – 127.

Shunday qilib, o’zbek xalqiO’zbekistonning mahalliy tub aholisi qiyofasidaO’zbekiston mintaqasining janubiy hududlarida yashab kelgan o’zbeklarning etnogenizi va etnik tarixi butun Amudaryo va Sirdaryo oralig‘ida yashagan barcha qadimiy urug‘, qabila, elatlar va o’sha davrlarda kechgan etnik va madaniy jarayonlar bilan uzviy bog‘liqdir.

## II.I. Tojik xalqining etnogenezi va etnik tarixi

Markaziy Osiyo xalqlari orasida eroniy til turkumiga kiruvchi eng qadimgi xalqlardan biri tojiklar bo’lib, murakkab ijtimoiy — iqtisodiy, siyosiy va geografik sharoitda shakllangan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Pomir va Hisor vodiysining mahalliy aholisi – Temuriylar hukmronligi va undan oldingi davrlarda Movarounnahr hududlarida yashagan va yerlio’troq dehqon aholi bilan jadal aralashib ketgan bir qancha etnik guruhlarning avlodlaridir. Ko’pgina etnografik adabiyotlarda mazkur hududning mahalliy aholisi sifatida asosan tojiklar ko’rsatib o’tilgan.[117]Talay tadqiqotchilarning ishlarida urug‘larga bo’linish tartiblariga ega bo’lmaslik aholining mahalliy o’troq qismiga xos harakterli xususiyatlardan biri ekanligi ta’kidlab o’tilgan. Yuqorida aytib o’tganimizdek, ilk bor 1924 yilda O’rta Osiyo milliy hududiy chegaralanish komissiyasi materiallarida o’rganilayotgan hududdagi o’zbek va tojik tilli etnosni alohida ajratib ko’rsatilgan Unda tojik tilli chig‘atoylar haqida ham gapirib, ularni chig‘atoy mo’g‘ullari bilan aralashgan tojiklarning avlodlaridir, degan xulosaga kelgan.[118]O’z vaqtida qator tadqiqotlarda ham tojiklar xususida aynan mana shunday fikrlar bildirilgan.Ma’lumki, Chingizxon zabt etgan hududlarni o’z o’g‘illariga ulus sifatida bo’lib bergan.Jumladan, Movarounnahr uning katta o’g‘li Chig‘atoyning mulki

[117] Кармышева Б.Х. Узбеки-локайцы Южного Таджикистана. ТИИАЭ АН Тадж.ССР. Сталинабад. 1954. Т.XXVIII. Вып.1. С. 111 – 120.
[118] Кармышева Б.Х . Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана / АН СССР. Ин-т этнографии. М.: Наука, 1976, 241 с.

hisoblangan. Mo’g‘ullar bosqiniga qadar, bu yerda yashagan va madaniyati ancha yuksak bo’lgan mahalliy o’troq aholiikki tilda turkiy va forsiy tilda gaplashgan. Shuningdek, Chig‘atoy ulusi hududlarida yashagan tojik tilli aholi ham o’zbeklargacha bo’lgan turkiy aholi bilan bir qatorda chig‘atoy nomi bilan atalganligini tadqiqotchilarning ishlarida ko’rishimiz mumkin. Tadqiqotchi B.X.Karmishevaning tadqiqotlarida mahalliy xalq vohanlar va sho’g’nonlar nomi bilan o’rganilgan. Olima ta’kidlab o’tganidek, Movarounnahrning Ko’lob, O’ratepa va Xo’jand hududlarida yashovchi o’troq aholisi Temuriylar davlati tarix sahnasidan ketganidan so’ng o’zlarini shu nom bilan, ya’ni tojiklar deb atay boshladilar. [119]

Tojiklar O’zbekistonning Buxoro, Samarqand shaharlari, Urgut atroflarida, Surxondaryo, Sheroboddaryo, katta va kichik o’rtadaryo bo’ylari, Qashqadaryoning yuqori oqimi, Qarshi vohasi, Nurota tog’lari, Jizzax shahri, Farg’ona vodiysining So’x daryosi bo’ylari, Farg'ona, Qo’qonning janubiy qismlari, Namangan tog’ tizmalari etaklarida yashaydi. Qirg’izistonning Tojikiston bilan chegaradosh hududlarida ham tojik-qishloqlarini uchratish mumkin. Tojiklarning kelib chiqishi, miloddan avvalgiIIming yillikning oxiri -I ming yillikning boshlariga to’g'ri keladi. Bu davrda Markaziy Osiyoga Yevroosiyodan eroniy tillarda so’zlashuvchi qabilalar kelib, tub mahalliy aholi bilan aralashib ketgan.[120]Tojiklar shakllangan hududda (Baqtriya, So’diyona, Farg'ona) dehqonchilik bilan shug'ullangan elatlar bilan birgalikda ko’chmanchi saklar ham yashagan. Miloddan avvalgiII asrda Baqtriyaga yuechjilar va shak qabilalari bostirib kirib qudratli Kushon davlatiga asos soladi.

Karmisheva fikricha tojiklarning ajdodlari sak - massaget qabilalariga borib taqaladi. Davrlar o’tishi bilan bu qabilalarga yangi urug' — qabilalar aralashib ketgan. Sug'diylar, parkanaliklar, qisman toxarlar tojik xalqi shakllanishida ishtirok etgan.Yunon — makedonlar, yuechjilar, xionitlar, kidariylar, eftalitlar, "oq xunnlar", so’ngra turkiy qabilalarning bir qismi mahalliy aholi bilan aralashib

[119] Кармышева Б.Х . Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана / АН СССР. Ин-т этнографии. М.: Наука, 1976, 245 с.
[114] O’shaasarM.: Наука, 1976, 241 с.

ketgan.Arablar hukmronligi davrida, Somoniylar davlati tashkil topgan vaqtga kelib (IX - X asrlarda) tojik xalqi shakllana boshlagan. Hozirgi tojik tili Somoniylar hukmronligi davrida qadimgi so'g'd va baqtriya tili asosida vujudga kelgan. O'sha davrda tojiklarning adabiy tili (dariy) paydo bo'ldi.So'g'diy aholi, o'z tili o'rniga tojik tilida gaplashadigan bo'lib qoladi.Tojiklar yashayotgan hududlarda tojik tili, boshqi sharqiy eroniy tillarni siqib chiqara boshlaydi.IX asroxiri - X asr boshlarrda tojik xalqi etnik tarkibiga kirgan barcha guruhlarning umumiy va yagona tili bo'lib qoladi.[121]

So'nggi davrlargacha tojiklar orasida turli etnografik guruhlar mavjud bo'lgan. Hozir ham tog'lar va vohalarda yashovchi tojiklar o'rtasida etnik tafovutlar saqlanib qolgan.

Tojiklar o'zlari yashaydigan joylariga qarab bir qancha guruhlarga bo'linadi. Yaxsuv va Qizilsuv daryolari atrofida, tog' etaklari va tog'larda qadimdan yashab kelayotgan tojiklar o'zlarini tojik ko'lobi deyishadi. Yaxsuv daryosining yuqori qismidagi erlarda joylashgan tojiklar, yaxsuvliklar nomi bilan ataladi.

Obimozor daryosi sohillaridagi tojiklar xovalinglar, Sho'robdaryo atrofidagi tojiklar sho'robdaryoliklar, Baljuvon erdagilar baljuvonlilar, Baljuvonning shimoli- sharqiy qismidagi daralarda yashayotgan tojiklar darachilar, Qizilsuv daryosining o'ng irmog'i atrofida joylashgan tojiklar dashtlilar deyiladi.

Gazimalak tog' tizmasida joylashgan tojiklar gazimalaklilar, Vorzob havzasidagilar vorzoblilar; Qashqadaryo hayzasining janubi - sharqiy qismidagi tojiklar, harduri tojiklari deb yuritiladi. Shuningdek tromiti tojiklari, ko'histon tojiklari, yag'nob tojiklari, rog'i tojiklari bor. Ular bosib o'tgan tarixi davomida tojik xalqi va uning madaniyati, Markaziy Osiyodagi turkiy xalqlar bilan jumladan, o'zbeklar bilan etnomadaniy aloqalarda kengayib rivojlanib borgan.

O'rganilayotgan hududning mahalliy o'troq aholisi tojiklar o'z etnik xususiyatlari bilan yarim o'troq etnik guruhlardan alohida ajralib turadi. Ular shahar va qishloqlardagi aholining asosiy qismini tashkil qilib, dehqonchilik,

[121] Кармышева Б.Х . Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана / АН СССР. Ин-т этнографии. М.: Наука, 1976, 271 с.

hunarmandchilik, savdo va qisman chorvachilik bilan shug‘ullanganlar.[122] Ular ko’pgina etnografik adabiyotlarda o’zbek va tojik tilli guruhlarga ko’ra farqlangan va yirik tarixiy-madaniy viloyat yoki kichikroq mintaqa yohud shahar va qishloqlarning hududiy o’troq guruhlari bo’yicha o’rganilgan. Masalan bular shug’non, vohan, sanglichi, yazgulom, ishkashim kabi hududiy birliklardir. Pomir tojiklari  ham o’sha davrdan buyon o’z nomlarini saqlab kelgan. (Ko’pgina etnografik adabiyotlarda yag’nob va rog’i tojiklari tarkibida ham o’rganilgan). Ular odatda aholining boshqa qatlamlari orasida uchraydiva yarim o’troq aholi kabi ayrim mintaqa yoki shahar va qishloqlarda ko’pchilik bo’lib yashamaydi.[123]

Ma’lumki, har bir viloyat yoki bekliklarning aholisi o’zining uzoq mustaqil rivojlanish yo’liga ega. Shu sababli o’rganilayotgan hududning o’troq aholisi boshqa tarixiy-madaniy viloyatlar aholisidan farq qilib, ma’lum kichik hududiy mintaqalar yoki yirik shahar va qishloqlar aholisiga ko’ra o’rganishni o’z oldimizga maqsad qilib qo’ydik. Demak, har bir hududiy guruh joylashgan joyining geografik xususiyatlaridan kelib chiqib o’zining shevasida va moddiy madaniyatida o’ziga xos xarakterga ega bo’lgan.[124] Masalan, yuqoritog‘ zonalarida joylashgan aholi o’z-o’zidan ayonki tekislikdagi aholi bilan xo’jaligida, turmush tarzida, moddiy madaniyatida o’zaro farqlarga ega bo’ladi. Ma’lumki, bu hududiy guruhlarni nafaqat tadqiqotchilar, balki yerli aholi ham yaqqol ajratib ko’rsatadi.

Pomir tojiklari o‘zlarini pomiri deb atashadi. Tojikiston Respublikasi tarkibidagi G‘arbiy Pomirning baland tog‘ vodiysidagi Tog‘li Badaxshon viloyatida yashagan kichik xalqlar-yozg‘ulomlar (o‘z nomi - zgamik), ro‘shonlar (o‘z nomi - rixen, ruhni), mahaliy guruh xuflar (o‘z nomi - xufik) bilan birga, bartanglar (o‘z nomi bartanj) mahaliy guruh arosharlar bilan birga, shug‘nonlar (o‘z nomi-xugni, xununi) mahaliy aholi bajo‘ylar bilan birga, ishkashimlar (o‘z nomi - ishkoshumi, ishkashimi) vohanlar (o‘z nomi - hik, vaxi va vanjlar) guruhlaridan iborat. Shuningdek, Pomir halqlari, Afg‘oniston Badaxshoni (ro‘shonlar, shug‘nonlar, ishkashimlar, vohanlar, zebaklar, munjonlar)da,

[122]O’shaasar, 44-b
[123]O'shaasarM.: Наука, 1976, 269 c.
[124]O'shaasarM.: Наука, 1976, 271 c.

Pokistoning Chitrol mavzei (munjonlar, yidgalar)da va Xunza daryosi vodiysi (vohanlar) da, Xitoyning Sinszyan- Uyg‘ur viloyatida (shug‘nonlar va vohanlarga qarindosh sariko‘llar) yashaydilar. [125]

Pomir xalqlari, katta yevropeoid irqiga mansub bo‘lib, hind-evropa tillar oilasining sharqiy eron tili, kichik guruhiga kiruvchi til va lahjalarda so‘zlashadilar.

Ular G‘arbiy va Janubiy Pomir vodiylarida (Tojikistonning Tog‘li Badaxshon muxtor viloyatida va Afg‘oniston, Pokiston, Shimoliy Hindistonning unga tutash hududlarida) va Sariko‘l tog‘ tizmalarida (Xitoyning Sinszyan-Uyg‘ur muxtor tumanlarida tarqalgan). Pomir tillariga voxan, ishkashim, yozg‘ulom tillari hamda shug‘non, rushon, xuf, bartang, o‘ro‘tur, sariko‘l singari qardosh til va lahjalar kiradi. Hozirgi o‘lik til hisoblangan qadimiy vanj va sarg‘ulom tillari ham shu tillar guruhidan hisoblangan. Ayrim belgilariga ko‘ra, munjon va unga yaqin bo‘lgan iydgo tillari pomir tillariga qo‘shilsa-da, bu masala munozarali bo‘lib qolmoqda.

Pomir xalqlarning tarixiy-genetik tavsifi, ularni boshqa sharqiy eroniy tillardan farqlanuvchi oila sifatida o‘rganish imkonini bermaydi.Bir qator shunday belgilar, turli pomir tillarini boshqa sharqiy eroniy tillar bilan alohida-alohida yaqinlashtiradi.Barcha Pomir tillarining strukturaviy o‘xshashligi va katta umumiy lug‘aviy fondi, ularning muayyan til jamoasida o‘zaro yaqin, o‘xshash rivojlanganligini ko‘rsatadi.Pomir tili o‘z yozuviga ega emas. Pomir tilida so‘zlashuvchilar-ning ko‘pchiligi uchun yozuv va ta’lim tili-tojik tili, sariko‘l tilida so‘zlashuvchilar uchun esa uyg‘ur tili hisoblanadi. Dindorlari, asosan islom dinining shia, qisman esa sunna mazhablariga e’tiqod qiladilar.

Pomir tojiklari yashayotgan yerlarda qadim zamonlarda Rushan, Shug‘nan, Vohan nomli davlatlar bo‘lgan. Uzoq asrlar mobaynida bu joylarni qanchadan – qancha chet el istilochilari bosib olib Pomir xalqlari ustidan hukmronlik qilib kelishgan. VII asrning oxiridan boshlab, Pomir va Pomir bo‘yi yerlari ikki asrdan ko‘proq vaqt tibetliklar qo‘l ostida bo‘lgan. X asrdan Pomir bo‘yidagi qadimiy

---

[125] Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана / АН СССР. Ин-т этнографии. М.: Наука, 1976, 331

davlatlar yana mustaqil bo‘lib oladilar. Keyinchalik bu yerlar bir qancha podshoxiklarga bo‘linib ketgan. Qariyb 30 yilga yaqin vaqt mobaynida Badaxshon afg‘onlarga bo‘ysunib kelgan, 1878 yildan boshlab bu xalqlar Buxoro amirligi qo‘l ostiga o‘tadi, so‘ngra esa Rossiya tomonidan bo‘ysundirilgan.

1925 yil 2 yanvarda Tojikiston muxtor Respublikasi tarkibida Tog‘li Badaxshon muxtor viloyati tashkil etilgan. XX asrning 30 –90 yillari va XXI asrning boshlari davomida jamiyatda sodir bo‘lgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar natijasida Pomir xalqlari etno-madaniy jihatdan asta-sekinlik bilan tojiklarga o‘zaro yaqinlashib, tobora singib bormoqda.[126]

Pomir xalqlarining asosiy an’anaviy mashg‘uloti chorvachilik, hunarmadchilik va qisman dehqonchilikdan iborat. Tojikistonning boshqa tog‘li yerlaridagi singari, Pomir bo‘yi tojiklarining ham asosiy mashg‘uloti chorvachilik va qisman dehqonchilikdan iborat. Juda qiyin geografik va iqlimiy shart – sharoitlar tufayli sug‘orib dehqonchilik qilinadigan yaroqli yerlar juda kamligi sababli bu yerlarda dehqonchilikni keng rivojlantirishning iloji bo‘lmagan. Yeri omoch yordamida ho‘kiz bilan haydalgan. Ekin ekishdan oldin yerga o‘g‘it solingan. Haydalgan yerlarda arpa, bug‘doy, no‘xat, dukkakli ekinlar, zig‘ir, makkajo‘xori, ayrim joylarda esa paxta yetishtirilgan.

Tog‘ yon bag‘irlariga mevali daraxtlar o‘tqazib, bog‘lar yaratganlar, Vohan va Shohdaraning ustki qismlarida chorva mollari ko‘p boqilgan va aksincha, baland tog‘li yerlarda, chunonchi Huf atrofida chorva kamroq saqlangan.

Tojikistonda tog‘li joylar, dara, jar va toshqin daryolar ko‘p. Shu sababli, yaxshi yo‘llar kam edi. Faqat vodiylarda, katta qishloqlar, shaharlarda yaxshi yo‘llar qurilgan. Tog‘lardagi ko‘p qishloqlarda so‘qmoq yo‘llardan, osma ko‘priklardan o‘tib borish mumkin edi. Shuning uchun asosiy transport vositasi ot bilan eshak bo‘lgan.Tojikistonning shimoliy qismidagi yerlarda ikki g‘ildirakli aravada yuk tashilgan va manzilga yetkazilgan.

[126] Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана / АН СССР. Ин-т этнографии. М.: Наука, 1976, 322

Badaxshon va Voxan aholisi bir necha oila bo‘lib, bir uyda yashaganliklarini (hatto oltita oilagacha) Vuda o‘z sayyohati davomida guvoh bo‘lganligini qayd etadi. Qorategin va Darvozda esa qishlash uchun bir necha oila joylashadigan binolar bo‘lgan. Tog‘li tojiklar oilani bo‘linib ketishiga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qilishardi, yerlari bo‘linmasligi uchun yangi oila otasining qaramog‘ida yashagan. Agar oila juda yiriklashib ketsa, yoniga yangi bino qurilgan, ammo ovqatlanish uchun barcha oila bir joyga yig‘ilgan.  To‘y marosimlari va urf-odatlari. Hozirgi kunda urf-odatlarning juda ko‘p qismi o‘z mazmunini, ahamiyatini yo‘qotib, bormoqda. Qadimda qalinga asoslangan nikoh o‘z ahamiyatini yo‘qotib, uning o‘rniga erkin tanlash, shaxsiy istak asosida turmush qurishga asoslangan nikoh kirib keldi. Sovchilik va u bilan bog‘liq urf-odatlar tuman va qishloqlarda bir-biridan farqli jihatlari bilan ajralgan.[127]

Sovchilik instituti tojiklarda gapzani – sulh tuzuvchilar, bitim tuzuvchilar yoki asakoli – oqsoqollar deb nomlanadi, sababi sovchilikka odatda hurmatli qariyalarborgan. Kelin tanlashda kuyovning ota-onasi, qarindosh-urug‘lari bo‘lajak kelinni har tomonlama surishtirishgan, qizning husni, yashash sharoiti, uy yumushlarini qay darajada uddalay olishi hisobga olingan va baholangan. Kelin tanlangandan so‘ng, sovchilarni jo‘natishga qaror qilingan. Sovchilik uchun eng yaxshi kun tanlangan – payshanba, shanba yoki yakshanba, Xuf vodiysida esa chorshanba, payshanba, juma va shanba zarur ishlarni boshlash uchun ulug‘ kunlar sanaladi. Sovchilar o‘zlari bilan kichikroq patir non – katmol, tut, un va mevalardan iborat tugun olib borishgan. Mehmonlarni siylash uchun mezbon tomon tarafidan bir xil yegulik taom – mirraugan tortilgan.[128]

To‘y marosimini keyingi bosqichida unashtirish “fotiha to‘yi” (tui fotiha) bo‘lgan. Unashtiruvda kuyovni ota-onalari va qarindosh urug‘lari kelin tomonga boshdan oyoq sovg‘a tayyorlaganlar. Bu sovg‘alar sarupo deb nomlanadi.

[127] Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана / АН СССР. Ин-т этнографии. М.:
Наука, 1976, 323 с

[128]Кармышева Б.Х. Типы скотоводства в южных районах Узбекистана и Таджикистана (конец XIX – начало XX
века) //СЭ. 1969. № 3. С. 44 – 50.

Kelinni uyiga kuyov otasi tomonidan un, yog‘, qo‘y to‘shi yuborilgan. Fotiha to‘yida mehmondorchilikdan so‘ng ikki yoshni baxtini so‘rab (fatiha) duo qilingan. Pomir atrofidagi tojiklarda unashtirish dzaklay to‘y, ya’ni “kichik bayram” deyiladi.Unashtirishdan (fotiha to‘yi) to to‘ygacha kuyov va kelin bir-birlariga ko‘rinmasliklari lozim. Fotiha to‘ydan keyin kelin va bo‘lg‘usi kuyovning yangi qarindoshlaridan qochib yurishni boshlaydilar, tojiklarda u megurizan, ya’ni tarjima qilinganda “qochish” deb ataladi. Fotiha to‘yi bo‘lib o‘tgandan so‘ng ikkala tomon ham to‘y tantanasiga tayyorgarlik ko‘ra boshlaganlar. Kuyov tomon kelishilgan qalinni va ikki yoshga uy-joy tayyorlashga harakat qilardilar. Qiz tomon esa kuyov tomon yuborgan sovg‘alarga munosib sovg‘a tayyorlaganlar.Shundan keyin qalinni miqdorini belgilash uchun ikki tomon oldi-berdisi boshlangan, bu “peshkashiburi” – “qalin miqdorini belgilash” deb ataladi.[129]

Bundan tashqari yana shunday urf-odatlar ham bo‘lganki, bu “osol” yoki “osol to‘yi” deb ataladi. Mazkur odatga ko‘ra, to‘y yaqinlashgan sari kuyov tomon belgilangan qalin o‘rnini bosuvchi buyum beriladi. Qalin tayyor bo‘lgandan so‘ng qizning otasi to‘y kunini belgilagan. Tojiklar to‘y marosimi odatda “to‘y”, “to‘y arusi” deyiladi. To‘y asosan kuz yoki qishni ilk kunlariga, ya’ni aholi dala ishlaridan bo‘shagan paytiga qarab o‘tkazganlar.

To‘y marosimining boshidan oxirigacha asosiy rolni “yasaul” bajaradi. To‘y kuni kechqurun 2 xonadonda ham bayram shodiyonasi boshlanardi, kuyov o‘z uyida o‘zining do‘stlari bilan o‘yin-kulgi qilsa, kelin o‘z uyida dugonalari bilan o‘tirardi. Bu shodiyona “shau to‘y”–“tungi bayram” yoki “bazm” deya nomlanadi.Bazm vaqtida kuyovni “sha”– “podshoh”, “shoh”, (“knyaz”, “sar”) nomini oladi. Bazmda hazil shoh rolini o‘ynayotgan kuyovga yaqinlari va do‘stlari sodiqlik bilan xizmat ko‘rsatadilar.[130]

[129]Кармышева Б.Х. Типы скотоводства в южных районах Узбекистана и Таджикистана (конец XIX – начало XX
века) //СЭ. 1969. № 3. С. 44 – 50.
[130]O’shaasar .b-45-51

Karmisheva tadqiqotlarda e'tirof etilishicha, tojiklar o'rta asarlardagi turk-mo'g'ul kelib chiqishidagi etnonimlarga bog'liq bo'lmasdan, balki turklar kabi Movarounnahrning tub yerli aholisidir. Bu fikrni antropologik materiallar ham tasdiqlaydi. XX asr boshlarida tojiklarning etnik guruhlari o'z nomlarini yaxshi saqlab qolgan edilar. Hozirgi davrda Ko'lob, Xo'jand, O'ratepa viloyatlarida tojiklarning etnik nomlari saqlanib qolgan bo'lsa-da, ammo Tojikistonning boshqa hududlarida esa etnotoponimlar shaklida ko'plab uchratish mumkin. Ma'lumki, dastlabki davrdan ular o'troq dehqonchilik bilan shug'ullanib, ziroatchilar turmush tarziga ega bo'lgan. Ularning keyingi davrlarda o'troqlashishiga sug'orma dehqonchilikning mahsuldorligi kabi omillar sabab bo'ldi. Shuningdek, o'troq aholi istiqomat qilayotgan qishloqlar bilan bevosita tutash hududda bo'lgan chorvador aholining bir qismida esa o'troqlashuv jarayoni jadal kechdi. Tojik xalqi tarkibidagi yirik etnik guruhlardan biri – yag'noblar umuman O'rta Osiyo hududlarida, Tojikistonning Dushanbe, tog'li Badaxshon, So'g'd, O'ratepa, Hisor va Pomir tog'li viloyatlarida tarqalganlar. Shuningdek, Turkmaniston, Eron, O'zbekiston va Afg'oniston hududlarida ham ko'plab guruhlari yashaydilar.

Hozirgi vaqtda Sug'd, Xo'jand viloyatlarida yashovchi etnik guruhlar garchi keyingi davrlarda assimilyatsiya (aralashuv) jarayoni kuchayib ketgan bo'lsa-da, o'z hududiy guruhlari xususiyatlarini ayrim ko'rinishlarini saqlab kelagan.[131]

Sheroboddaryo havzasida ham tojiklar uch joyda tarqalganlar: daryoning yuqori qismida, o'rta oqimi havzasida va Sherobod vohasida, Sheroboddaryoning yuqori qismida yashaydilar. Ma'lumki, Machay qishlog'ining o'zi uch qismga – Yuqori Machay, O'rta Machay va Quyi Machay qishlog'iga bo'linadi. (O'zbek – chig'atoylar asosan Yuqori Machay qishlog'ida yashaydi). Bu qishloqlarni kesib o'tuvchi daryo Machaydaryo (Sheroboddaryoning yuqori qismi) deb ataladi.Axborotchilarning ma'lumotlariga qaraganda, daryo o'tmishda Gurgandaryo deb atalgan.Machay qadimshunos tadqiqotchilar zikrida qadimiy odamlar makoni sifatida ko'rsatiladi. Hatto o'rta asrlarda bu yerda mustahkam

[131]O'shaasarM.: Наука, 1976, 179 c.

qo'rg'on bo'lganiva eski qishloq xarobasi - Oqqishloqda hunarmandchilik va dehqonchilik rivojlanganligi arxeologik tadqiqotlarda ham eslatib o'tiladi.[132]

Machay qishlog'i aholisi haqida shu qishloqlik kishilar bu yerdagi aholi har joydan turli davrlarda kelib qolgan o'zbek, tojik va boshqa xalqlarning aralashmasi ekanligini aytishdi. Haqiqatdan ham bu qishloq aholisi til xususiyatlariga ko'ra o'zbek va tojik tillidir. O'rta Machay qishlog'ida yashovchi Umar Xolboyevning va Ahmad Ergashevning aytishicha, Machayda eroniylar ham bor bo'lib, ular Yuqori Machay qishlog'ining qishloq-mavzelaridan biri - Kodokda yashaydi.[133]Ular qishloq aholisi bilan o'zaro nikoh munosabatlarida bo'lib, aralashib ketgan. Demak, Yuqori Sheroboddaryo havzasida turli qabila va elat vakillari uzoq davr mobaynida aralashib, o'ziga xos hududiy etnik birlikni tashkil qilgan holda istiqomat qilib kelmoqdalar.

[132] O'sha asar M.: Наука, 1976, 228 c.
[133] O'sha asar M.: Наука, 1976, 235 c.

## III-bob. B.X. Karmishevaning O’rta Osiyoga oid tadqiqotlarida hududiy etnoxo’jalik ixtisoslashuvining asosiy yo’nalishlari

### III.I. Xo’jalik-madaniy tiplar va ularning mintaqaviy xususiyatlari

Xo’jalik - madaniy tiplar va ularning mintaqaviy xususiyatlari turli xalqlarning turmush tarzi va madaniyati xarakteri, mentaliteti tabiiy-geografik muhitga va shundan kelib chiqib shakllangan xo’jalik faoliyati hamda madaniy-xo’jalik an’analari bilan chambarchas bog‘liqdir. Chunki tabiiiy sharoitning ta’siri belgilari etnik madaniyatning barcha sohalarida, ya’niishlab chiqarish vositalaridan, ayniqsa mehnat qurollaridan boshlab, odamlarning turar joylariva uy-joy qurilishi, kiyim-kechaklari va ro’zg‘or buyumlari, xo’jalik-madaniy an’analari va hatto xalqlarning etnik xususiyatlarida ham namoyon bo’ladi.[134]

Shu bilan birgalikda bu jarayon nafaqat tabiiy muhit bilangina emas, balkimuayyan etnoslarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, xo’jalik tajribalariva ko’nikmalari darajasi bilan ham uzviy bog‘liq bo’lib, turli tarixiy davrlarda u yoki bu etnosning shakllanishi va etnik tarkibining xilma-xilligiga ham ma’lum ma’noda o’z ta’sirinio’tkazib kelgan. Biz tadqiq etmoqchi bo’lgan masala mohiyatini yaxlit tarzda “xo’jalik-madaniy tiplar” tushunchasi to’liq qamrab oladi.

Xo’jalik-madaniy tip – turli xalqlarda tarixan tarkib topgan, ijtimoiy-iqtisodiy riojlanishda bir-biriga yaqin bo’lgan vao’xshash tabiiy muhitdagi xo’jalik-madaniy xususiyatlarning ma’lum majmuasidir.

---

[134] Кармышева Б.Х. Типы скотоводства в южных районах Узбекистана и Таджикистана (конец XIX – начало XX века) //СЭ. 1969. № 3. С. 44 – 50.

Tarixiy taraqqiyot va etnik jarayonlarga turli xo’jalik-madaniy tiplarning faol ta’siri masalalarining tahlil etilish tajribalari allaqachon nazariy ishlanma tarzida ilgari surilgan hamda o’z vaqtida ba’zi etnologik tadqiqotlarda ushbu uslubdan foydalanishga harakat qilingan. O’tgan asrning 90-yillaridan boshlab xo’jalik-madaniy tiplar asosida etnoslarni klassifikatsiyalarga ajratish masalasi hamda etnik identiklik va etnodifferensiatsiya masalalarini tahlil etishda ham madaniy-xo’jalik omillari muhim ahamiyatga egaligi e’tirof etildi. Shuningdek, etnoslararo jarayonlarni tahlil etishda turli xo’jalik-madaniy tiplarga ega bo’lgan etnoslar o’rtasidagi munosabatlarni xo’jalik an’analari kontekstida tahlil etish tajribalari qo’llanildi.[135]

Tadqiqotda yuqorida ko’rsatilgan ishlardan farqlio’laroq, aholi xo’jalik-madaniy an’analarning etnik jarayolarga ta’siri masalasiga asosiy e’tiborni qaratamiz. Ma’lumki, turli xo’jalik xususiyatlariga, jumladan, o’troq dehqon va xo’jaligida chorvachilik yetakchio’rin egallagan turli etnoslarning o’zaro iqtisodiy-xo’jalik, madaniy-savdo munosabatlari ham etnik jarayonlarga sezilarli ta’sir etib, assimilyatsiya jarayonlarini jadallashtirgan. Demak, XIX - XX asr boshlarida O’rta Osiyo mintaqasi uchun ko’rsatilgan tadqiqot muallifiB.X. Karmisheva Farg‘ona vodiysi aholisining an’anaviy xo’jalik aloqalari turli xo’jalik-madaniy tiplarga kiruvchi etnoslar o’rtasida aniq farqlanib turadi deb ta’kidlaydi hamda o’z tadqiqoti maqsadidan kelib chiqib, uning etnoslararo jarayonlardagi roliga urg‘u beradi. Shu o’rinda o’rganilayotgan mintaqa aholisining xo’jalik faoliyatini batafsil tavsiflab berish ushbu tadqiqot maqsadiga kirmasligini hamda xo’jalik-madaniy tiplar tarqqiyotini etnik jarayonlarga ta’siriga asosiy e’tiborni qaratishimizni ta’kidlab o’tishimiz joiz.

Ko’rib chiqilayotgan xronologik doirada O’zbeklarva Tojiklar yashaydigan hududlarda asosan birinchi va uchinchi xo’jalik-madaniy tiplari xos bo’lib, ular ham o’z navbatida turli tarixiy-etnografik mintaqalarda ma’lum lokal variantlarga ega bo’lgan. O’rganilayotgan mintaqa va umuman O’rta Osiyo uchun keskin farq qiluvchi tabiiy sharoitlar ( avvalo tekislik, dasht, tog‘, baland tog‘ zonalari

---

[135]O’shaasar, b-44

aholisining etnik xususiyatlari borasidagio’zaro farqlar), aholining murakkab etnik tarkibi, etnodifferensiyatsiyasi hamda rang-barang xo’jalik-madaniy an’analarning saqlanib qolganligi bilan xarakterlanadi.[136]

Xususan O’zbekistonning o’ziga xos tarixiy-etnografik mintaqalaridan biri bo’lgan Surxon-Sherobod vodiysida hamda pomir tog’li tojiklarida xo’jalikning o’rganilayotgan xronologik doirada bir qancha lokal tiplarini alohida ajratib ko’rsatish mumkin.

Birinchi tip, xo’jaligi sun’iy sug‘orishga asoslangan o’troq dehqonchilik; ikkinchi tip, yaylov chorvachiligiga asoslangan ko’chmanchi chorvachilik; uchinchi tip, an’anaviy chorvachilikni dehqonchilik bilan qo’shib olib boradigan yarimko’chmanchiva yarimo’troq aholi xo’jaligi. Odatda ular dehqonchilik mintaqalari chegaralarida joylashib, sug‘orilmaydigan (lalmi) yerlarda dehqonchilik qilishgan va ayni paytda tog‘ va tog‘ oldi yaylovlarida chorvalarini boqqanlar.[137]

Yuqorida ko’rsatilgan asosiy xo’jalik-madaniy tiplardan kelib chiqib ajratib ko’rsatilgan ushbu xo’jalik tiplarini biz shartli ravishda “mikrotiplar” deb ataladi.Albatta, o’rganilayotgan mintaqaga xos bo’lgan mikrotiplar ma’lum bir izchillikka ega bo’lib, har biri nafaqat xo’jalik, balki etnik, madaniy belgilarga ko’ra ham muayyan xususiyatlarga ega ekanligi kuzatiladi. Bu mikrotiplar bir qancha tarixiy-geografik va etnografik xarakterdagi maxsus tadqiqotlarga tayanib ajratib ko’rsatildi.

I) Katta daryolar vodiysida yirik voha sug‘orma dehqonchiliigi.Bunda lalmi dehqonchiligi ham (tog‘larning quyi adir qismida) chorvachilikning haydov shakli bilan qo’shib olib borilgan.

II) Tog‘ va tog‘ yonbag‘rida mikrovoha sug‘orma dehqonchiligi. Bunda bog‘dorchilik, lalmi donchilik va chorvachilikning qo’ra-yaylov shakllari hunarmandchilik bilan qo’shib olib borilgan.

[136]O’shaasar.B- 46.
[137] Кармышева Б.Х.Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. М.,1976.с-75

III) Tog‘ va tog‘ yonbag‘rida haydov-yaylov chorvachiligining shartli sug‘orma dehqonchilik va hunarmandchilik bilan qo’shib olib borilishi.

IV) Dasht va adirliklarda haydov-yaylov chorvachiligining ba’zida sug‘orma yoki lalmi dehqonchilik bilan qo’shib olib borilishi.

Mavjud etnografik materiallar tahlili shuni ko’rsatadiki, xo’jalikning birinchivaikkinchi tiplario’troq va keyinchalik o’troqlikka o’tgan aholiga tegishli bo’lsa, keyingiikki tip yarimo’troq hamda yarimko’chmanchi turmush tarziga ega bo’lgan va xo’jaligida chorvachilik yetakchio’rinda turgan aholiga tegishlidir. Bu tiplardagi xo’jalikning rang-barang yo’nalishlari turlicha dehqonchilik madaniyati, o’ziga xos chorvachilik an’analari hamda hunarmandchilikning turli tarmoqlariga bog‘liq bo’lib, muayyan tafovutlarga ega edi.[138] Bu holatni avvalo, rang-barang landshaftlar, ijtimoiy-iqtisodiy omillar (ishlab chiqarish qurollariva vositalari bilan ta’minlanganlik darajasi, mahsulotlarning tovarlilik darajasi, bozorga yaqinligi va h.k.) va etnik an’analarga bog‘liqligi bilan izohlash mumkin.

Ushbu xo’jalik sohalarining ixtisoslashuvi rang-barang xo’jalik-madaniy muhitda turlicha turmush-tarziga ega bo’lgan etnik guruhlar o’rtasida vujudga kelgan o’ziga xos “mehnat taqsimoti” asosida shakllanganligi kuzatiladi. Yuqorida ajratib ko’rsatilgan birinchivaikkinchi xo’jalik-madaniy tiplar (mikrotiplar) asosan sug‘orma dehqonchilik bilan shug‘ullanadigan aholiga tegishlidir. Bu xo’jalik tiplariga Surxondaryo va Sheroboddaryolarning yuqori va o’rta havzalari, uning irmoqlari orqali sug‘oriladigan hududlari kiradi.[139]

XIX – XX asr boshlarida tadqiq etilayotgan mintaqada hududiy etnoxo’jalik ixtisoslashuvining asosiy yo’nalishlari sezilarli darajada farqlanadi215. Tog‘oldi va tog‘ mintaqalarida, ya’ni yirik daryo vodiysida (o’zbek va tojiklar aralash) o’troq dehqon aholi, yarimdasht qir-adirlar va dashtlarda asosan yarimo’troq aholi yashaydi. Surxon-Sherobod vodiysiga xos bo’lgan birinchi mikro xo’jalik-madaniy tipiintensiv sug‘orma dehqonchilikka asoslanib, turli xil madaniy o’simliklarni yetishtirish uchun qulay bo’lgan tog‘oldi tekisliklari va yirik daryolarning

[138] Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. М., 1976.77-78 b
[139]O’shaasar.B-78-79b

qadimgio'zanlarida intensiv voha sug'orma dehqonchiligi tarzida shakllangan.Bu arxeologik materiallarda ham o'z isbotini topgan. Ushbu xo'jalik-madaniy tipii yaratuvchilari tomonidan bug'doy, arpa, sholi, tariq kabi donli ekinlar; mosh, no'xot, loviya, madaniy burchoq, yasmiq, kabi dukkakli ekinlar va kunjut, zig'ir kabi moyli ekinlar; qovun, tarvuz, kadi, qovoq kabi poliz ekinlari; bodring, piyoz, sabzi, qizil qalampir kabi sabzavot ekinlari; rayhon, tog' yalpizi, zira kabi xushbo'y o'simliklar yetishtirilgan. Shuningdek, bu yerda bog' va uzumzorlar, mevasi va ipak qurti boqish uchun tut daraxtlari, paxtaning g'o'za, saflar, marlen kabi mahalliy navlari yetishtirilgan.[140]

Bu tipda dehqonchilikka bog'liq ravishda chorvachilikning qo'ra va qo'ra yaylov tizimi rivojlanganligi kuzatiladi. Har bir xo'jalikda bir - ikkitadan ot, ho'kiz, sog'in sigirlari bo'lib, mayda shoxli chorvalar etnik guruhlar shahar joylarda aralash holda qishloq joylarda kompakt xollarda uchraydi. Faqatgina ichkiiste'mol uchungina boqilgan va keng tovar xarakterida emas edi.

Yirik daryo vohalardagi aholi bozorga nafaqat dehqonchilik mahsulotlari balki, hunarmandchilik mahsulotlari - gazmollar, dehqonchilik qurollari, (o'roq, chalg'i, ketmon, bel va boshqalar) sopol va metall idishlar shuningdek, temir buyumlar (pichoq, bolta), zargarlik buyumlari, taqinchoqlar, sovun va boshqa konditer mahsulotlariishlab chiqarganlar.[141] Shaharliklar va savdo-hunarmandchilik qishloqlari aholisi hunarmandchilik va savdoni dehqonchilik bilan qo'shib olib borganlar. Ayrim shahar va qishloqlar u yoki bu maxsulotlarniishlab chiqarish bo'yicha mashhur bo'lgan. Masalan, Boysun alachasi bilan, Sherobod esa kulolchilik buyumlari bilan mashhur bo'lgan. Bu alachalar Samarqand, Toshkent, Afg'oniston va hatto Hindistonga ham sotilgan. Janubiy mintaqalar (O'zbekistonning janubiy hududlari)daishlab chiqarilgan temir bellarni uzoq qishloqlardan kelib, ulgurji narxlarda olib ketganlar. Sun'iy sug'orma dehqonchilik vohalaridagi aholi turli xil mahsulotlar ishlab chiqarish bilan birgalikda boshqa xo'jalik tiplariagi aholidan xom ashyo, yarim tayyor

---

[140] Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. М., 1976. 54
[141] Кармышева Б.Х. Архаическая символика в погребально-поминальной обрядности узбеков Ферганы // 1986. С. 139

mahsulotlar, hunarmandchilik maxsulotlari kabi zarur ishlab chiqarish vositalarini ham sotib olganlar. Masalan, shaharliklar vao'troq qishloq aholisi yarimo'troq aholidan go'sht, teri va jun mahsulotlari (gilam, qop, to'qilgan sumka, arqon, xurjun) kon tuzi, o'tin, ko'mir kabilarni sotib olganlar. Boysun yaqinidagi To'da qishlog'ida yashovchi qo'ng'irotlar doimo ochiq usuldagi ko'mir konidan foydalanib kelganlar va shaharliklarga sotganlar.[142]

XX asr boshlarida vohalardagi shahar va yirik qishloq aholisi yarimo'troq aholidan (III va IV xo'jalik tipining yaratuvchilaridan) lalmibug'doy, (u o'zining kaloriyaliligi jihatdan sug'orma bug'doydan yuqori turadi) arpa, zig'ir va kunjut, qovun kabilarni sotib olgan bo'lsalar, tog' va tog' oldio'troq aholisidan (II tip yaratuvchilaridan) esa paxtali buyumlar, mayiz, yong'oq, uzum shinnisi, ipak iplar, tut va olma qoqisi, bug'doy va boshqa maxsulotlarni xarid qilganlar. Yirik vohalarda xo'jalikning tor ixtisoslashuvi ham shakllangan edi.Masalan, bu tipdagilar sholi yetishtirganlar. Sholikorlarning esa o'z navbatida non, chorva, mevalar, o'simlik yog'i, hunarmandchilik buyumlariva jun mahsulotlariga ehtiyoji katta bo'lgan. Shuningdek, polizchilik bilan shahar yonidagi qishloqlarning aholisi shug'ullanganlar. Yarimo'troq aholining doimiy ravishdagio'troqlikka o'tishi ularning turmush-tarziva xo'jalik sohasida o'troq aholining turmush-tarziga xos bo'lgan elementlar shakllana boshlagan. Shunday bo'lsadao'ziga xos xususiyatlar ham saqlanib qolganligi kuzatiladi.[143] Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, birinchivaikkinchi tiplarni yaratuvchilarining xo'jaligida sun'iy sug'orma dehqonchilik yetakchio'rinni egallaydi va tovar xarakteridagiishlab chiqarishga ega edi. Tadqiq etilayotgan mintaqada asrlar mobaynida tog' va tog' yonbag'rida shakllangan mikrovoha sug'orma dehqonchiligining bog'dorchilik, lalmi donchilik va chorvachilikning haydov-yaylov, qo'ra-yaylov shakllari hamda hunarmandchilik bilan bog'liq ravishda rivojlangan xo'jalikniikkinchi mikro xo'jalik-madaniy tipiga ajratamiz.

---

[142]Кармышева Б.Х. Архаическая символика в погребально-поминальной обрядности узбеков Ферганы // Древние обряды, верования и культы народов Средней Азии. М., 1986. С. 124

[143]O'shaasar 141

Bu tipga xos xususiyatlar shundan iboratki, bunda asosan dehqonchilik vaipakchilik mahsulotlari yuqori tovar xarakteriga ega edi. Dehqonchlik Surxon va Sherobod daryolarining yuqori qismlarida tog‘ va tog‘oldi mikrovohalarida, ya’ni bu daryolarning irmoqlari bo’yida shakllanganligini kuzatishimiz mumkin. Tog‘ va tog‘oldi mintaqalarida Surxondaryoning To’palang, Obizarang, Xo’jaipok, Sangardak, Qoratog‘, Dashnobod, Sharg‘un kabiirmoqlari bo’yida dehqonchilik o’ziga xos tarzda rivojlangan. Tut plantatsiyalari sug‘orma yerlarda keng tarqalgan. Pillani shahar to’quvchilari, shuningdek, Afg‘onistondan kelgan savdogarlar XX asr boshlarida esa asosan Turkiston o’lkasidan kelgan savdogarlar olganlar. Bir qism pillani ya’niipak xomashyoni yarimo’troq aholi tomonidan kiyim – kechaklarga bezak berish yoki uy buyumlari - so’zana, kashta tikish uchun sotib olganlar.[144]Shu bilan birga bu mintaqalardagio’tloqqa boy yaylovlar yil bo’yi haydov-yaylov chorvachiligini rivojlanishi uchun qulay bo’lgan.Chorvachilik bilan keyinchalik o’troqlashgan etnik guruhlar shug‘ullanganlar.Ipakchilik bu zonada yaxshi rivojlangan. Ushbu xo’jalik tipiga mansub aholi asosan tog‘ va tog‘oldi hududlarida yashovchi tog‘chi-qatag‘onlar, chig‘atoylar, qarluqlar va tog‘li tojiklar bog‘dorchilik, chorvachilik va ziroatchilik bilan shug‘ullanganlar.

Shuningdek, bu mintaqada ixtisoslashgan uzumchilik keng tavarlilik xususiyatga ega edi. Uzumchilik markazlari Boysun bekligida Passurxi, Denov bekligida Sina, Xovuz, Vaxshivor, Hisor bekligida Gazarag va Xufor qishloqlari hisoblangan. Bu yerda uzumning 20 dan ortiq navi ekilgan. Uzumni dehqonlar yaqin bozorga yoki yarimo’troq aholi bilan bug‘doy, jun, sariyog‘ga almashgan bo’lsalar, Hovuz, Vaxshivor va Sina qishloqlari aholisi mayzni Qarluq, Denov, Yurchi, Boysun shuningdek, Ko’lob (Tojikiston Respublika)ga ham olib borib sotganlar, Shuningdek, mayiz mahalliyfaqatgina doimo ekiladigan yerlarni sug‘orishgagina yetar edi xalos. Shu sababli ham buloq, hovuz, havza va kichik tog‘ daryolari, soy suvlaridan foydalanib dehqonchilik mahsulotlari yetishtirilgan.

---

[144] Кармышева Б.Х. Архаическая символика в погребально-поминальной обрядности узбеков Ферганы // Древние обряды, верования и культы народов Средней Азии. М., 1986. С. 145

Suvga bo’lga ehtiyojni qondirish uchun Ko’hitang tog‘ etaklarida korizlar barpo etilgan.[145]

Bozorlardan tashqari Buxoro amirligining Markaziy qismiva Turkiston o’lkasiga va Rossiyaga ham chiqarilgan. Janubiy vohalarning  xolva, nisholdalari yuqori Kichik-o’radaryo, G‘uzor (Qashqadaryo viloyati) Kelif bekligi (Turkmaniston Respublikasi)dagi chorvadorlarga yetkazib berilgan. Bu mintaqada bug‘doy yetishtirish, bog‘dorchilik va hunarmandchilikning ayrim tarmoqlarida ishlab chiqarilgan maxsulotlar tovarlilik xususiyatiga ega edi. Xalqayor daryosibo’yida joylashgan Katar qishlog‘i bug‘doy yetishtirish bo’yicha yetakchio’rinda turgan.yerga Kelif bekligidan (Turkmaniston Respublikasi) qo’ng‘irot boylari kelib, bug‘doyni ulgurji sotib olib, (yashayotgan joylaridva suv tegirmonlari bo’lmagan) suv tegirmonlariga un qildirib tuyalarda olib ketganlar. Tog‘li mintaqalarga tog‘oldi qishloqlaridan ham bug‘doy olish uchun alacha, bo’z va mayiz olib kelganlar va o’zaro mahsulot ayriboshlashgan. Dashtliklar esa shu atrofdagi yaylovlarga chorvalarini haydab kelganlar va jun va jun maxsulotlari bilan mol ayriboshlashgaan. Yong‘oq, o’rik, olma, nok, tut va boshqa mevalar yuqori tovar xususiyatiga ega edi. Bu mahsulotlarni paxta sotib olish mumkin bo’lgan Sherobod, Ko’qitang va Denov bozorlariga sotish uchun olib borganlar. G‘o’zani bu darajada ko’p sotib olishdan maqsad qish davomida oiladagi ayollarniish bilan ta’minlash bo’lgan.

Sangardak va changaloqliklar asosan yong‘oq va mevalarni paxtaga almashtirish uchun Sharqiy Buxoroda eng yirik paxta bozori bo’lgan Sherobod bozoriga olib borganlar. Paxta Sherobod bozoriga faqatgina Sherobod vohasi dalalaridan olib kelinmasdan balki Kelif,(Turkmaniston Respublikasi) Denov bekliklaridan ham olib kelingan. Sangardakliklar vachangaloqliklar paxtaning “ko’k yong‘oq” navini sotib olishni afzal ko’rganlar. Yigirilmagan paxta kalavasini Xubon qishlog‘idagi to’quvchilarga olib borib bo’z to’qishga buyurtma berganlar.[146]

---

[145]O’shaasar. 22-36.

[146]К вопросу о культовом значении конных игр в Средней Азии // Прошлое Средней Азии (археология,

Tog‘ va tog‘ yonbag‘rida haydov-yaylov chorvachiligining shartli sug‘orma dehqonchilik hamda hunarmandchilik bilan qo’shib olib borilishi uchinchi mikro xo’jalik-madaniy tipga kiradi. Bu tipga kiruvchi aholi ko’proq chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi etnik guruhlar - qo’ng‘irot, yuz, do’rmon kabilar Sheroboddaryo oralig‘idagi dasht zonalarida, Bobotog‘ etaklarida, Qiziriq, Bandixon, Muzrobod, Xatrobod cho’llarida chorvachilik bilan, adirliklarda esa lalmikor ziroatchilik bilan shug‘ullanganlar. Vodiydagi chorvachilik uchun qulay bo’lgan iqlim, tabiiy sharoit tog‘ yon adirlari va keng cho’l zonalari bu yerda doimiy ravishda haydab boqiladigan chorvachilik turining saqlanib qolishiga olib keldi. Bu hududda yashovchi ayrim etnik guruhlarning to’liq o’troq turmush tarziga o’tmaganligining sababi ham xo’jaligida chorvachilik yetakchio’rinda turganligidir. Shu bois bo’lsa kerakki, chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi aholio’zining xo’jalik, etnik-madaniy, antropologik va til xususiyatlarini XX asr boshlarigacha yaxshi saqlab qolgan edi.[147]

XX asr boshlarida yarimo’troq aholi shartli sug‘orma dehqonchilik bilan ya’ni lalmi yerlarda bug‘doy, arpa, zig‘ir, kunjut, poliz asosan qovun va g‘o’za ekkanlar. Bu yerda nafaqat kammulkli dehqonlar balki, o’rtahol dehqonlar ham dehqonchilik bilan shug‘ullangan.Kambag‘al va boy dehqonlar kompleks xo’jalik ya’ni bug‘doychilikni haydov-yaylov qo’ychiligi yoki yilqichilik bilan qo’shib olib borganlar yoki tovar xususiyatiga ega bo’lgan ixtisoslashgan donchilik xo’jaligini yuritganlar.

Bobotog‘ tizmasi etaklarida yashovchio’zbek urug‘lari qo’ng‘irot, do’rmon kabilarning asosiy xo’jaligi lalmi dehqonchilik bilan bog‘liq chorvachilik edi. Bir qism aholi yozgi yaylovlarga (ovul) ko’chganlar, bir qismi esa qishgidoimiy turar joylarda qolib, ekstensiv donchilik xo’jaligi bilan shug‘ullanganlar. Tog‘oldi vodiylari va dashtliklarda shartli bir martalik sug‘orishdan ya’ni, sel suvidan samarali foydalanilgan. Bahorda soylarda suvlarni qator ariqchalar shaklida to’plab

---

нумизматика и эпиграфика, этнография). Душанбе, 1987. 14-b
[147]O’shaasar. 14-b

tekislik tomon oqizganlar.Dehqonchilikning bu turi xalq orasida “selovakorlik” deb nomlangan.

Dehqonchilik janubiy hududlarda, shuningdek Tojikiston yerlarida tez-tez qurg‘oqchilik sababli qat’iy bo’lmagan.Shu sababli kambag‘al dehqonlar ma’lum darajada chorvachilikka ham tayanganlar.Bu aholi guruhikeng vodiylarda haydov-yaylov chorvachiligini sholikorlik bilan qo’shib olib borganlar.Bir qadar qurg‘oq hududlarda tuyachilik ham rivojlangan.Bu xo’jalik-madaniy tipida faqat boy chorvadorlarning chorvachiligi yuqori tovar xarakterlanadi.[148]

Bu xo’jalik-madaniy tipida qishloq hunarmandchiligi ham rivojlangan edi.Ular orasida temirchilar, zargar ustalar, otning qimmatbaho egar-jabdug‘i, zargarlik buyumlar, taqinchoqlar, yog‘ochsozlar, etikdo’zlar, bor edi.Ular bu hunarlarnio’troq aholidan o’rganganlar, hunarmandlar buyurtma asosidagina ishlaganlar.Hunarmandchilikning passiv rivojlanganligi uni qat’iy ixtisoslashuviga olib kelmadi.

Boy chorvadorlar asrlar bo’yi shug‘ullanib kelgan an’analariga zid ravishda tovar xarakteriga ega bo’lgan g‘allakorlik bilan shug‘ullana boshladilar.[149] Aynan ular yetarliishchi hayvonlarga va dehqonchilik qurollariga ega edilar. Bu yerda yetishtirilgan bug‘doylarni Termez, Kerki,(Turkmaniston Respublikasi) Xivadan savdogarlar kelib sotib olganlar va Amudaryo orqali olib ketganlar.

Dasht va adirliklarda haydov-yaylov chorvachiligining ba’zida sug‘orma yoki lalmi dehqonchilik bilan qo’shib olib borilishi to’rtinchi mikro xo’jalik-madaniy tipga kiradi.

Chorvaga bo’lgan ehtiyoj ayniqsa bo’rdoqi qo’yga talabning ortishi sababli bir qism chorvador aholi dehqonchilikni butunlay tashlab faqat haydov-yaylov qo’ychiligi bilan shug‘ullandilar.G‘allachilik bilan shug‘ullanmaydigan yarimko’chmanchi aholi esa yaxshi yaylovlarga egalik qilib, tajribali cho’ponlarni

[148]К вопросу о культовом значении конных игр в Средней Азии // Прошлое Средней Азии (археология, нумизматика и эпиграфика, этнография). Душанбе, 1987.

[149] Кочевая степь Мавераннахра и ее население в конце XIX — начале XX в.: (По этнографич. данным) // Сов.этнография. 1980, № 1. С. 46-55;

yollab mashhur hisori qo'ylarni naslini asrlar davomida xalq amaliy tajribalari asosida yaxshilashga qaratdi.[150]

XX asr boshlarida o'rganilayotgan mintaqada haydov-yaylov chorvachiligi xo'jalikning asosiy va yagona tarmog'i sifatida saqlanib qolgan edi. Bu tipdagi xo'jalikka Dashti qipchoq etnik guruhlaridan oldin joylashgan etnik guruhlar qarluq, turklar nomi bilan ma'lum bo'lgan etnik guruhlar va boshqalar kirgan. Dehqonchilik mahsulotlarini ular yaylovda o'zaro savdo-sotiq aloqalarida bo'lgan tog'li tojiklardan yoki bozordan sotib olganlar. Boy chorvadorlar G'uzor, Qarshi, Urgut, Toshkent va boshqa joylardan kelgan chorva savdogarlariga sotganlar. Shu bilan birgalikda ular uzun vaipgichka junni bahorda o'z chorvalariniAfg'onistondan janubiy Tojikiston orqali Qo'qonga sotishga ketayotgan arablar va avg'onlarga almashishgan. Qarluq, turk va qo'ng'irotlarning yordamchi xo'jaligi ko'pgina oilalarning sevimli mashg'uloti va avloddan-avlodga o'tib kelgan cho'ponlikdir. Xo'jaligining asosini chorvachilik tashkil etgan Movarounnahr turklari, qarluq, qo'ng'irot, do'rmon, yuz kabi yirik etnik guruhlarda haydov-yaylov yoki yaylov-yaylov(yozgi yaylovdan qishgi yaylovga ko'chish yoki aksincha) tizimidagi chorvachilik faoliyatiintensiv xarakterga ega bo'lib, yaratilgan chorvachilik maxsulotlarining tovarlilik xususiyati yuqori edi.

Uchinchiva to'rtinchi tiplarni yaratuvchilari nafaqat dehqon aholi balki, o'zaro tig'iz iqtisodiy aloqalarga ega edi. Bu alohida etnikguruhlarda ko'proq yoki kamroq aks etgan an'anaviy ixtisoslashgan xo'jalikning yetakchi yokiikkinchi darajalitarmog'ida aks etgan.

To'rtinchi tipga kiruvchi aholi chorvachiligda boshqa mintaqalarning chorvachilik xo'jaligi bilan ko'pgina o'xshash jihatlari bo'lsa-da, ammo bundagi etnik guruhlarning har birida uy hayvonlarini boqishda o'ziga xos usullariva jihatlari bo'lgan. Masalan, eng yaxshi ko'pkari otlari loqaylarda, eng yaxshi sotiladigan qo'ylar va cho'pon itlari qo'ng'irot, qarluq va turklarda bo'lgan.

Shu bilan birgalikda, hatto bir elat istiqomat qiladigan hududda ham chorvachilik xo'jaligini yuritishdagi tabiiy-geografik sharoitlar tufayli yoki qo'shni

---

[150]O'shaasar.B-44-51;

xalqlarning ta’sirivaijtimoiy-iqtisodiy sabablar natijasida xilma-xil usullardan foydalanganliklarini kuzatishimiz mumkin.

Ushbu sharoitda chorvachilik va dehqonchilik hamda hunarmandchilik xo’jaliklario’rtasida qat’iy chegara bo’lmagan. Chunki, bu ikki xo’jalik turlari doimo bir-birini taqozo etib turgan.Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, Janubiy O’zbekiston mintaqasi sharoitida bundan o’zgacha bo’lishi mumkin emas edi.Faqatgina bir-birini taqozo etish darajasida xo’jalik-madaniy tiplari har bir tarixiy-etnografik mintaqalarda muayyan farqlarga ega bo’lgan.[151]

Chorvador etnik guruhlarning Movarounnahrning madaniy mintaqalariga migratsiyasi hamda xo’jalik-madaniy xususiyatlarga ta’siri sezilarli darajada bo’lgan.Etnik guruhlar migratsiya bo’lar ekanlar, mahalliy chorvadorlarni vakolatlarinio’z qo’llariga oladilar.Ularning dehqonchilik bilan birga qo’shib olib boradigan natural ekstensiv chorvachiligiintensiv-tovarlilik xususiyatiga ega bo’la boshlagan.

Xo’jalik-madaniy tiplarning lokal variantlarini tahlil etish shuni ko’rsatadiki birinchidan IvaII tiplar uzoq asrlar davomida shakllangan. Bu tip chorvador yarimo’troq aholi mansub bo’lgan IIIvaIV tiplar bilan ba’zi umumiy tomonlarpga ega bo’lsada har bir tipning lokallashgan jihatlari ham saqlanib qolgan edi.

Ikkinchidan, ko’rib chiqgan barcha tiplardagi aholi etnik mansublikdan qat’iy nazar garchi u o’troq yoki yarim o’troq turmush tarziga ega bo’lsada u yoki bu xo’jalik-madaniy tipiga mansubligi belgilario’zida aks ettirgan.[152]

Uchinchidan, tadqiq etilayotgan mintaqaning aholisi turli xo’jalik madaniy tiplarga egaligi turmush tarzidagi farqlarini (o’troq, yarim o’troq) etnik belgilarini (o’zbek, tojik, arab, turk, qarluq, qatag‘on, qo’ng‘irot, yuz kabi) va etnik differensiatsiyasini uzoq vaqt saqlanib qolishiga imkon bergan.

B.X. Karmishevaning bu yo’nalishdagi tadqiqotlari shunu ko’rsatib beradiki, birinchivaikkinchi tiplari o’troq va keyinchalik o’troqlikka o’tgan aholiga tegishli bo’lsa, keyingiikki tip yarimo’troq hamda yarimko’chmanchi turmush tarziga ega

---

[151] Кочевая степь Мавераннахра и ее население в конце XIX — начале XX в.: (По этнографич. данным) // Сов. Этнография. 1980, № 1. С. 44;
[152] O’shaasar 56-62;

bo’lgan va xo’jaligida chorvachilik yetakchi o’rinda turgan aholiga tegishlidir. Bu tiplardagi xo’jalikning rang-barang yo’nalishlari turlicha dehqonchilik madaniyati, o’ziga xos chorvachilik an’analari hamda hunarmandchilikning turli tarmoqlariga bog‘liq bo’lib, muayyan tafovutlarga ega edi. Bu holatni avvalo, rang-barang landshaftlar, ijtimoiy-iqtisodiy omillar (ishlab chiqarish qurollariva vositalari bilan ta’minlanganlik darajasi, mahsulotlarning tovarlilik darajasi, bozorga yaqinligi va h.k.) va etnik an’analarga bog‘liqligi bilan izohlash mumkin.

## III.II. O’rta Osiyo xalqlari xo’jalik faoliyativa an’anaviy mashg‘ulotlari

O’rganilayotgan mintaqaning o’ziga xos tabiiy-geografik xususiyatlari ham etnik jarayonlarga sezilarli ta’sir ko’rsatganligini yuqorida ta’kidlab o’tgan edik. Uning mo’tadil iqlimi, bahor faslining erta kelishi, yoz faslining ko’p davom etib, qishning iliqroq bo’lishi qadimdan ixtisoslashgan ikki xo’jalik-madaniy muhit - sersuv buloq, daryo va uning irmoqlari bo’yida sug‘orma dehqonchilik va shuningdek, yarim dasht va tog‘ yonbag‘irlarida esa chorvachilikning baravar rivojlanishiga imkon berdi.

Bu xo’jalik turlarining vodiydagi ko’plab etnik guruhlar o’rtasida o’ziga xos taqsimoti mavjud bo’lganligini ko’rishimiz mumkin.Bu taqsimot rang-barang etnik-madaniy munosabatlarning shakllanishiga olib keldi.Chunki, tadqiq etilayotgan tarixiy-etnografik mintaqaning etnik tarkibida, turmush tarzi, xo’jalik faoliyatida, qaysi yirik etnoslar qurshovida bo’lish jihatlariga qarab ko’pgina tavofutlarga ham ega ekanligini hisobga olinishi zarur. O’zbekistonning janubiy mintaqalarida esa garchi qarluq, turk kabi etnografik guruhlar ilk o’rta asrlardanoq joylashib qolganiga qaramay XX asrgacha chorvachilik an’analarini saqlab qoldi.[153]Albatta ushbu jarayon ilmiy adabiyotlarda bevosita yoki bilvosita o’rganilganligi bois batafsil to’xtalmasdan, tadqiqot uchun ba’zi muhim jihatlari borasida fikr yuritamiz.

[153] . Кочевая степь Мавераннахра и ее население в конце XIX — начале XX в.: (По этнографич. данным) // Сов. Этнография. 1980, № 1. С. 46-55;

Xullas, rang-barang tabiiy-xo'jalik zonalarida xo'jalikning har-xil turlari taraqqiy etibgina qolmay bir-birini to'ldirdiva boyitib bordi. P.P. Ivanov ta'kidlaganidek, O'rta Osiyoda dehqonchilik hamda chorvachilik uchun bir xil ahamiyatli bo'lgan mintaqalar mavjud bo'lib, xo'jalikning barcha sohalari baravar rivojlanishiga imkoniyat bergan.

Aholining xo'jalik faoliyati uzoq tarixiy taraqqiyot davomida mavjud geografik muhit, ijtimoiy iqtisodiy munosabatlar qolaversa xalqning etnik qatlamlari hamda boshqa bir qator omillar bilan bevosita bog'liq holda rivojlanib tarqqiy etib kelgan. Xususan, O'zbekiston qolaversa, Vaxsh va Hisor vodiysio'zining qulay tabiiy sharoiti, unumdor tuproq, suv va boshqa sharoitlarini mavjudligi bilan ilk sug'orma dehqonchilik hamda ilk shahar-davlatchiligi vujudga kelgan qadimiy madaniyat o'choqlaridan biri hisoblanadi.[154]

Masalan, Fargona vodiysida ilk o'rta asrlardan XX asr boshlarigacha o'z etnik nomini saqlab kelgan har kanday etnoslar, ularning turmush tarzi va madaniyati xarakteri kanday bo'lishidan kat'iy nazar tezda mahalliy madaniyat, xo'jalik an'analari ta'sirida o'ziga xoslik kasb etadi. Bu qiyosiy tahlilni Zarafshon, Xorazm, Toshennt vohalari misolida ham davom ettirish mumkin.Aksincha, Farg'ona vodiysida qipchoq, qirg'iz, qorakalpoq kabi chorvador etnoslarning turmush-tarzida esa ushbu davrda o'troqlashuv jarayonini kuzatamiz.

O'rta asrlar davrida ham tadqiq etilayotgan (Tohariston) hududdagi xalqlar Markaziy Osiyoning bir qator viloyat (Farg'ona, Ustursh ona, Shosh, So'g'd, Kesh, Nasaf, Xorazm kabi)laridagi xalqlar qatori qadimdan turg'un yashab, dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullanib kelgan. Vohada hunarmandchilik ham o'ziga xos tarzda taraqqiy etib kelgan. XIX asr oxiri –XX asr boshlarida Surxandaryo vohasi sug'orma va lalmi dehqonchilik, shuningdek, bog'dorchilik va chorvachilik yetakchio'rin egallagan. Boshqa mintaqalar bilan qiyosiy taqqoslaganda bundagi qishloq xo'jaligi taraqqiyoti nisbatan past darajada bo'lgan. Agar ilgari Buxoro amirligivaO'rta Osiyoning boshqa davlatlari Hindiston

[154] Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана / АН СССР. Ин-т этнографии. М.: Наука, 1976, 32 с.

hamda Afg‘oniston bilan bevosita savdo aloalarini olib borgan bo’lsa, Chor Rossiyasi bosqinidan so’ng esa bu yo’l o’z ahamiyatini yo’kotdi. Bu holat mintaqaning xo’jaligiga xam salbiy ta’sir o’tkazdi.[155]

XIX asrning oxiri - XX asrning boshlarida Surxon-Sherobod vodiysida sug‘orish tizimi ham o’ziga xos tarzda bo’lib, asosiy suv manbalari Surxondaryo, To’palangdaryo, Ipoqdaryo, Sangardakdaryo, Dashnoboddaryo va Sheroboddrayodan iborat bo’lgan. Masalan, tadqiq etilayotgan davrda O’zbekistonning janubiy mintaqasi bo’lmish Surxondaryo 22 ta ariqqa, Xo’jaipokdaryo 10 ta ariqqa, Sangardakdaryo 13 ta ariqqa, To’palangdaryosi 7 ta ariqqa, Obzorandaryosi 5 ta ariqqa suv bergan.O’rta Osiyoning boshqa hududlari kabi Surxon-Sherobod vodiysida ham sug‘orish tarmoqlari tizimida o’ziga xos boshqaruv usuli mavjud bo’lgan.Bunda sug‘orish tarmoqlari tizimida «miroblar» asosiy faoliyat ko’rsatib, har bir mirob o’z qo’l ostidagiirrigatsiya tizimini boshqarganlar.

Janubiy vohalarda dehqonchilik qilish uchun imkoniyatlar yaxshi bo’lganligi sababli aholining katta qismio’troq hayot kechirgan. Misol uchun Denov bekligining umumiy maydonini 8791 desatina tashkil etib, bu hududning qishloq aholisi 53430 kishini, shahar aholisi 931 kishini tashkil etgan.233 Denov bekligi oltita amlakdorliknio’z ichiga olgan. Bunga Sina amlakdorligi - 1130 xo’jalik, Qarluq amlakdorligi - 610 xo’jalik, Xidirsho amlakdorligi - 485 xo’jalik, Po’stindara amlakdorligi - 365 xo’jalik, Gardiqo’rg‘on amlakdorligi - 325 xo’jalik, Do’rmon amlakdorligi - 295 xo’jalikdan iborat bo’lgan. Hammasi bo’lib beklikning 4695 xo’jaliknio’z ichiga oluvchi amlakdorliklari mavjud bo’lgan.Bu amlakdorliklarda dehqonchilik o’ziga xos tarzda rivojlangan edi.

Mavjud suv manbalaridan samarali foydalanish maqsadida buloq suvlarning o’zaniga katta xarsang toshlar tashlab, hovuzchalar qurilgan.Hovuzga yetarli darajada suv to’plangandan keyin to’g‘onning ichki tomonida qoldirilgan maxsus teshik ochilib, ekinlarga muayyan tartibda suv berilgan.

[155]O’shaasar.b-323 .

Janubiy O'zbekistonning kam suvli mintaqalarida yer va suvdan samarali foydalanish uchun Qashkadaryo viloyatining Koson va Qarshi tumanlarida yerdan jamoa bo'lib foydalanish an'anasiXX asr boshlariga qadar amal qilib kelayotgan edi. Ayniqsa, paykal tizimining jamoaviy xarakteri yer-suvdan oqilona foydalanish, suvni teng taqsimlash, jamoaviy hashar yo'li bilan korizlarni qazish va ta'mirlash ishlarini bajarishda katta ahamiyatga ega bo'lgan.O'zbekiston, umuman O'rta Osiyo hududlarida sug'orma dehqonchilikning o'ziga xos shakllari - yer-suv qo'shnichilik jamoalari keng rivojlangan. An'anaviy jamoaviy dehqonchilik O'zbekistonning tog'li, tog'oldi yoki yarim dasht mintaqalari (Xo'jand va Qarshi vohalari)da yaxshi saqlanib qolgan edi. Bu holatni Karmisheva bu zonalarda dehqonchilik mahsulotlarining kam darajada tovarlilik hususiyatga egaligi bilan izohlaydi. Shuningdek, XIX-XX asr chegaralarida Turkiston o'lkasi, Xiva xonligi va Buxoro amirligida jamoa bo'lib yerdan foydalanishning o'ziga xos farqli jihatlari saqlanib qolgan edi. Bu yerda saqlanib qolgan paykal tizimi xarakteri urug'-jamoaviy xarakterga egaligi bilan alohida ajralib turadi. Haydaladigan yerdan jamoaviy qayta taqsimlash asosida foydalanish uzoq davr moboynida asosan keyinchalik o'troqlashgan hamda qisman urug'larga bo'linishini saqlab qolgan turk, turk-mo'g'ul etnik guruhlario'rtasida saqlanib qolgan edi. Xuddi shu holat ham ularda urug'chilikni qisman XX asr boshlarigacha saqlanib qolishiga sabab bo'ldi.

Yag'noblar yashaydigan hududlarda yerdan foydalanishning jamoaviy – paykal va xususiy dehqonchilik – hayat formasi mavjud edi. Ammo qishloq xo'jalik mahsulotlarining tovarlilik darajasining oshishi bilan jamoa bo'lib (Uzoq asrlar davomida sug'orma dehqonchilik madaniyati taraqqiyotida asosiy rol o'ynagan yer-suv qo'shnichilik jamoasi Toshkent vohasida to'p , Farg'onada ketmon, Zarafshon vodiysida q o' sh, Xorazmda jabdi, Qashqadaryo va Surxondaryo havzalarida esa paykal deb atalgan.) yerdan foydalanishdan xususiy dehqonchilikka o'tish boshlandi. Albatta, bu jarayon juda sekinlik bilan kechayotgan edi.Olimaning fikricha yerdan foydalanishning tarixiy taraqqiyotini kuzatish orqali paykallar qadimgi hayatdan tashkil bo'lgan. U o'z fikrini davom

ettirib yerdan foydalanishning paykal tizimio’z navbatida keyingi davrlarda o’zgarib hayat shakliga o’ta boshladi.Ammo aksincha emas.Albatta muallifning bu fikrlario’rinlidir. Chunki X1X asr oxiri – XX asr boshlariga kelib, aholi soni va undan kelib chiqib sug‘orma yerlarda aholi zichligining ortishi, dehqonchilik mahsulotlariga bo’lgan talablarning oshishi va bir qism chorvador etnik guruhlarning dehqonchilik bilan shug‘ullanib, ularda o’troqlashuv jarayonining kuchayishi kabi omillar yerdan foydalanish shakllariga ta’sir o’tkaza boshlagan edi. Bu esa urug‘chilikka asoslangan jamoaviy-paykal tizimi asoslarini yemira boshladi. Natijada urug‘chilik elementlarining ahamiyati kamayib, assimilatsiya va xo’jalik-madaniy jihatdan yaqinlashuv jarayoni kuchaya boshlagan edi.

O’rta Osiyo aholisining xo’jalik-madaniy an’analarini tahlil qilar ekanmiz, dehqonchlik Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Panj va Vaxsh daryolarining yuqori qismlarida tog‘ va tog‘oldi mikrovohalarida, ya’ni bu daryolarning irmoqlari bo’yida shakllanganligini kuzatishimiz mumkin. Shu o’rinda O’rta Osiyo janubiy vohasida dehqonchilik XIX asr oxiri va XX asr boshlari uchun intensiv xarakterga ega emasligini ta’kidlab o’tmoq lozimdir. Chunki avvalo daryolarning suvi sug‘orib dehqonchilik qilish mumkin bo’lgan yerlarnito’la darajada ta’minlay olmas edi.Shuningdek, mavjud suv resurslari miqdori ham iqlim sharoiti bilan bog‘liq edi.Yog‘ingarchilik normada bo’lgan yillar ham faqatgina doimo ekiladigan yerlarni sug‘orishgagina yetar edi xalos. Shu sababli ham buloq, hovuz, havza va kichik tog‘ daryolari, soy suvlaridanfoydalanib dehqonchilik mahsulotlari yetishtirilgan. Suvga bo’lga ehtiyojni qondirish uchun Ko’hitang tog‘ etaklarida korizlar barpo etilgan.[156]

Yuqorida ta’kidlab o’tilganidek, sharqiy Buxoro, xususan biz tadqiq etayotgan Surxon-Sherobod vodiysida ham bu davrda dehqonchilik uchun yirik daryolardan emas, balki uning tog‘ yon bag‘ridan chiqqan kichik irmoqlari bo’yida dehqonchilik xo’jaligini yuritganlar. Janubiy mintaqa daryo suvlari tog‘, tog‘oldi va dasht zonalari orqali oqib o’tib, Amudaryoga quyiladi. Shundan kelib chiqib

[156] Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана / АН СССР. Ин-т этнографии. М.: Наука, 1976, 310 с.

daryoning o’rta va quyi havzalarida ham sug‘orma dehqonchilik mikrovohalari shakllanganligini ko’ramiz. Shuningdek, tog‘ va tog‘oldi mintaqalari va daryolarning irmoqlari bo’yida ham dehqonchilik rivojlangan. Baland tog‘ tizmalari sovuq havo oqimini to’sib dehqonchilik va chorvachilikning baravar nisbatda rivojlanishiga sharoit yaratib berdi.

Sug‘orma dehqonchilik zonalarida qadimdan bug‘doy, arpa, sholi, kunjut va poilzchilik maxsulotlari yetishtirilgan. Dehqon aholi azaldan almashlab ekishnito’g‘ri yo’lga qo’yganlar. Har bir yer egasio’z yerini uch qismga bo’lgan. Bir qismiga ikki – uch marta haydalgandan so’ng sholi va bug‘doy, boshqasiga kunjut ekkanlar. Uchinchi qismini esa haydalgan holida keyingi bahorgacha hech narsa ekmaganlar. Bahorgi ekinlar kunjut va no’xot kabilarni yig‘ib olib shu yerga oldindan ishlov berilmasdan qishki bug‘doy sepganlar. Bu yerlar “zamini shudgor” deb atalgan.[157]

Ikkinchi hududda lalmi dehqonchilik taraqqiy etgan va ekiladigan iste’moldagi yer sug‘orma yerlardan ko’p bo’lgan. Bu yerlarda ham almashlab ekish yaxshi yo’lga qo’yilgan edi. Almashlab ekish uchun bo’sh qoldirilgan yer bahorda ikkimarta va ekishdan oldin bir marta haydaladi. Bunday yerlar“manzara” yoki “marza” deb ataladi. Hisor tizmasi yonbag‘irlarida qadimdan ekstensiv dehqonchilik bilan shug‘ullanganlar. Bahorda Kavaksoy, Belisiniq, Darvozakan, Selga, Tammasoy, Bo’risoy kabi soylarda suvlarni qator ariqchalar shaklida to’plab tekislik tomon oqizganlar. Bu suvlar daradan chiqish joydagi minglab gektar yerlarga loyqa oqovalarni oqizib kelgan.Bu yerlarnio’zbeklar “selga” yoki “selga yerlari” deb ataganlar.Ilk bahorda bunday yerlarda hech qanday ishlovlarsiz bug‘doy, shuningdek, sabzavotchilik ekinlari ekilgan.Dehqonchilikning bu turi xalq orasida “selovakorlik” deb nomlangan.

Tadqiq etilayotgan vohada dehqonchilik faoliyati rivoji asosan sug‘orish ishlari bilan belgilangan.Shuning uchun yerlar obi-sun’iy sug‘oriladigan hamda lalmi-tabiiy yog‘inlar yordamida sug‘oriladigan yerlarga ajratilgan. Vohaning tekislik qismida sug‘orish imkoniyatlari mavjud bo’lgan hududlarda sug‘orma

[157]O’shaasar.B- 323 c.

dehqonchilikning rivojlanishiga sharoit yaratgan bo’lsa, suv tanqis bo’lgan tog‘ va tog‘ oldi hududlarida esa lalmikor dehqonchilik rivojlangan. Tadqiq etilayotgan davrda mintaqaning sun’iy sug‘orishga asoslangan hududlarida sholi, paxta, kunjut, jo’xori, zig‘ir, bug‘doy, arpa kabi ekinlar ekilgan. G‘alla ekinlari, poliz ekinlari hamda bog‘dorchilik kabi sohalar sug‘oriladigan hududlar bilan bir qatorda lalmikor yerlarda ham ancha taraqqiy etgan edi.

Shu o’rinda shuni ta’kidlash joizki, XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida Hisor bekligidao’rtacha bir tanob yerga 2-2,5 pud g‘alla ekilib, 33 pudgacha, ekilgan arpaning 2 pudidan 25 pudgacha hosil olingan. Vohaning daryo oldi hududlarida dehqonchilik sohasida sholikorlik yetakchi mavqega ega bo’lgan.Bunipanj yoqalarida joylashgan Xo’jamulki kabi qishloqlar misolida ko’rishimiz mumkin.

Hisor vodiysining tog‘ va tog‘ oldi hududlari hamda tekislik joylarida yong‘oq, olma, bodom, anor, shaftoli, o’rik kabi ko’plab mevali daraxtlar o’sgan. Xususan, Ko’lob bekligiga qarashli darbandqishlog‘ida xonlik hududida mashhur bo’lgan anorlar yetishtirilgan. Tog‘lihududlarda uzumchilik keng taraqqiy etgan. Polizchilik sohasio’ziga xos tarzda rivojlangan bo’lib, qovun va tarvuzlar yetishtirilgan. Shuningdek, sabzi, qovoq, piyoz kabi boshqa poliz ekinlari ham yetishtirilgan.Vohada sug‘oriladigan yerlarda beda, makkajo’xori, sholi kabi ekinlar bilan birga paxta ham yetishtirilib, davrlar o’tishi bilan paxta maydonlari kengayib bordi.[158]

XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida chorvachilik ham dehqonchilik kabi muhim tarmoqlardan biri sifatida o’ziga xos tarzda rivojlanib keldi.Vohaning qulay iqlimi, keng yaylovlarining mavjud bo’lishi bunda muhim ahamiyatga egadir. Ayrim tadqiqotchilar tomonidan voha chorvachiligio’rganilib, yaylovlarning tabiiy sharoiti va foydalanishimkoniyatiga qarab 3 turga bo’lgan: tog‘ bag‘ri va cho’l yaylovlari, ya’ni pastki tog‘ oldi va cho’l zonasi rayonlaridagi

[158] Кармышева Б.Х. Узбеки // Расы и народы. Ежегодник «Современные этнические и расовые проблемы». М., 1984. Вып. 14. С. 219

kuzgi, qishki, bahorgi yaylovlar; o'rta tog‘ rayonlaridagi bahorgi, yozgi, kuzgi yaylovlar; yuqori tog‘ rayonlaridagi yozgi yaylovlar.[159]

Yarim o’troq aholi bilan bir qatorda o’troq aholi ham chorvachilik bilan muntazam shug‘ullanib kelgan. Chunkio’troq aholi ham tegirmon juvozlarini yurgizishda, yer haydashda, xirmon yanchishda, qolaversa, ulov (transport) vazifasini bajarishda chorva mollaridan: ot, ho’kiz, tuya, eshakdan keng foydalanishgan. Shuningdek, uning sut, qatiq, go’sht, jun terisidan ham unumli foydalanilgan. Vohada tadqiq etilayotgan davrda yirik shoxli mollar, qo’ychilik, tuyachilik, yilqichilik keng rivojlangan.

Aholining xo’jalik faoliyatini tadqiq etishda jarayonida hunarmandchilik sohalarini etnologik jihatdan ilmiy tahlil etish muhim ahamiyatga egadir.Chunkihunarmandchilik ham turli etnik guruhlarning eng qadimiy xo’jalik faoliyatlaridan biri sanaladi. Xususan, turkiy xalqlarda ham temirchilik, kulolchilik, duradgorlik kabi bir qancha sohalar qadimdan rivojlangan bo’lib, o’troq va yarim o’troq aholi hunarmandchilikning barcha sohalarini mukammal o’zlashtirib olgan.

XIX asrning oxiri - XX asrning boshlarida O’rta Osiyoda temirchilar temir, po’latdan mix, qoziq, qulf, har xil xalqalar, eshik zanjiri, dehqonchilik asboblari, uysozlik qurollari kabi asboblarni tayyorlashgan.Voha aholisi asosan agrar soha bilan mashg‘ul bo’lganligi sababli ko’proq dehqonchilikda ishlatiladigan mehnat qurollaridan omoch tishi, tepkili bel, ketmon, o’roq, shoxa, arra kabi mehnat qurollariga ehtiyoj katta bo’lgan.Vohaning tog‘li hududlaridagi qishloqlarda temirchilik ustaxonalari bo’lib, shu qishloq ehtiyojidan tashqari bozorlarga ham chiqarib o’z mahsulotlarini sotganlar.

Tadqiq etilayotgan davrda vohaning qishloq hunarmandlario’z do’konlariga ega bo’lib, ishlab chiqarish qurollari, qolaversa, ishlab chiqargan buyumlari, ularning shaxsiy mulki hisoblangan.Ustaning qarindoshlari, farzandlari ayrim hollarda xotini ham shogird sifatida unga yordam bergan.Ustaxonalarda ishlar asosan qo’l kuchi bilan bajarilgan.Voha aholisi hayotida kosiblik muhim

[159]O’shaasar-b. 221

ahamiyatga ega bo'lib, kosiblar o'zlari tayyorlagan mahsulotlarini qishloqehtiyojlaridan tashqari bozorlarga ham chiqarib sotganlar.Kosiblarni mahsulot bilan ta'minlashda ko'nchilarning o'rni katta bo'lgan.[160]

Ko'nchilik bu ko'n tayyorlash kasbi bo'lib, «ko'n» termini mazmun jihatdan pishirilgan mol va boshqa xil terilarning barcha turlarinio'z ichiga oladi. Ko'nchilar o'zlari oshlagan terilari bilan kosiblar ehtiyojini qondirish ularning zimmasida bo'lgan. Ko'nchilar tomonidan oshlangan terilardan turli xildagi poyafzal, charm qutilar, qoplar, qilich va pichoq qinlari, ot jabduqlari hamda kitob muqovalari kabi buyumlar tayyorlashda keng ishlatilgan. Har bir ko'nchining o'z ustaxonasi, hovlisi yoki unga yaqin bo'lgan zovur va ariq yonida bo'lgan. Chunki ko'nchiish faoliyati davomida charmni oshlash ishlarini asosan suv ichida bajargan.Shuningdek, hovlining o'zida terilarga ishlov beradigan mehnat qurollarivositalari ham o'rnatilgan.Albatta, bu davrda bunday ustaxonalar do'kon deb yuritilgan.Vohada hunarmandchilikning uy-ro'zg'or xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan sohasi ham o'ziga xos tarzda rivojlangan bo'lib, tol tovoq, tol qoshiq, tol cho'mich, qolaversa, ijtimoiy turmush uchun kerak bo'lgan sandiqchilik, beshikchilik kabi turlari mavjud bo'lgan.Ularning ko'pchilik qismi bu kabi mahsulotlarni bozorga chiqaribgina qolmay, ishlab chiqargan mahsulotiga qarab aholi bilan natura shaklida ham savdo-sotiq qilganlar.Uy hunarmandchiligida kigiz bosish, ip yigirish, gilam to'qish, mato to'qish kabi sohalari ham mavjud bo'lgan.

XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida O'rta Osiyo janubiy hududlarida aholiijtimoiy turmushida bozorlarning ham o'ziga xos o'rni bo'lgan.Chunki voha aholisi qadimdan savdo-sotiq ishlari bilan ham shug'ullanib kelgan. Xususan, XX asrning 20-yillarida vohada 20 ta bozorfaoliyat ko'rsatgan. Bu bozorlar haftaning ikki kunida ishlagan.Bu bozorlar ichida xorijiy mamlakatlar bilan savdoda Pattakesar bozori muhim ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa, voha ichidagi savdo-sotiq masalalarida Sariosiyo, Sho'rchi, Denov hamda Sherobod bozorlarining o'z o'rni bo'lgan.

[160]O'shaasar-b. 223

O’rta Osiyo janubiy mintaqa aholisi xo’jalik faoliyativa an’anaviy mashg‘ulotlari qadimiy tarixiy tajribalarga ega bo’lib, o’ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Voha aholisiming yilliklar davomida avlod-ajdodlardan qolgan an’analarni saqlab, takomillashtirib, avloddan-avlodga yetkazib kelgan qadimiy o’troq madaniyatga ega bo’lgan xalqlardan biri sanaladi. Voha aholisining dehqonchilik sohasidagi tajribasi, ho’jalik yuritish tizimio’zining an’anaviy turmush tarziga ega bo’lib, sug‘orish tizimi, ekin navlari, dehqonchilik mehnat qurollari muntazam tarzda takomillashib borgan. Ayniqsa, chorvachilik sohasidagi aholining an’anaviy mashg‘ulotlari tufayli chorva nasli yaxshilanib, chorva mahsulotlariichkiva tashqi bozorni maxsulot bilan ta’minlash bo’yicha katta tajribaga ega bo’lgan. Qorako’l maxsulotlari Buxoro amirligining asosiy foyda ko’ruvchi, xazinani boyituvchi turi hisoblangan.[161]

O’rta Osiyo janubiy mintaqa tayyorlangan hunarmandchilik mahsulotlari chet ellarda mashhur bo’lib, Buxoro amirligi tomonidan alohida nazoratga olingan.Shuningdek, chorvachilik ham mintaqa aholisi xo’jalik faoliyatining asosiy va eng qadimiy turlaridan biri. Boshqa hududlar aholisining chorvachiligi bilan ko’pgina o’xshash jihatlari bo’lsa-da, Janubiy O’zbekistonda etnik guruhlarning har birida uy hayvonlarini boqishda o’ziga xos usullariva jihatlari bo’lishi tabiiy. Shu bilan birgalikda, hatto bir elat istiqomat qiladigan hududda ham chorvachilik xo’jaligini yuritishdagi tabiiy-geografik sharoitlar tufayli, qo’shni xalqlarning ta’siri yokiijtimoiy-iqtisodiy sabablar natijasida xilma-xil usullardan foydalanganliklarini kuzatishimiz mumkin.

O’rta Osiyo janubiy mintaqasida chorvachilik xo’jaligining o’rganilayotgan davrdagi qadimdan shakllangan bir qancha tiplarini uchratish mumkin.Bular, yarim o’troq chorvachilik yokio’troq xo’jalikning bir sohasi sifatida chorvachilik bo’lishi mumkin.Bu chorvachilik tiplari turli joylarda o’ziga xos variantlarga ega bo’lishi mumkin.O’troq aholida chorva boqishning qo’ra yoki qo’ra yaylov tizimi, ko’chmanchi aholida esa yaylov tizimi ustun turgan.Ma’lumki, o’troq aholi bilan yarim o’troq aholi orasida turli xildagi chorva xo’jaligi mavjud bo’lgan.Ilgari

[161]O’shaasar-b.230

ko’chmanchi bo’lgan qabilalardan Movarounnahr turklari, Dashti qipchoqdan kelib joylashgan qo’ng‘irot, loqay, qarluq, turk kabi yirik qabilalarning avlodlari chorvador hisoblanganlar. Ular bahorda qo’ylar bolalagandan keyin podani tog‘liva adirlardagi yaylovlarga yoki dasht o’tloqlariga haydab chiqqanlar.

O’troq ziroatchilik bilan shug‘ullanuvchio’zbeklarda chorvachilik uncha rivojlanmagan, chunki sug‘orma yer tanqisligidan xashak yetmagan. Mahalliy dehqonlar oz sonli sigir, echkiva qo’yni sut-qatiq va go’sht uchun, ot va eshakni minish va yuk tashish uchun parvarish qilganlar. Ot-arava va ho’kizlar ko’proq boy-baquvvat oilalarda bo’lgan. O’troq aholio’z mollarivaqo’ylarini jamoa bo’lib, maxsus yollangan cho’ponlarga boqtirganlar va og‘ilxonalarda saqlab boqqanlar. Janubiy O’zbekistondagi ekstensiv xo’jalik sharoitida chorvachilikka e’tibor katta bo’lgan va uzoq davr to’plangan amaliy tajribaga tayangan holda avloddan-avlodga yetib kelgan. Qo’ychilik asosan sotishga mo’ljallangan.Chorvachilikda ayniqsa qorako’lchilikka katta e’tibor berilgan.Qorko’l qo’ylari asosan tekisliklardagi yaylovlarda boqilgan.Kuzga yaqin hosil yig‘ilgandan keyin podalar yaylovlardan qaytarilib, qishloqdagi maxsus ajratilgan qo’tonlarda saqlangan.Ular qishloq atrofidagi dalalarda boqilib, kechalari qo’tonlarda to’plangan. Keyingi bahorda qo’y-qo’zilar yana yaylovlarga chiqarilgan Qorako’lchilik rivojlangan dasht rayonlarda qorako’l terilari bozorga chiqarilgan. Qorako’l terilariniilgari maxsus savdogarlar o’z vakillari orqali terib olganlar, barra go’shti shahar bozorlariga chiqarilgan.Qo’ylarning dumbali hisori nasllari ayniqsa Janubiy O’zbekistonda ko’proq bo’lgan. Ular ko’proq tog‘li yaylovlarda kuzning o’rtalarigacha boqilgan, keyin vodiyga haydab keltirilib, kuzgi juni qirqib va qochirib bo’lguncha qishloq atrofidagio’tloqlarda va og‘ilxonalarda boqilgan. Qo’y juni ham bozorga chiqarilgan. Undan ayrim xo’jaliklarda kigiz, palas, gilam, qop va xurjun ishlab chiqarilgan va qisman savdo qilingan. qo’y terisidan po’stin va telpak, shuningdek, to’shama, mesh, sanoch va boshqa uy-ro’zg‘or buyumlari yasalgan.[162]

[162]O’shaasar – b. 3 – 22.

Shuningdek, o’rganilayotgan davr ya’niXIX–XX asr boshlarida hunarmandchilik ham xo’jalikning muhim tarmog‘i hisoblangan. O’tmishda o’troq o’zbeklar nafaqat qo’shni ko’chmanchi elatlar mahsulotiniiste’mol qiluvchilar, balki ular uchun zarur hunarmandchilik maxsulotlarini yetkazib beruvchilar sifatida ham namoyon bo’lgan. Shuning uchun mahalliy ustalar ko’plab teri va jundan, yog‘och va metalldan, paxta va ipakdan turli buyumlar, kiyim-kechaklarniishlab chiqarib bozorda sotganlar.

Hunarmandchilikning yana bir xususiyati uning ko’p sohalarining bevosita uy-ro’zg‘or xo’jaligi bilan bog‘liqligi edi. Ko’p hunarmandlar asosiy kasbidan tashqari qishloq sharoitida (ba’zan shaharda ham) dehqonchilik, bog‘dorchilik va sabzavotchilik bilan ham shug‘ullanib kelganlar. Uy hunarmandiligi asosan chig‘atoy, turk, xo’jalar, tog‘chi-qatag‘onlar keng rivojlangan. Ularning ko’pchilik qismio’z maxsulotlarini yaqin bozorga chiqaribgina qolmay, ishlab chiqarilgan mahsulotiga qarab natura bilan ham haq olganlar. Bunday holat qishloq jamoachiligi an’analari bilan bog‘liq bo’lib, dastavval hamqishloqlar ehtiyojlari bilan bog‘liq edi. Hunarmandchilikning keng tarqalgan sohalaridan biri – temirchilikdir.Degrez asosan har xil hajmdagi qozon, poza, choy idish, obdasta, arava g‘ildiragi kabi xo’jalik buyumlariniishlab chiqarganlar. Tog‘chi-qatag‘onlarda metall eritish “qandi pishirish” deb nomlangan. Umuman metall buyumlar ishlab chiqarish hunarmandchiligi asosan to’rtta yirik sohaga bo’lingan: temirchilik, zargarlik, miskarlik va tunukasozlik. Shulardan eng qadimgisi temirchilikdir.

Shuningdek, yog‘och buyumlari yasash hunarmandchiligi ham qadimiy sohalarga kiradi. Mahalliy ustalar yog‘ochdan har xil ishlab chiqarish qurollari, uy-ro’zg‘or buyumlari, transport vositalari (arava, kema), sinch vaKo’hitang, Hisor tizma tog‘larida tog‘chi-qatag‘onlar yashaydigan qishloqlarda metall ertilgan o’ziga xos pechlarning o’rni saqlanib qolgan. Ustunlar, sandiq va boshinlar, elak va chora egar va hokazolar ishlab chiqarganlar. quroqchilik, ipakchilik, ip-gazlama to’qish, kiyim-kechaklar tikish, uni pardozlash ishlari keng rivojlangan. Bu qismda umuman ayrim etnik guruhlararo ixtisoslashgan xo’jalik turlari haqida ham

to’xtalib o’tamiz.Masalan, o’zbek-qatag‘onlariijtimoiy turmush tarzi, xo’jalik faoliyati ham o’ziga xos tarzda rivojlangan edi. Yarim ko’chmanchiva yarimo’troq o’zbek urug‘larining boshiqlariilgari jamoa mulki bo’lgan yerlarnio’zlariga qaratib oldilar:

Samarqandda qatag‘onlar yuqori tabaqa vakillari katta yer – mulklarga ega bo’lganlar.Bu yer “Mulk-hur-xolis” atalib, har qanday yer soliqlaridan ozod bo’lgan. Bu yer-mulklar avloddan - avlodga meros sifatida o’tgan va faqat qatag‘onlar foydalanib kelganlar. Yerlarga ularning o’ziishlov bermay, balkio’zbeklarning boshqa urug‘lariga ijaraga berganlar deb ma’lumot beradi, B. X. Karmisheva.

Demak, bu davrda qatag‘onlar orasida yirik yer egalari mavjud bo’lgan vao’zlarining o’ziga xos xo’jalik tuzilishiga va moddiy madaniyatiga ega bo’lganlar. Ular boshqa o’zbek qabilalaridan alohida yashaydilar.Ammo, “ko’histoni” tojiklari bilan qisman aralashgan holda doimo xo’jalik va nikoh munosabatlarida bo’lganlar”. Ularning katta qismi cho’yandan yasalgan omoch tishlar va har xil idishlar bilan dehqon aholini ta’minlaganlar. Denov atrofidagi qatag‘on qabilasiga mansub o’zbeklar to’qigan gilamlar sifati a’lo bo’lgan. Ular asosan tog‘li joylarda yashaganligi tufayli xo’jaligida dehqonchilik, chorvachilik va shuningdek, bog‘dorchilik yetakchi tarmoq hisoblanib, asosiy o’rin egallagan. O’z-o’zidan ayonki, bog‘dorchilik rivojlangan joyda esa bir qadar muqim o’troq hayot tarzi vujudga keladiva shu asosida hunarmandchilik hamda to’qimachilik kabi xo’jalikning muhim tarmoqlari vujudga keladi. XX asr boshlarida O’rta Osiyo janubiy mintaqa aholisio’ziga xos xo’jalik tizimiga ega bo’lganlar. Bular xo’jaligida ham yetakchi tarmoq dehqonchilik, chorvachilik va bog‘dorchilik hisoblanadi. Dehqonchilikda bo’g‘doy, arpa va jo’xori kabi ekinlar ekilgan. [163]

Bog‘dorchilikda olma, o’rik, olma, yong‘oq, jiyda, uzum, olcha, nok kabi mevali daraxtlar ekilgan.Tabiiy sharoitlar qulayligi tufayli daraxtlarjuda tez yetilib, serhosil bo’lgan. Daraxtlar tog‘ yon bag‘rilariga ekilgan va buloq suvi yordamida

---

[163] Кармышева Б.Х. Этнографическая группа «тюрк» в составе узбеков (историко-этнографические данные) // СЭ. 1960. №1. С. 3 – 22.

sug‘orilgan. Tog‘ning yuqori qismidagi buloqlardan ma’lum nishablik va qiyalikda maxsus ariqlar qazilgan. Ikkitog‘ yonbag‘ri juda katta hududlar bo’ylab mevali daraxtlar ekilgan. Hosilni terib olgandan keyin ma’lum qismiO’rta Osiyo janubiy mintaqa bozorlarida sotganlar, ma’lum qismi esa quritib, mayiz, qoqivao’rik tayyorlaganlar. Ular muntazam ravishda beklikka jo’natib turilgan.[164]

Shuningdek, chorvachilik ham bu qavmning asosiy mashg‘ulotlaridan biri bo’lgan. Chorvachilikda qo’y, echki, yilqiva qisman qoramol boqqanlar. Tog‘li joyda sovuq vaissiqda chidamli bo’lganligi uchun qo’yga nisbatan echkini ko’proq boqishgan. Echkiva qo’yni go’sht va jun olish uchun boqqanlar.chorva uchun yaylovlar juda keng bo’lib, yilning deyarli to’qqiz oyida to’liq yaylovlarda boqilgan. Qolgan uch oyida yil davomida to’plangan zahira ozuqa, yem-hashak bilan ta’minlaganlar.Demak, xo’jalikning uch tarmog‘i asosida hunamandchilik ham rivoj topa bordi.Turli sopol buyumlar, to’qimachilik asboblari, o’roq, bolg‘a, ketmon, bolta kabi dehqonchilik ish qurollari yasovchi ustalar, temirchi degrezlar paydo bo’ldi.Degrezlik qadim hunarlardan bir bo’lib, cho’yan eritib, turli xil metall qotishmalar tayyorlab, beklikka muntazam topshirib turganlar.Xalq tilida buni “qandi pishirish” deb ataladi. Hozirgi vaqta O’rta Osiyo janubiy mintaqa tog‘ etaklarida cho’yan eritiladigan o’choqlarning qoldiqlari saqlanib qolgan.

Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelish mumkinki, tadqiq etilayotgan mintaqada o’troq va yarim o’troq aholining o’zaro etnomadaniy munosabatlari natijasida vujudga kelgan uyg‘unlik turli etnik guruhlarning nafaqat qondosh-urug‘chilik balki, yagona madaniy mansublikning samarasidir. Shu bilan birgalikda, o’troq aholi hamda yarim o’troq aholio’ziga xos etnik differensiatsiyaga ega bo’lsa-da, bu holat assimilyatsiya jarayonlariga ta’sir o’tkazmagan. Aksincha, turli etnik
komponentlar turlicha turmush tarziga ega bo’lsa-da, etnik-madaniy jihatdan bir-birini boyitgan va o’zaro ta’sir o’tkazgan.

[164] Кармышева Б.Х. Этнографическая группа «тюрк» в составе узбеков (историко-этнографические данные) // СЭ. 1960. №1. С. 3 – 22.

# XULOSA

Tarixiy manbalar asosida keng qamrovli ilmiy tadqiqotlari samarasi sifatida O'rta Osiyodagi etnik jarayonlarning ilk tarixiy ildizlariga tayanib, turkiy xalqlarning etnologiyasi, etnogenizi va etnik tarixini o'rgangan etnograf B.X.Karmishevaning murakkab hayot yo'li va ilmiy faoliyatini o'rganish borasida oz bo'lsada ma'lum natijalarga erishdik va quyidagi xulosaga keldik.

Balkis Xalilovna Karmishevaning asosiy ilmiy sohasi – etnograf, turkolog bo'lib, to umrining oxirigacha etnografik va etnologik bilimlarni to'plash, o'rganish va ilmiy tahlil qilish bilan shug'ullandi. Uzoq yillar davomida qilgan mehnatlari va amaliy tadqiqot ishlari uchun tarix fanlari doktori, professor darajasini oldi. S.S.Gubayeva tabiri bilan aytganda "o'z yo'nalishining mohir ustasi, har bir ilmiy ishini kuzatuvchanlik va zo'r g'ayrat bilan amalga oshiradigan, ertadan-kechgacha tinim bilmay harakat qiladigan mehnatsevar chumoli edi. U O'rta Osiyo xalqlari etnogenizi va etnik tarixini o'rganish barobarida xalqning tili, dini, falsafiy dunyoqarashi va ijtimoiy psixologiyasini bilan yaqindan tanishdi va sabot bilan o'rgandi. Buni o'z esgaliklarida ham qayd etib o'tadi.B.X.Karmisheva

o’z yo’nalishining haqiqiy ijodkori, qalam tebratuvchisi hisoblanadi.Uning ishlarida xolislik va adolatlilik tarannum etgan mohir ijodkor edi...”

Olima butun O’rta Osiyo adirlari va bepoyon kengliklarini yayov kezib chiqqan va har bir urug’, elat va xalqning etnogenizi va etnik tarixi bo’yicha ma’lumotlar to’plagan, moddiy va ma’naviy madaniyati bo’yicha chuqur ilmiy izlanishlar olib borgan tadqiqotchi sifatida ko’rishimiz mumkin.

B.X Karmishevaning O’rta Osiyoga oid tadqiqotlari, etnologik va tarixshunoslik tahlilinini o’rganish jarayonida o’zbek va tojik xalqlari etnografiyasi, etnogenizi va etnik tarixiga oid ilmiy-amaliy jihatlarini ko’rsatib o’tishimiz joizdir.

Karmisheva tadqiq etgan mintaqa aholisining etnik tarkibi murakkab bo‘lib, uzoq tarixiy-etnik jarayonlar natijasida shakllangan va o‘ziga xos xususiyatlarga egadir. Xususan, o‘zbek xalqi tarkibida mavjud bo‘lgan etnik komponentlar (etnolokal, qarluq, qipchoq va o‘g‘uz komponentli) ushbu mintaqada yaqqol ajralib turadi.

Karmishevaning ma’lumotlaridaO’rta Osiyo mintaqada o‘ziga xos tarzda qaror topgan etniklik, etnik-madaniy identiklik, etnomadaniy birliklarning tavsifiy xususiyatlari, shakllanish jarayonlari etnologik aspektda tahlil etganligini guvohi bo’ldik.

O‘zbek va tojik xalqi Movarounnahr hududlariga muttasil joylashuvi mobaynida bir qism etnik guruhlari muntazam ravishda o‘troq dehqonchilik madaniyatiga ega bo‘lgan aholi bilan assimilyatsiya jarayonini boshidan kechirdi. Janubiy O‘zbekiston aholisi va tojik xalqi etnik-madaniy muhitiga xos bo‘lgan aholining hududiy-lokal etnik birliklari, urug‘-aymoq (avlod, to‘p, urug‘)larga bo‘linish tartibotining saqlanib qolganligi haqida ma’lumotlardan asosli xulosa chiqarishga muvaffaq bo’ldik. Bu esa tadqiq etilayotgan ishning etnologik va tarixshunoslik jihatdan o’rganishga yordam berdi.

Bitiruv malakaviy ishda Karmisheva o’rgangan hudud aholisining xo‘jalik-madaniy an’analari etnik jarayolarga ta’sir etish etnograf asarlari bo’yicha ko‘rib chiqdik va mazkur mintaqa xalqlarining xo’jalik faoliyati va ananaviy

mashgulotlari xususida asosli xulosalarga ega bo'ldik. Ma'lumki, turli xo'jalik xususiyatlariga, jumladan, o'troq dehqon va xo'jaligida chorvachilik yetakchi o'rin egallagan turli etnoslarning o'zaro iqtisodiy-xo'jalik, madaniy-savdo munosabatlari ham etnik jarayonlarga sezilarli ta'sir etib, assimilyatsiya jarayonlarini jadallashtiradi. Demak, O'rta Osiyo hududida sun'iy sug'orishga asoslangan o'troq dehqonchilik va an'anaviy chorvachilikni dehqonchilik bilan qo'shib olib boradigan yarim ko'chmanchi va o'troq aholi xo'jaligi tiplari xos bo'lib, ular ham o'z navbatida turli tarixiy-etnografik mintaqalarda ma'lum lokal variantlarga egadir.

B.X. Karmishevaning O'rta Osiyoga oid tadqiqotlarida hududiy etnoxo'jalik ixtisoslashuvining asosiy yo'nalishlariga asosiy xulosa beradigan bo'lsak, barcha xo'jalik-madaniy tiplarga mansub aholi etnik mansublikdan qat'iy nazar garchi u o'troq yoki yarim o'troq turmush tarziga ega bo'lsada etnik xo'jalik-madaniy tipiga mansubligi belgilarini o'zida aniq ravshan aks ettirgan.

B.X.Karmishevaning O'rta Osiyoga oid tadqiqotlari, ilmiy-amaliy ishlarining ahamiyati xususida tarixshunoslik masalalarida, chiqargan monografiyalar va dissertatsiyalarida mazkur mintaqaning tarixiy etnografik holati, aholisining etnogenizi va etnik tarixi, umuman etnologik tadqiqotlarining barchasi ko'rsatib berilgan. Umimiy xulosa qilgandaolimaning tadqiqotlari O'rta Osiyo hududida yashayotgan xalqlarning etnogenizi va etnik tarixinio'ziga xos uslubda, ya'ni o'rganilayotgan hudud aholisining tili, dini, madaniyati va etnik xususiyatlaridan kelib chiqib amalga oshirilganligi bilan harakterlanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlari**

1. 1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari // Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. – Toshkent: O'zbekiston, 1998. T. 6. – B. 31-261.

1. 2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q // Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 1999. T. 7. –B.132-154.

1. 3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.

2. **Monografiya va turkum nashrlar**

2.1.Abdullaev U.S. Farg'ona vodiysida etnoslararo jarayonlar (XIX– XX asr boshlari). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. – 215 bet.

2.2. АбдулхамидовА. ОрошениевпредгоряхУзбекистана. – Ташкент: 1990. – 179 с.

2.3. АбдулхамидовА. ИзисторииинароднойирригационнойпрактикивзонепредгорнойУзбекистанав

X1X–нач. XXв. (историко-этнографическоеисследование) – Ташкент: 1981. – 161 с.

2.4. АбдурахмановГ.А. Этногенезузбекскогонародаиразвитиеегоязика // Проблемы этимологиитюркскихязиков. – Алма-ата: Гилим, 1990. - С. 26-36.

2.5. Абрамзон С.М. Формы родоплеменной организации у кочевников Средней Азии // Родовое общества. ТИЭ, 1951. Т. XIV. – С. 23-56.

2.6. Ахмад Дониш. История Мангытской династии / Перевод, предисловие и примечания И.А. Наджафовой. – Душанбе: Дониш, 1967 – 142 с.

2.7. Ананьев А.Г. Шерабадская долина. – СПб. 1914. – 81 с.

2.8. LuninB.V. 20-30-yillardaO‘zbekistondaetnografiyamasalalariningo‘rganilishi // XXasrningo‘ttizinchiyillaridaO‘zbekistondatarixfani (Tarixshunoslikocherklari). 2-qism. – Toshkent, 1994.B. 309-327.

2.9. Абдураимов М.А. Вопросы феодального землевладения и феодальной ренты в письмах эмира Хайдара. – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1961 – 107 с.

2.10. Андреев М.С. Некоторые результаты этнографической экспедиции в Самаркандскую область в 1921 году // ИТОРГО, 1924. Т. XVII.

2.11. Андреев М.С. Таджики долины Хуф. Верховья Амударьи. Вып. 2. - Сталинабад: Изд. АН Тадж ССР, 1958. – 526 с.

2.12. Аристов Н.А. Англо-индийский «Кавказ». Столкновение Англии с авганскими пограничными племенами (этнико-исторический и политический этюд) // Живая Старина. Вып. VI. 1899. – С. 18-32.

2.13. Аристов Н.А. Заметки об этническом составе тюркских племен и народностей и сведения об их численности // Живая Старина. Вып. III-IV. 1896. – С. 6-36.

2.14. Аристов Н.А. Об Афганистане и его населения // Живая Старина. Вып. III-IV. 1898. – С. 12- 28.

2.15. Аскаров А.А. Некоторые аспекты изучения этногенеза и этнической истории узбекского народа // Материалы к этнической истории населения Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1986. – С. 3-14.

2.16. Ахмедов Б.Х. Государство кочевых узбеков. - М.: Наука, 1965.–195 с.

2.17. AxmedovB.A. Tarixdansaboqlar. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994.

2.18. AxmedovB.A. O‘zbekulusi. – Toshkent: Nur, 1992.

2.19. AxmedovB.A. O‘zbeklarningkelibchiqishi. – Toshkent: Fan, 1964.

2.20. Бартольд В.В. Гиссар (Хисар) / Соч. Т. III. – М.: 1965.

2.21. Бартольд В.В. Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии. / Соч. Т.5. – М.: 1968.

2.22. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана / Соч. Т. II. Ч. 1. – М.: 1963.

2.23. Бартольд В.В. Сарт / Соч. Т. II. Ч. 2..– М.: 1964.

2.24. Бартольд В.В. Термиз / Соч Т. III.– М.: 1965.

2.25. Бартольд В.В. Чаганиан / Соч. Т. III.– М.: 1965.

2.26. Батраков В.С. О разделении труда между кочевыми и оседлыми районами // Труды Среднеазиатского Государственного университета (Далее – Труды САГУ). – Ташкент, 1955. Вып. LXXV. – С. 113-138;

2.27. Батраков В.С. Особенности развития сельского хозяйства Бухарского ханства с половины XVIII до 70-х гг. XIX века // Труды САГУ. – Ташкент, 1962. Вып. 193. – С. 154-184.

2.28. Борнс А. Путешествие в Бухару.– М.: 1849.

2.29. Борозна Н.Г. Материальная культура узбеков Бабатага и долины Кафирнигана // Материальная культура народов Средней Азии и Казахстана. – М.: 1966. – 91-120.

2.30. Бурхан-уд-Дин-хан-и Кушкеки. Каттаган и Бадахшан. Данные по географии страны, естественно-историческим условиям, населению, экономике и путям сообщения / Пер. с. перс. – Ташкент: 1926.

2.31. Bo‘rievO., UsmonovM. O‘zbeklar: etniktarixivaetnomadaniyjarayonlar. – Samarqand: 2008. – 243 b.

2.32. Bo‘rievO. Chig‘atoylaretniktarixidan // MarkaziyOsiyodaan’anaviyvazamonaviyetnomadaniyjaraènlar. 2 qism.Toshkent: 2005. 1-qism. – B. 138-143.
2.33. Bo‘rievO. JanubiyO‘zbekistonaholisietniktarixidan // Tarix, mustaqillikvamilliyg‘oya. – Toshkent: Akademiya, 2001. – B. 206-209.
2.34. Bo‘rievO. Qatog‘onetnosihaqidaba’zimulohazalar // MustaqilO‘zbekistonvamillatlararomunosabatlardagibarqarorlik. – Toshkent: ToshDU, 1995. – B. 10-12.
2.35. Валиханов Ч.Ч. Предания и легенда Большой киргиз-кайсацкой орди / Собрание соч. В 5-томах.– Алма-Ата: 1961.
2.36. ValidiyAhmadZakiy. O‘zbekurug‘lari // O‘zbegim. «ZvezdaVostoka» jurnalikutubxonasi. – Toshkent: 1992. – B. 110-113.
2.37. Вамбери А. Путешествие Средней Азии из Тегерана через Туркменскую пустыню по восточному берегу Каспийского моря в Хиву, Бухару и Самарканд, предпринятое в 1863 г. / Изд. 1-е. – М.: 1867; Изд. 2-ое. 1874.
2.38. Василев. П.С. Статистические материалы для описания Бухары. Бекство Ширабадское и часть Байсунского // СМА. Вып. LVII. 1894.
2.39. Вахабов М. Формирование узбекской социалистической нации. Ташкент: Госиздат, 1961. – 587 с.
2.40. Востров В.В., Муканов М.С. Родоплеменной состав и расселение казахов (конец X1X - начало XX в.). – Алма-Ата: 1968.
2.41. Введенский П.П. Территория и население ТАССР // Народное хозяйство Таджикистана. – Ташкент: 1926.
2.42. Гаврилов М.Ф. Материалы к этнографии «тюрок» Ура-тюбинского района // ТСАГУ. Сер 2. Orientella. Вып. 2 – Ташкент: 1929.
2.43. Галкин М.Н. Военно-статический очерк средней и южной частей Сурханской долины // СМА. Вып. LVII.– 1894.
2.44. Гафуров Б.Г. Таджики (Древнейшая, древняя и средневековая история). Кн. 1. – Душанбе: Ирфон, 1989.

2.45. Гребенкин А.Д. Родословная Мангитской Династии / Материалы для статистики Туркестанского края.– Ташкент: 1874. Вып. 3. – С. 340-376.

2.46. Гребенкин А.Д. Узбеки / СРТ, 1872. Вып. II. – С.51-109

2.47. Гребенкин А.Д. Таджики / СРТ, 1872. Вып II.– С. 2-50

2.48. Греков Б., Якубовский А. Золотая Орда. Очерк истории Улуса Джучи в период сложения и расцвета в XIII-XVI вв. - Л.: 1937.

2.49. Данияров Х. О происхождении этнонима тюрок и о значении слова тюрок // A. NavoiynomidagiSam. DU. asarlari / O‘zbektilshunosligimasalalari. – Samarqand: 1971.– № 188.– B. 22-27.

2.50. DoniyorovA.X. O‘zbekistonetnografiyasitarixidanayrimlavhalar (XXasrning 20-80-yillari). – Toshkent: Yangiasravlodi, 2003. – 80 b.

2.51. Дебец Г.Ф. Антропологические исследования узбеков, туркменов, хазара, таджиков, персов и белуджей / ПОАИА. Вып. 6. 1968.

2.52. Джикиев А. Очерк этнической истории и формирования населения южного Туркменистана. – Ашхабад: 1977.

2.53. Дидрих Т.Г. Топонимы бассейна Сурхандарьи включающие понятия «группа», «община» / Ономистика Средней Азии. – Фрунзе: 1980. – С. 139-241.

2.54. DoniyorovA.X. O‘zbekistonetnografiyasitarixidanayrimlavhalar (XXasrning 20-80-yillari). – Toshkent, 2003. – 80 b.

2.55. DoniyorovX. Navoiyo‘zbeketnonimivaqipchoqo‘zbeklarhaqida / A. NavoiynomliSamDUo‘qit. vaprof. 1966 yilgi 24-ilmiykonferensiyasiningmateriallari (filologiyaseriyasi). – Samarqand: 1969. – B. 226- 231.

2.56. DoniyorovX. O‘zbekxalqiningshajaravashevalari. – Toshkent: 1968.

2.57. Евреи в Средней Азии: Вопросы истории и культуры / Сборник научных статьей и докладов. – Ташкент: Фан, 2004. – С. 79-92

3.**Xorijiyadabiyotlar:**

3.1. Этнические группы и социальные границы. Социальные организация и культурная различия / Под.ред. Ф.Барта. пер. с англ. И. Пильщикова. – М.: Новоеиздательства, 2006. – 200 с.
3.2. Jarring G. On the Distribution of Turk Tribes in Afganistan.An Attempt at a Puliminari Classification.Lands Universitets Arsskifi. N.F.A. Vol. 7. – Leipzig: 1939. № 34.
3.3. Jarring G. Uzbek text from Afghan Turkestan, with glossary. Lands Universitatets Arsskrift.N.F.A. Vol. V. – Leipzig: 1938.
3.4. Schurmann H.P. The Mongols of Afganistan.An Ethnography of the Mongols and Related Peoples of Afganistan. The Hague. 1962.
EthnographyoftheMongolsandRelatedPeoplesofAfganistan.TheHague. 1962.

**4. B.X.Karmishevaningasarlari, monografiyavaturkumnashrlari**

4. 1. Кармышева Б.Х. Узбеки-локайцы Южного Таджикистана. ТИИАЭ АН Тадж.ССР. Сталинабад. 1954. Т. Вып.1. С. 97 – 127.
4. 2. Кармышева Б.Х. Локайские мапрамачи и илгичи. Сообщения республиканского историко-краеведческого музея. История и этнография. 1955. Вып.2. С. 121 – 145.
4. 3. Кармышева Б.Х. Жилища узбеков племен карлук южных районов Таджикистана и Узбекистана // ИООН АН Таджикской ССР. Душанбе. 1956. Вып.10-11. С. 13-23.
4. 4. Кармышева Б.Х. Этнографическая группа «тюрк» в составе узбеков (историко-этнографические данные) // СЭ. 1960. №1. С. 3 – 22.
4. 5. Кармышева Б.Х. Типы скотоводства в южных районах Узбекистана и Таджикистана (конец XIX – начало XX века) //СЭ. 1969. № 3. С. 44 – 50.
4. 6. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. М., 1976.
4.7. Кармышева Б.Х. Узбеки // Расы и народы. Ежегодник «Современные этнические и расовые проблемы». М., 1984. Вып. 14. С. 219 – 230

4. 8. Кармышева Б.Х. Архаическая символика в погребально-поминальной обрядности узбеков Ферганы // Древние обряды, верования и культы народов Средней Азии. М., 1986. С. 139-181.

4.9. Кармышева Б.Х. Каратегинские киргизы. М., 2009.

4.10. Б. Х. Кармышева Народы и религии мира. Энциклопедия. М., 2000, с. 562

4. 11. Узбеки-локайцы Южного Таджикистана. Душанбе, 1954;

4. 12. Среднеазиатские арабы // Народы Средней Азии и Казахстана. Т. 2. М.: 1963. С. 582—596.

4. 13. Таджикско-узбекский народный географический термин вилаят // Этнография имен. М.т 1971. С. 212—218.

4. 14. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана / АН СССР. Ин-т этнографии. М.: Наука, 1976, 323 с. (Защ. как докт. дисс.)

4.25. Комментарий к разделу «Свадебные обряды у киргизов» Ф. А. Фиельструпа // Антропологические и этнографические сведения о населении Средней Азии. М., 2000 (в соавт. с С. С. Губаевой).